

T. Majidov

**NOANA'NAVIY VA  
QAYTA TIKLANUVCHI  
ENERGIYA MANBALARI**

Toshkent – 2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

T.Sh. MAJIDOV

# NOANA'NAVIY VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan oliy o'quv yurtlarining 450000 (irrigatsiya va melioratsiya  
sohasi bo'yicha), 5450100 (tarmoqlar bo'yicha) darslik sifatida  
tavsiya etilgan*

TOSHKENT  
«VORIS-NASHRIYOT»  
2014

### Taqrizchilar:

t.f.d., professor – **E.J. MAXMUDOV**

t.f.d., professor – **M.N. TURSUNOV**

Darslikda ana'naviy va noana'naviy, qaytalanuvchi va qaytalanmaydigan energiya manbalari haqida tushunchalar berilgan.

Barcha energiyalarning manbasi bo'l mish quyosh energiyasi, quyosh energiyasi yordamida energiya ishlab chiqarish, shamol energiyasi va energetikasi, to'lqinlar energiyasi va elektrostansiylari, suv ko'tarilishi energiyasi va elektrostansiylari, geotermal energiya va elektrostansiylari, dengiz va okeanlardagi ichki oqimlar energiyasi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Dunyodagi eng quvvatli: gidroelektrostansiya; shamol elektrostansiysi; suv sathining ko'tarilib-tushish elektrostansiysi va turbinasi; to'lqinlar va quyosh elektrostansiylari; fotoelektrik va geotermal hamda biomassa yoquvchi elektrostansiya to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari, darslikda kimyoviy (galvanik) elementlar energiyasi, vodorod yoqilg'isi, shahar chiqindilari, fotosintez, fotoelektrik o'zgartiruvchilar to'g'risida ham asosiy tushunchalar yoritilgan.

Ushbu darslik suv energiyasi sohasidagi bakalavriat ta'llim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida o'rganilishini hisobga olib, uning tarkibiga O'zbekistonda va dunyoda gidroenergetikaning rivojlanish tarixi, gidroenergetikaning hozirgi holati va kelajakdag'i rivojlanish istiqbollari, gidroenergetika asoslari, suv va suv resurslari, gidrologiyaning asosiy tushunchalari, suv manbasining ishi, gidroenergetik resurslar, suv omborlari va gidroelektrostansiylar beflarining xarakteristikalari va boshqalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Darslik amaldagi o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, oliv o'quv yurtlarining suv xo'jaligi hamda noana'naviy va qayta tiklanuvchi energetika sohasi bo'yicha bakalavriat ta'llim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan. Undan suv xo'jaligi hamda noana'naviy va qayta tiklanuvchi energetika sohasi mutaxassislari, kasb-hunar ta'llimi o'qituvchilari va talabalari, ilmiy xodimlar va ilmiy-texnik xodimlar ham foydalaniishlari mumkin.

**Majidov T. Sh.**

**Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari /T. Majidov. – T.: «Voris nashriyot». – 168 b.**

UO'K: 621.39(075)  
KBK 31.39

ISBN 978-9943-4215-5-4



© «Voris-nashriyot», 2014.

## SO'ZBOSHI

Inson ta'siri natijasida dunyo o'zgarmoqda. Insoniyatning organik energetik resurslarni o'yamasdan energetikada, transportda, katta zavod va fabrikalarda qo'llashi, atom energetikasi va katta shaharlar chiqindilari dunyo okeaniga tashlanishi natijasida atrof-muhit o'zgarmoqda. Yer yuzida iqlimning o'zgarishi kuzatilmoqda, mangu muzliklar erimoqda, shaharlar suv ostida qolmoqda, o'rmonlar yonmoqda. Yer yuzining juda ko'p mamlakatlarida insonlarni ichimlik suvining yetishmasligi, qurg'oqchilik va ocharchilik qiyynamoqda, yangi-yangi kasalliklar paydo bo'lmoqda. Yuqorida keltirilgan salbiy o'zgarishlarning barchasi millionlab yillar tabiat tomonidan o'rnatilgan tabiiy muvozanatni insoniyat tomonidan o'yamasdan buzulishi natijasida yuz bermoqda. Shuning uchun ham ulug' ingliz faylasufi Frencis Bekon «Tabiat faqatgina unga bo'yusunish bilan yengiladi» degan edi.

Yuz berayotgan falokatlarni to'xtatish uchun nima qilish kerak? Birinchi navbatda insonning ichki dunyosini tabiatga nisbatan ijobjiy o'zgartirish, so'ngra organik energetik resurslardan foydalanishni butunlay to'xtatish lozim.

Qanday qilib? Axir zamonaviy inson maishiy qulayliklarsiz – komfortsiz, ya'ni mashinasiz, uzoqni yaqin qiluvchi tez yuruvchi poyezdlarsiz, samolyotlarsiz, televizorsiz, muzlatgichsiz, isitgichsiz, issiq va sovuq suvsiz va boshqa qulayliklarsiz yashay olmaydi-ku. Zavod va fabrikalar energiyasiz ishlay olmaydilar. Hozirgi rivojlangan dunyoda energiya insoniyatni olg'a yetaklovchi asosiy manba hisoblanadi. Mamlakatlarning qudrati ham ularning energiya bilan qanchalik ta'minlanganliklariga qarab belgilanadi.

Atrof-muhitga zarar keltirmay insoniyat xizmatini bajaradigan energiya tabiatda mavjud bo'lgan *ekologik toza tabiiy energiyalardir*. Bu energiya turlariga suv, quyosh, shamol, geotermal suvlar, geyzerlar, to'lqinlar, suv sathining ko'tarilib-tushishi, vulqonlar, chaqmoqlar, okean va dengizlardagi har xil oqimlar, biomassa, vodorod yoqilg'isi, shahar

chiqindilari, fotosintez; fotoelektrik o'zgartiruvchilar, kimyoviy (galvanik) elementlar va boshqalar kirishi mumkin. Mana shu energiya turlari *noana'naviy* va *qaytalanuvchi energiya manbalari* deyiladi. Faqatgina yuqorida ko'rsatilgan energiya manbalaridan toza ekologik energiya ishlab chiqarish mumkin.

Mamlakatimiz kichik daryolar, irrigatsiya kanallari, suv omborlari, katta kollektorlar, soylar, baland tog'lardagi buloqlar, termal suvlar, quyosh va shamol kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga juda boydir.

Ushbu darslikda talabalar uchun, mamlakatimiz va dunyo mamlakatlarda foydalanilayotgan noana'naviy hamda qaytalanuvchi energiya manbalari to'g'risida ma'lumot beriladi. Darslikni tayyorlashda asosan internet ma'lumotlaridan, xalqaro anjumanlar materiallaridan, ilmiy-texnik hisobotlar va loyiha materiallaridan hamda eng so'nggi nashrdan chiqqan adabiyotlardagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga quriladigan energetik obyektlarda loyiha-qidiruv ishlarini olib borish, loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish uchun albatta chuqur bilimga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash taqozo etiladi. Chuqur bilimli bakalavr va magistrarlarni tayyorlash uchun esa ularni o'zbek tilida tayyorlangan, zamon talabiga javob beradigan o'quv qo'llanmalari hamda darsliklar bilan ta'minlash zarur.

Ushbu darslik 5450100 – «Irrigatsiya tizimlari suv energiyasidan foydalanish», 5450400 – «Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish», 5310200 – «Elektr ta'minoti (suv xo'jaligida)» va 5430200 – «Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish» ta'lim yo'naliishlari hamda 5A310101 – «Gidroelektrostansiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari», 5A450101 – «GES qurilishi va ulardan foydalanish», 5A450102 – «Qayta tiklanuvchi energiya manbalari» va 5A450402 – «Nasos stansiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi», 5A310201 – «Elektroenergetikasi (suv xo'jaligida)» mutaxassisliklari talabalariga mo'ljallangan.

Darslik o'zbek tilida yaratilgan birinchi darslik bo'lganligi sababli kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli darslik to'g'risida o'z fikr va mulohazalarini bildiruvchilarga muallif minnatdorchiliginibildiradi. Fikr va mulohazalarni quyidagi manzilga yuborish mumkin: 100000, GSP, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

*Muallif*

## KIRISH

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon tabiatdagi tabiiy energiya manbalari bo'lmish quyoshni, shamolni, suv manbalarini va boshqalarni kuzatib kelgan. Ularga sig'inib, ba'zilarini, masalan, quyoshni, olovni xudo o'rnila ko'rganlar, ulardan foydalanish yo'llarini axtarganlar. Turar joylarni quyosha qaratib qurish, quyosh nurida suv isitish, shamolda xirmon sovirish, shamol va suv tegirmonlari qurib ulardan foydalanish va boshqalar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda birinchi bo'lib qaytalanuvchi energiya manbalari dan biri bo'lgan suv energiyasidan foydalanish 1926-yili qurilgan Bo'zsuv gidroelektrostansiyasini ishga tushirishdan boshlandi [3]. 1987-yilda esa  $3\ 000^{\circ}\text{C}$  dan ortiq issiqlik to'playdigan dunyoda eng katta quyosh pechi ishga tushirildi [4]. Hozirgi kunda mamlakatimizning Samarqand viloyatida 400 hektar maydonga quvvati 100 000 MW ga teng quyosh elektrostansiyasi uchun Osiyo taraqqiyot bankining investitsiyalari kiritildi va qurilish ishlari boshlab yuborildi [5]. Kichik quvvatli quyosh energetik qurilmalaridan respublikamizning barcha burchaklarida foydalanilmoqda [6]. Shamol energiyasidan foydalanish nazariyasi va usullari 1950-yillarda ishlab chiqilgan bo'lib, Respublikamizda birinchi shamol energetik qurilmalaridan 1983-yilda Navoiy viloyati Tomdi tumani chorvadorlari foydalana boshlashdi. Chorva mollarining go'ngi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining qoldiqlari hisobiga biogaz ishlab chiqarish va undan foydalanish esa 1987-yillardan boshlab amalga oshirila boshladi [7].

Mamlakatimizda noana'naviy va qayti tiklanuvchi energiya manbalariga qiziqish va ulardan foydalanish misli ko'rilmagan tusda o'ziga xos ravishda tobora ommalashib bormoqda. Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga energetik obyektlar qurish va ulardan foydalanish uchun chet el va xalqaro banklarning investitsiyalari ki-

ritilmoxda. Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida Prezidentimizning 1995-yil 28-dekabrdagi 476-sonli «O'zbekiston Respublikasida kichik gidroenergetikani rivojlantirish haqida»gi [8], 2001-yil 22-fevralda «Energetikada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida»gi [9], 2013-yil 1-martdagи «Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [10] farmonlari qabul qilindi.

## **1-bob. ENERGETIK RESURSLAR**

### **1.1. Fanning tarkibi va vazifalari**

«Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari» fani talabarga organik yoqilg’ilarni yoqish bilan bog’liq bo’lmagan energetika to’g’risida bilim beradi.

«Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari» fanini o’rganish davomida talabalarga ana’naviy va noana’naviy, qaytalanuvchi va qaytalanmaydigan energiya manbalari haqida tushunchalar beriladi. Barcha energiya manbalarining asosi bo’lmish quyosh energiyasi va quyosh energiyasi yordamida issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish hamda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi quyosh elektrostansiyalarining sxemasi va ishslash tartibi ko’rsatiladi. Bundan tashqari, fanning tarkibiga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan – shamol energiyasi va energetikasi hamda elektrostansiyalari, to’lqinlar energiyasi va elektrostansiyalari, suv ko’tarilishi energiyasi hamda elektrostansiyalari, geotermal energiya va elektrostansiyalar, toza energiyani axtarish va energiyani tejash haqida ma’lumotlar kiritilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan biri hisoblangan irrigatsiya tizimlarida foydalilaniladigan suv eneriyasiga katta e’tibor berilmoqda. Shuning uchun ushbu fanning tarkibiga gidroenergetikaning rivojlanishi – O’zbekiston Respublikasi va dunyoda gidroenergetikaning rivojlanish tarixi, gidroenergetikaning hozirgi holati va kelajakdag‘i rivojlanish istiqbollari, gidroenergetika asoslari, suv va suv resurslari, hidrologiyaning asosiy tushunchalari, suv manbasining ishi, hidroenergetik resurslar, suv omborlari va hidroelektrostansiya (GES) beflarining xarakteristikalari va boshqalar haqida ma’lumotlar kiritilgan.

Ma’lumki, har qanday GESni uning asosiy energetik jihozlari va hidrotexnik inshootlari tashkil qiladi. Shuning uchun ushbu fanda hidravlik turbinalar va hidrogeneratorlar, asosiy hidrotexnik inshootlari

tarkibi, suv xo'jaligi tizimi, suv resurslaridan kompleks foydalanish, irrigatsiya tizimlari suv energiyasidan foydalanish, GESning irrigatsion va energetik tizimda ishlashi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Fanning so'ngida, energetika rivojlanishining muammolari, energetikaning salbiy oqibatlari, energiyani tejash va tejash usullari beriladi.

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni mamlakatlar va dunyo energetikasining hozirgi ahvoli, muammolari va kelajakdagi rivojlanishi bilan tanishtirishdan iborat. Fanning asosiy vazifasi ana'naviy – qaytalanmaydigan va noana'naviy – qaytalanuvchi energiya manbalari haqida ma'lumot berish, energiya ishlab chiqarish imkonini beruvchi manbalarning resurslari, ularni ishlab chiqarish usullari va jihozlari, ularni hisoblash, tanlash, ekspluatatsiya qilish bilan talabalarni tanishtirishdan iborat. Quyida dunyodagi umumiyligi energetik resurslar bilan qisqacha tanishtirib o'tamiz.

## **1.2. Yer yuzidagi umumiyligi energetik resurslar va ularni baholash**

Dunyo mamlakatlarida elektr energiyasi ishlab chiqarish bir xil emas. Elekt renergiyasi ishlab chiqarish qarab chiqilayotgan mamlakatdagi energetik resurslar organik yoqilg'ilar (neft mahsulotlari, ko'mir, gaz va boshqalar), gidroenergetik zahiralar, atom elektrostansiyalarini harakatga keltiruvchi xomashyolar, daryo, dengiz va okeanlar bilan chegaradoshligi hamda boshqa omillarga bog'liqdir. Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha yer yuzi mamlakatlari quyidagicha joylashgan: Janubiy Amerika; G'arbiy Yevropa; Osiyo; MDH mamlakatlari; Lotin Amerikasi; Afrika; Avstraliya. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda umumiyligi elektr energiyasining 80% ishlab chiqiarilayotgani holda, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu 20% ni tashkil qiladi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha AQSh, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Kanada, Fransiya, Angliya, Ukraina va Hindiston mamlakatlari yetakchi o'rirlarni egallaydilar. I-jadvalda dunyoning ba'zi mamlakatlarida elektr energiyasi ishlab chiqarish, mlrd. kW · soat hisobida,

2-jadvalda esa dunyodagi ba'zibir mamlakatlar aholisini elektr enerjiyasi bilan ta'minlanganligi haqida ma'dumotlar keltirilgan [11].

I-jadval


**Dunyoning ba'zi mamlakatlarida elektr energiyasi ishlab chiqarish, mlrd. kW·soat**

Mamlakatlar	Yillar				
	1990	1995	2000	2005	2010
1	2	3	4	5	6
Kanada	482	560	595	635	693
AQSh	3197	3280	3572	3867	4112
Avstriya	50	52	57	62	69
Belgiya	70	74	76	81	87
Daniya	25	35	41	43	41
Finlandiya	54	67	80	86	94
Fransiya	420	474	526	528	552
Germaniya	549	510	534	550	573
Irlandiya	14	16	17	20	23
Italiya	216	232	285	354	405
Gollandiya	71	86	94	100	103
Shvetsiya	146	148	155	158	160
Angliya	319	336	382	411	499
Bolgariya	42	39	46	49	52
Chexiya	62	57	63	65	66
Vengriya	28	34	37	41	45
Polsha	136	142	165	187	214
Ruminiya	63	66	81	97	125
Rossiya	1082	940	1050	1160	1210
Islandiya	4	4	4	5	5
Isroil	20	26	35	46	56
Shveytsariya	55	58	61	62	63
Turkiya	57	88	139	207	307
O'zbekiston	49	47	47	50	51

**Dunyodagi ba'zibir mamlakatlar aholisining elektr energiyasi bilan ta'minlanganligi (2005-yil ma'lumoti)**

Mamlakatlar	Ta'minlanganlik, ming kW. soat/jon boshiga	Mamlakatlar	Ta'minlanganlik, ming kW. soat/jon boshiga
Islandiya	25,9	Irlandiya	5,4
Norvegiya	23,4	Ispaniya	5,4
Shvetsiya	15,3	Chexiya	5,4
Finlandiya	15,0	Slovakiya	5,3
Kanada	14,9	Italiya	5,1
AQSh	12,4	Malta	5,0
Avstralija	9,7	Estoniya	4,8
Yangi Zelandiya	8,8	Gretsiya	4,4
Yaponiya	7,6	Bolgariya	4,4
Belgiya	7,6	Portugaliya	4,0
Shveytsariya	7,3	Vengriya	3,6
Fransiya	6,8	Makedoniya	3,5
Avstriya	6,7	Xorvatiya	3,4
Germaniya	6,3	Polsha	3,0
Rossiya	6,2	Litva	2,8
Gollandiya	6,1	Ruminiya	2,6
Isroil	6,1	Latviya	2,5
Janubiy Koreya	6,1	O'zbekiston	1,95
Sloveniya	5,9	Meksika	1,8
Daniya	5,8	Turkiya	1,7
Angliya	5,6		

Dunyoda elektr energiyasi ishlab chiqarish quyidagicha amalga oshiriladi: issiqlik elektrostansiyalarda(ISE) – 63%, GESlarda – 20%, AESlarda – 17% (1-rasm). Ammo mamlakatlardagi energoresurslarning turi va miqdoriga qarab elektr energiyasi ishlab chiqariladi (3-jadval). Masalan, Lotin Amerikasida 75% elektr energiyasi GESlar yordamida ishlab chiqariladi. G'arbiy Yevropa va Janubiy Amerikada AESlar yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarish dunyodagi o'rtacha miqdordan yuqoriqoq [11].



*I-rasm. Dunyoda elektr energiyasi ishlab chiqarishning strukturasi.*

Elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi energetik resurslar hamda elektrostantsiyalar bo'yicha dunyo mamlakatlarini **4 guruuhga** bo'lish mumkin.

Ko'mir, mazut va tabiiy gaz yordamida ishlovchi issiqlik elektrostansiyalar bilan ko'p miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi **birinchi guruuh** mamlakatlariga AQSh, ko'pchilik G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Rossiyanı kiritish mumkin.

Mamlakatda foydalaniladigan barcha elektr energiyasini issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariluvchi **ikkinci guruuhga** Xitoy, Polsha, Avstraliya (yoqilg'i sifatida asosan ko'mirdan foydalanadi), Meksika, Gollandiya va Ruminiya mamlakatlari kiradi.

**Uchinchi guruuhga** juda ko'p miqdorda GESlar bilan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi quyidagi mamlakatlar kiritilgan: Norvegiya (99,5%), Braziliya, Paragvay, Gonduras, Peru, Kolumbiya, Shvetsiya, Albaniya, Avstriya, Efiopiya, Keniya, Gabon, Madagaskar, Yangi Zelandiya. Ammo gidroenergetikadan foydalanish bo'yicha Kanada, AQSh, Rossiya va Braziliya mamlakatlari dunyoda yetakchi o'rirlarni egallaydilar. Hozirgi kunda gidroenergetika rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tez rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham gidroenergetika yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Atom energetikasidan ko'p foydalanadigan **to'rtinchi guruuh** mamlakatlariga Fransiya, Belgiya, Yaponiya va Koreya Respublikasini kiritish mumkin.

### **1.3. Dunyo energetikasining yoqilg'i asoslari**

Dunyo energetikasining yoqilg'i asoslarini yoqilg'i sanoatining to'rt tarmog'i tashkil qiladi [11].

**Neft sanoati.** Hozirgi kunda neft sanoati dunyo yoqilg'i-energetika sanoatining yetakchi tarmog'i hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda neft zahiralari 86% ni, qazib olish esa 50% ni tashkil qiladi. Eng katta neftga boy rayonlarni Fors qo'lltig'i regioni va Rossiya tashkil qiladi. Hozirgi kunda dunyoning 80 mamlakatida neft qazib olinadi. Eng katta neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga Saudiya Arabistonni, AQSh, Rossiya, Eron, Meksika, Xitoy va Venesuela kiradi. Neft ishlab chiqaruvchi va neft mahsulotlarini iste'mol qiluvchi mamlakatlar o'rtaida juda katta masofa mavjud. Neft va neft mahsulotlarini bir mamlakatdan ikkinchisiga katta masofalarga yetkazib berish uchun katta diametrli sifatli po'latdan tayyorlangan quvurlar qo'llaniladi.

**Gaz sanoati.** Gaz sanoati o'tgan asrning 50-yillaridan rivojlana boshladi. Dunyo bo'yicha gaz iste'mol qilish umumiy iste'mol qilinadigan energetik resurslarning 20% i ni tashkil qilib, neft va toshko'mirdan so'ng 3-o'rinni egallaydi. Ekologik jihatdan gaz eng toza energiya resursi hisoblanadi. Tabiiy gaz zahiralari bo'yicha MDH mamlakatlari, Osiyo, Rossiya va Eron yetakchi o'rirlarni egallaydilar.

Dunyo bo'yicha gaz qazib olish yildan-yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda qazib olinadigan gazning hajmi 4,0 trln. m<sup>3</sup> ga yetib qoldi. Gaz ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi birinchi o'nlikka Rossiya, AQSh, Kanada, Turkmaniston, Gollandiya, Fransiya, O'zbekiston, Indoneziya, Jazoir, Saudiya Arabistonni mamlakatlari kiradi.

Gaz yoqilg'isi asosan G'arbiy Yevropa, Yaponiya va AQSh mamlakatlariga eksport qilinadi.

**Toshko'mir sanoati.** Toshko'mir sanoatining energetika sohasidagi o'rni kamayib borishiga qaramasdan hozirgi kunda ushbu sanoat dunyo energetikasida yetakchi o'rirlarni egallaydi. Neft va gaz sanoatiga qaraganda toshko'mir sanoati zahiralalar bilan yaxshi ta'minlangan. Ekspertlarning fikriga ko'ra, yaqin o'n yillikda elektrostansiyalarning yoqilg'iga bo'lgan talabining 40% i toshko'mir sanoati bilan qondiriladi. Bu kabi o'zgarishning asosiy sabablaridan biri, toza ko'mir qazib olish va foydalanish texnologiyasining mukammallashtirilganligi tufayli elektrostansiyalarning atrof-muhitga chiqarayotgan zararli chiqindi gazlarning kamaytirilganligidir.

Toshko'mirning dunyodagi zahiralari 1,2 trln. tonnani tashkil qiladi. Uning 66% i AQSh, MDH mamlakatlari, Fransiya, Germaniya va Avstraliya kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda joylashgan.

Ko'mir qazib chiqarish bo'yicha Xitoy, AQSh, Rossiya, Polsha, Hindiston, Avstraliya, Germaniya, Shimoliy Afrika Respublikasi, Ukraina va Qozog'iston mamlakatlari dunyoda yetakchi o'rirlarni egallab kelmoqdalar. Neft va gazga qaraganda toshko'mir atigi 8% eksport qilinadi. Eksport asosan AQSh, Avstraliya va MDH mamlakatlaridan qilinadi. Asosiy import qiladigan mamlakatlar – Yaponiya, Koreya Respublikasi, Italiya, Kanada, Fransiya, Gollandiya, Angliya, Germaniya va Braziliya hisoblanadi.

**Atom energetikasi sanoati.** Hozirgi kunda yer yuzidagi 30 mamlakatda atom elektrostansiyalarini qurilgan bo'lib, ular umumiy iste'mol qilinadigan elektr energiyasining 17% ni ishlab chiqaradi.

Yer yuzidagi atom elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati 360 W ni tashkil qiladi. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar – AQShda 98 W, Fransiyada 63 W, Yaponiyada 44 GW, Angliyada 13 GW, Rossiyada 20 GW va Germaniyada 22 GW elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Xalqaro MAGATE tashkilotining ma'lumotiga qaraganda AESlar uchun yadro yoqilg'isi zahiralari hech qanday muammo tug'dirmaydi. Yadro yoqilg'isi xomashyosi – boyitilgan uranning zahiralari dunyodagi barcha AESlarni 3000 yil to'xtovsiz ishlashiga yetadi.

3-jadvalda dunyodagi elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati va 2-rasmda umumiy quvvati 5416 GW bo'lganda dunyo elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati strukturasi to'g'risidagi 2020-yil uchun bashorat diagrammasi keltirilgan.


3-jadval

#### Dunyodagi elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati

Elektrostansiya turlari	Yillar							
	1990		2000		2010		2020	
	GW	%	GW	%	GW	%	GW	%
I	2	3	4	5	6	7	8	9
Gazli issiqlik elektrostansiyalarini	481,4	17,0	716,2	20,0	979,0	22,0	1635,0	30,2
Mazutli issiqlik elektrostansiyalarini	424,5	15,0	501,2	14,0	578,0	13,0	293,0	5,4

Ko‘mirli issiqlik elektrostansiyalari	933,9	33,0	1146	32,0	1424,0	32,0	1928,0	35,6
GES va qaytalanuvchi energiya manbalari	650,6	23,0	823,4	23,0	1024,0	23,0	980,0	18,1
AES	339,6	12,0	393,6	11,0	445,0	10,0	580,0	10,7
Dunyo bo‘yicha hammasi	2830	100	3580	100	4450	100	5416	100

Dunyodagi 50 mamlakatda uran rudasi resurslari mavjud, ammo uni faqatgina 25 mamlakat ishlab chiqaradi. Uran qazib olish bo‘yicha Kanada (yiliiga 8500 tonna), Avstraliya (6500 tonna), Namibiya va Negeriya (har qaysisi 2900 tonnadan) va Rossiya (2600 tonna) mamlakatlari yetakchi o‘rinlarni egallaydilar. Uran xomashyosini qazib olish uchun 1 kg ga 40 dollar xarajat qilinadigan dunyo zahiralar 1,32 mln. tonnani tashkil qilsa, 1 kg ga 130 dollar xarajat qilinadigan zahiralar 4 mln. tonnani tashkil qiladi. Dunyodagi barcha AESlarning ishlashi uchun 64 ming tonna uran talab qilinadi.



2-rasm. Umumiy quvvati 5416 GW bo‘lganda dunyo elektrostansiyalarining o‘rnatalgan quvvati strukturasi to‘g‘risidagi bashorat (2020-yil).

## **2-bob. NOANA'NAVIY VA QAYTALANUVCHI HAMDA QAYTALANMAYDIGAN VA ANA'NAVIY ENERGIYA MANBALARI**

### **2.1. Qaytalanuvchi, qaytalanmaydigan hamda ana'naviy va noana'naviy energiya manbalari**

**Qaytalanuvchi energiya manbalari.** Biror jism (qattiq, suyuq va gaz holatida) o‘z energiyasini energiyani boshqa turga aylantiruvchi moslamaga uzatib yana harakatda bo‘lsa hamda o‘z energiyasini xohlagan marta uzatib o‘zi yo‘qolib ketmasa bunday manba **qayta tiklanuvchi energiya manbasi** deyiladi (shamol, quyosh, suv sathining ko‘tarilib-tushishi, to‘lqinlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, biyoqilg‘i, vodorod va kvant).

**Qaytalanmaydigan energiya manbalari.** Organik yoqilg‘ilardan bir marta foydalanilgandan so‘ng ulardan qayta foydalanib bo‘lmaydi. Shuning uchun ularni **qaytalanmaydigan energiya manbalari** ham deb ataladi (organik yoqilg‘ilar – neft mahsulotlari, toshko‘mir va boshqa har xil qattiq yoqilg‘ilar, gaz, atom va boshqalar).

**Ana'naviy energiya manbalari.** Amaliy jihatdan’ elektr energiyasini boshqa energiya turlariga qaraganda olish oson va ishlab chiqarilgan elektr energiyasini uzoq masofalarga uzatish imkonini bo‘lgan manbalarini **ana'naviy energiya manbalari** deyiladi (organik yoqilg‘ilar).


**Noana'naviy energiya manbalari.** Organik yoqilg‘ilarda ishlaydigan ana'naviy energiya manbalari o‘rnini bosib elektr energiyasi (yoki boshqa zarur turdag‘i energiya) olish imkonini beradigan, hozircha keng qo‘llanilmaydigan usul, qurilma yoki inshootlar **noana'naviy energiya manbalari** deyiladi (shamol, quyosh, suv sathining ko‘tarilib-tushishi, to‘lqinlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, biyoqilg‘i, vodorod va kvant).

## **2.2. Issiqlik, gidravlik va hidroakkumulatsion, to'lqinlar, geotermal, atom, quyosh, shamol, biomassa va boshqa energiya turlari**

**Issiqlik elektrostansiyalari (IES)** organik yoqilg'ilar (ko'mir, neft mahsulotlari va gaz)ni yoqish natijasida hosil bo'ladigan issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi energetik agregatlardir. Organik yoqilg'ilardan bir marta foydalanilgandan so'ng undan qayta foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni **qaytalanmaydigan energiya manbalari** ham deb ataladi. Qaytalanmaganligi uchun ulardan tejab-tergab foydalanish va ularning o'rnini bosadigan boshqa arzon elektr energiyasi olish mumkin bo'lgan usullardan foydalanish lozim. Shuning bilan bir qatorda, issiqlik elektrostansiyalarining chiqindilari atrof-muhitga katta zarar yetkazadi [19, 29].

**Atom elektrostansiyalari (AES)** atom (yadro) energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beradi. Atom reaktori energiya generatori hisoblanadi. AES yadro yoqilg'isi (uran, plutoniylar)da ishlaydi. Yadro yoqilg'isining zahiralari organik yoqilg'ilar zahiralardan katta miqdorda ko'pdir.

**Suv energiyasi. Gidroelektrostansiyalar (GES)** – gidrotexnik inshootlar va energetik jihozlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning yordamida suv oqimi energiyasi elektr energiyasiga aylantirib beriladi. GESlarni qurish natijasida ham atrof-muhitga zarar yetkaziladi: daryolar oqimi to'silishi bilan ularning o'zani o'zgarib ketadi, juda katta maydon suv ostida qoladi, flora va faunaga katta zarar yetkaziladi. Issiqlik energetikasiga qaraganda suv oqimi energiyasining asosiy xususiyatlaridan biri uning qaytalanib turishidir [19, 29, 62, 63] (3-rasm).



3-rasm. Katta bosimli GES.

GESlarning yana bir turi nasos va turbinalar bir-biriga joylashtirilib ishlataladigan **gidroakkumulatsion GESlardir**. Bunday GESlarning yuqori befi suv ombori yoki daryo bo'lishi mumkin. Yuqori bef sifatida yuqorida joylashgan ko'l (oqmaydigan) yoki maxsus sun'iy qurilgan kichik suv ombori bo'lishi mumkin [19, 29, 61].

**To'lqinlar energiyasi.** To'lqinlar energiyasi ikki turga bo'linadi: to'lqinlar energiyasi va suv sathining ko'tarilish-tushish energiyasi. Okean va dengizlardagi to'lqinlar energiyasidan

foydalanish K.E. Sialkovskiy tomonidan 1935-yilda taklif qilingan. 1985-yilda dunyoda birinchi marta Norvegiyada 850 W quvvatli to'lpinlar elektrostansiyasi ishga tushirilgan. Hozirgi kunda dunyodagi barcha to'lpinlar elektrostansiyalari ishlab chiqaradigan quvvat dunyoda ishlab chiqariladigan quvvatning 1% ni tashkil qiladi. Kam quvvat ishlab chiqarilishining asosiy sababi, uning juda qimmatligidi

Quyosh, Yer va Oyning bir chiziqda turib qolgan vaqtida okean va den-gizlardagi suv sathlari ko'tarilib tushadi. Mana shu tabiatda sodir bo'ladigan jarayondan foydalanib ham elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Buning uchun dengizning biror qo'lltig'i to'g'on bilan berkitiladi. Suv sathi ko'tarilganda, to'g'on tanasiga joylashtirilgan gidroagregatlardan suv qo'lliqqa o'tadi va ma'lum miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Dengizdagagi suv sathi tushganda qo'lliqdagi suv dengizga gidroagregatlardan o'tkaziladi va yana ma'lum miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Shunday qilib sikel takrorlanay veradi.

**Geotermal energiya.** Yer qa'rida juda katta issiqlik miqdori mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas-tuganmas energiya olish mumkin. Hisoblarga ko'ra, yer bag'rida to'plangan issiqlikdan olinadigan energiya yer yuzidagi hamma organik yoqilg'i zahirasidan olinadigan energiyadan bir necha barobar ko'p ekan. Ammo bu issiqlik energiyasi faqatgina yer ostidagi qaynoq suvlardan olinadi, xolos [29].

**Shamol energiyasi.** Bug' dvigatellari paydo bo'lguncha, Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarda shamol energiyasidan juda katta masshtabda sanoatda va qishloq xo'jaligidagi qo'llanib kelingan. Shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan hozirgi ishlar katta alohida shamol generatorlari yaratish va ularning energiyasidan ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulashdan va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir [64] (4-rasm).



4-rasm. Shamol generator qurilmasi va elektrostansiyasi.

**Quyosh energiyasi.** Quyosh radiatsiyasining energiyasini doimiy elektr tokiga aylantirish mumkin. Buning uchun yupqa kremlniy plyonkalari yoki boshqa biror yarim o'tkazgich materialdan foydalaniladi. Fotoelektrik energiyaga aylantirshining potensial qulayliklari:

- harakat qiluvchi qismlarning yo'qligi;
- ishslash muddati 100 yildan ortiqligi;
- ekspluatatsiya qilishning soddaligi, quyosh radiatsiyasidan samarali foydalanish mumkinligi.

Ammo bu usulda energiya ishlab chiqarish an'anaviy energiya ishlab chiqarishdan 75 martadan ko'proq qimmatroqdir. Shuning uchun hozirgi vaqtda arzonroq elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar ustida ish olib borilmoqda. Masalan, kremlniy o'rniiga **arsenir geliy** qo'llanilmoqda.

5- va 6-rasmlarda quyosh energiyasidan olinadigan elektr energiyasining har xil turdag'i iste'molchilari ko'rsatilgan.



5-rasm. Quyosh energiyasidan olinayotgan elektr energiyasi iste'mochilari.



6-rasm. Quyosh energiyasidan foydalanib uchayotgan turbovintli samolyot.


## 2.3. Noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari hamda ularning dunyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan turlari

Hozirgi kunda energiya iste'mol qiluvchi barcha sohalarning organik yoqilg'ilardan foydalanishi tufayli atrof-muhit ifloslanmoqda. Natijada tabiatning flora va faunasida salbiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Odamlar va hayvonot dunyosida har xil yangi turdag'i kasalliklar paydo bo'lmoqda. Shuning uchun insoniyat oldida turgan jiddiy muammolardan biri barcha turdag'i energiya iste'mol qiluvchilarni toza ekologik energiya bilan ta'minlashdir.

Ekologik toza energiyani faqatgina tabiatda mavjud bo'lgan energiya manbalaridan olish mumkin. Shuning uchun bunday manbalarni *noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari* deyiladi. Hozirgi kunda dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda energiyaning bunday turlaridan foydalanib har xil energiya turlarini ishlab chiqarishga kirishtilgan [12] (7-rasm).

Dunyodagi rivojlangan malakatlar foydalanayotgan noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- quyosh energiyasi;
- shamol energiyasi;
- gidroenergetika(o'rta-, kichik- va mikrogidroenergetika);
- to'lqinlar energiyasi;
- suv sathlarinig ko'tarilib-tushish energiyasi;




7-rasm. Jahonda energiya yetkazib berish sxemasi.

- okean va dengizlardagi har xil oqimlar energiyasi;
- geotermal suvlar va geyzerlar energiyasi;
- biomassa energiyasi;
- shahar chiqindilari energiyasi;
- chorvachilik va parrandachilik fermalari chiqindilari energiyasi;
- yer ostidan issiqlik nasoslari orqali olinadigan energiya.


## 2.4. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan noana’naviy energiya manbalari

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta’minlanganligi belgilaydi. Ammo energiya iste’molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg‘ilardan foydalanish atrof-muhitning global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda. Shuning uchun hozirgi kun energetikasining dolzarb masalalaridan biri ekologik toza qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishdir.

Bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 84,7% organik yoqilg‘ilardan foydalanadigan issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Umumiy ishlab chiqariladigan energiyaga nisbatan atigi 14,5% elektr energiyasi GESlar yordamida ishlab chiqariladi (8-rasm). Kelajakda O‘zbekiston Respublikasida qaytalanuvchi energiya manbalaridan quyidagi miqdorda foydalaniladi (9-rasm) [12]:



*8-rasm. Respublikamizda organik yoqilg‘ilar va suv energiyasidan ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining miqdori (foizda).*



**9-rasm. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik imkoniyatlari sxemasi.**

- quyosh energiyasidan 98,8%;
- gidroenergetikadan 1,0%;
- shamol energiyasidan 0,2%.


4-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi eng muhim qaytalanuvchi energiya manbalarining turlari va miqdorlari keltirilgan.

*4-jadval*

**O‘zbekiston Respublikasi hududidagi eng muhim qaytalanuvchi energiya manbalarining turlari va miqdorlari (mln.t.n. e.)**

Qaytalanuvchi energiya manbalarini turlari	Yalpi potensial		Texnik potensial		O‘zlashtirilgan	
	mln.t. n.e	MW·s	mln.t n.e	MW s	mln.t. n.e	MW ·s
Quyosh energiyasi	50973	$592,9 \times 10^9$	176,8	$2,08 \times 10^9$	—	—
Shamol energiyasi	2,2	$25,6 \times 10^6$	0,4	$4,7 \times 10^6$	—	—
Gidroenergiya	9,2	$107 \times 10^6$	1,8	$21 \times 10^6$	0,6	$7 \times 10^6$
Biomassalar energiyasi	10,8	$125,7 \times 10^6$	4,7	$54,7 \times 10^6$	—	—
Geotermal suv energiyasi	0,4	$4,7 \times 10^6$	—	—	—	—
<b>JAMI</b>	<b>50984,6</b>	<b><math>593 \times 10^9</math></b>	<b>179,0</b>	<b><math>2,1 \times 10^9</math></b>	<b>0,6</b>	<b><math>7 \times 10^6</math></b>

Hozirgi kunda O‘zbekistonda qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha juda ko‘p ilmiy-tadqiqot, loyiha hamda qurib ishga tushirish ishlari xalqaro grantlar va loyihalar asosida bajarilmoqda [13]. (10-rasm).



10-rasm. Qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha  
O'zbekistonda bajarilayotgan loyihamlar.

## 2.5. Noana'naviy energiya manbalariga qurilgan energetik obyektlar va elektrostansiyalar tarixi, hozirgi holati va kelajagi

Hozirgi kunda insoniyat oldida kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni toza holda saqlab qolish muammosi turibdi. Buning uchun organik yoqilg'i-lardan foydalanib ishlab chiqariladigan energiya miqdorini kamaytirish hamda ekologik toza energiya ishlab chiqarish zarur. Shu sababli dunyo mamlakatlarida qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanib toza ekologik energiya ishlab chiqarishga qiziqish taboro oshib bormoqda. Hozirgi kunda asosan quyidagi qaytalanuchi energiya manbalaridan foydalanib energiya ishlab chiqarilmoqda:

- quyosh energiyasi;
- shamol energiyasi;
- gidroenergetika (o'rta-, kichik- va mikrogidroenergetika);
- to'lqinlar energiyasi;
- suv sathlarining ko'tarilib-tushish energiyasi;
- geotermal suvlari va geyzerlar energiyasi;
- biomassa energiyasi.

Dunyo mamlakatlari hududlarini olib qaraydigan bo'lsak, ularning hammasida ham qaytalanuvchi energiya manbalarining barcha turlari mavjud emas. Masalan, mamlakatimizda suv sathlarining ko'tarilib-tushish energiyasi, to'lqinlar va okean hamda dengizlardagi har xil oqimlar

energiyasi, geyzerlar energiyasi manbalari mavjud emas, chovnachilik va parrandachilik fermalari chiqindilaridan hamda yer ostidan issiqlik nasoslari orqali energiya olish yo'lga qo'yilmagan. Respublikamizda eng ko'p energiya olinadigan manba quyosh energiyasi hisoblanadi. Xuddi shuningdek, ba'zi mamlakatlarda kuchli shamollar, geyzerlar, to'lqinlar, okean va dengizlardagi har xil oqimlar, biomassalarning manbalari ekologik toza energiya ishlab chiqarishda yetakchi o'rirlarni egallaydi.

Har qanday sohada birinchilar bo'ladi. Quyida 2009–2013-yillarda, qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanib hozirgi kunda eng ko'p energiya ishlab chiqaruvchi energetik obyektlarni ko'rib chiqamiz.

### 2.5.1. Dunyoda eng katta quvvatli gidroelektrostansiya

Xitoyning Yanzi daryosidagi «Three Gorges Dam-Tri uselya – Uch dara» to'g'oniga qurilgan, quvvati 22,4 GW ga teng GES dunyodagi eng quvvatli hisoblanadi. Quvvati bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni Braziliya va Paragvay mamlakatlari chegarasiga qurilgan quvvati 14 GW ga teng GES egallaydi (11-rasm). Hozirgi kunda, Kongo Demografik Respublikasidagi «Inga Dam»


a)



b)



d)



11-rasm. Dunyodagi eng katta quvvatli gidroelektrostansiyalar:

a – Sayano Shushensk – 6,4 GW (Rossiya); b – Uch dara – 22,4 GW (Xitoy);  
d – to'g'onli GESning ko'rinishi.

to'g'oniga qurilayotgan va qurilishi 2025-yilda tugatilib ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan GESning quvvati 39 GW ni tashkil qiladi [14]

O'zbekiston Respublikasida eng quvvatli gidroelektrostansiyalarga quyidagilar kiradi:

- Chorvoq GESi – 600 MW;
- Andijon GESi – 190MW;
- Tuyamo'yin GESi – 150 MW;
- Farhod GESi – 126 MW.

## 2.5.2. Dunyoda eng katta quvvatli shamol elektrostansiyasi

2009-yilning kuzida «E.ON Climate and Renewables» kompaniyasi tomonidan AQShning Texas shtati markaziy qismida joylashgan Rosko shahri yonida, dunyoda eng quvvatli «Roscoe Wind Farm» shamol energoqurilmalari parki ishga tushirildi [14]. «Roscoe Wind Farm» shamol energoqurilmalari parkidagi har birining quvvati 1,25 MW bo'lgan 627 ta shamol energoqurilmalari 400 km<sup>2</sup> maydonga o'rnatilgan bo'lib, umumiy quvvati 781,5 MW ga teng (12-rasm).

«Roscoe Wind Farm» shamol energoqurilmalari parkigacha eng katta quvvatlisi shamol energoqurilmalari parki «Horse Hollow Wind Energy Center» hisoblangan. AQShning Dallas shahridan 160 km uzoqlikdagi 190 km<sup>2</sup> maydonga o'rnatilgan 394 dona shamol turbinalarining umumiy quvvati 735,5 MW ni tashkil qiladi. Ulardan 1,5 MW li 291 dona turbina «General Electric» firmasi tomonidan, 2,3 MW li 103 dona turbina «Siemens» firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan.



12-rasm. Eng katta quvvatli shamol elektrostansiyasining ko'rinishi.

### **2.5.3. Dunyoda eng katta quvvatli offshor shamol elektrostansiyasi**

2009-yilning sentabr oyida, Shimoliy dengizning Daniyadagi Yutlandiya yarimoroli qirg'oqlarida, 91 dona shamol energoqurilmalaridan tashkil topgan dunyoda eng quvvatli «Horns Rev-2» offshor shamol elektrostansiyasi ishga tushirildi [14]. «Siemens» kompaniyasi ishlab chiqargan har bir shamol energoqurilmalarining quvvati 2,3 MW ga, «Horns Rev-2» offshor shamol elektrostansiyasining umumiy quvvati esa 209,3 MW ga teng. Shamol energoqurilmalari dengiz suvi sathiga nisbatan 114,5 m balandlikka o'rnatilgan (13-rasm).

«Horns Rev-2» offshor shamol elektrostansiyasigacha dunyoda eng katta offshor shamol elektrostansiyasi qirg'oqdan 5,2 km uzoqda hamda Angliyaning Linkolnshir grafligidagi Skegness shahri yaqinida joylashgan «Lynn and Inner Dowsing» shamol energoqurilmalari parki hisoblanardi. Shamol energoqurilmalari parki «Siemens» kompaniyasi ishlab chiqargan, har biri 3,6 MW quvvatga ega bo'lган 54 dona shamol turbinalaridan tashkil topgan. Shamol energoqurilmalari parkining umumiy quvvati 194,4 MW ga teng bo'lib, ular dengiz suvi sathidan 107 m balandlikka o'rnatilgan.


Energoqurilmalarning minorasi dengiz tubiga qoqilgan qoziq-fundamentlarga o'rnatiladi. Qoziq-fundamentlarni o'rnatish uchun maxsus kema qurilgan. Kema chayqalmasdan ishlashi uchun, dengiz tubiga tayanadigan 6 dona gidravlik tayanch bilan jihozlangan. Offshor shamol energoqurilmalari o'rnatiladigan suvning chuqurligi 30 m dan oshmaydi.



*13-rasm. Eng katta quvvatli offshor shamol elektroqurilmalarini o'rnatish.*

## **2.5.4. Dunyodagi eng katta, suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan gidroelektrostansiya**

Dunyoda eng birinchi va eng katta suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan gidroelektrostansiya 1967-yilda Fransiyadagi Rans daryosining okeanga quyilish joyiga qurilgan. Bu yerda suv sathi ko'tarilib-tushishining o'rtacha miqdori 8 m ni, maksimal miqdori 12 m ni tashkil qiladi [14].



**14-rasm. Suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan eng katta gidroelektrostansiya.**

Gidroelektrostansiyada og'irligi 470 tonna, diametri 5,35 m li 24 dona generator o'rnatilgan bo'lib, har biri 10 MW dan, hammasi bo'lib esa 240 MW elektr energiyasi ishlab chiqaradi (14-rasm).

## **2.5.5. Dunyodagi eng katta sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan turbina**

Suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan turbina ham xuddi shamol oqimi kelib uriladigan turbinalar kabi kelib urilayotgan suv oqimining kinetik energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi. Shimoliy Irlandiya suvlari yaqiniga o'rnatilgan dunyodagi eng katta ushbu SeaGen turbinasining quvvati 1,2 MW tashkil qiladi. U diametri 20 m dan bo'lgan 2 dona turbinadan tashkil topgan [14]. Turbina parraklarini tashkil qiluvchi tizim o'z o'qi atrofida aylanishi tufayli, turbina to'lqlinlarning har qanday yo'nalishiga moslashib ishlaydi. Turbinaga xizmat ko'rsatish uchun uni suvdan yuqoriga ko'tarib tushirish mumkin (15-rasm).

Bunday tizim ishlab chiqargan 1 MW o'rnatilgan quvvatning qiymati 5 mln. dollarga teng. Bu qiymat offshor shamol qurilmalarining narxidan 30% ziyodroqdir. Shunga qaramasdan 2015-yili Janubiy Koreya qirg'oqlarida, narxi 820 mln. dollarga teng 1 MW dan yuqori quvvatlari suv



*15-rasm. Suv sathining ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan eng katta turbina.*

sathining ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan turbina o'rnatish rejalarshirilgan.

### **2.5.6. Dunyodagi eng katta to'lqinlar elektrostansiyasi**

Dunyodagi eng katta to'lqinlar elektrostansiyasi Portugaliyaning qirg'oq bo'yida joylashgan Povua-de-Varzin shahari yaqinida 2011-yilda ishga tushirildi (16-rasm). Elektrostansiya yarmi suvgaga to'ldirilgan ilonga o'xshaydi. Uning uzunligi 150 m ni va kengligi 3,5 m ni tashkil qiladi. To'lqinlar ularni harakatga keltirib tebratadi va tebranishlar energiyaga aylantiriladi [14, 15]. Har bir turbina 0,75 MW elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Hozirda umumiy qiymati 13 mln. dollarga va quvvati 2,25 MW ga teng 3 dona qurilma o'rnatilgan. Keyinchalik, uning quvvati 21 MW ga oshiriladi. Umuman, bunday qurilmalarning quvvatini 1 GW ga yetkazish mumkin.



*16-rasm. Dunyodagi eng katta to'lqinlar elektrostansiyasi.*

## **2.5.7. Dunyodagi eng katta quyosh elektrostansiyasi**

Quyosh energiyasini o'zlashtirish tizimi – Solar Energy Generating Systems (SEGS) bugungi kunda dunyoda quyosh energiyasini o'zlashtiruvchi eng katta tizim hisoblanadi. AQShning Kaliforniya shtatidagi Moxava sahrosida joylashgan [14].

Tizim 9 dona quyosh elektrostansiyasidan iborat bo'lib, ulardan 6 donasining quvvati 180 MW (har biri 30 MW)ni; 2 donasining quvvati 160 MW (har biri 80 MW)ni va 1 donasi 14 MW ni; hammasi bo'lib 354 MW ni tashkil qiladi. Ushbu elektrostansiyalar uchun 6,5 km<sup>2</sup> da joylashgan 936 384 dona parabolik konsentrator(quyosh energiyasini yig'uvchi)lar o'rnatilgan (17-rasm).



*17-rasm. Dunyodagi eng katta quyosh elektrostansiyasi.*

## **2.5.8. Dunyodagi eng katta fotoelektrik elektrostansiyasi**

Olmedilya quyosh elektrostansiyasi Ispaniyada 2008-yili ishga tushirilgan. Qurilish 15 oy davom etib, 530 mln. dollar mablag' sarflandi.

Uning quvvati 60 MW ni tashkil qiladi. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish uchun 16 200 dona fotoelektrik panellardan foydalilanildi [14] (18-rasm).



18-rasm. Dunyodagi eng katta fotoelektrik elektrostansiysi.

### 2.5.9. Dunyodagi eng katta geotermal elektrostansiya

The Geysers – eng katta geotermal energiya to'plangan joy AQShning Kaliforniya shtatidan 116 km uzoqlikda joylashgan. Bu yerda joylashgan 18 dona geotermal elektrostansiya 2000 MW quvvat ishlab chiqaradi (19-rasm).

Geotermal elektrostansiyalar joylashgan hudud  $78 \text{ km}^2$  ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi Kaliforniya shtatining janubida joylashgan iste'molchilarning 60% ehtiyojini qoplaydi [14].



19-rasm. Dunyodagi eng katta geotermal elektrostansiyaning ko'rinishi.

## **2.5.10. Dunyodagi eng katta biomassa yoquvchi elektrostansiya**

«Alholmens Kraft Ab» nomli Finlandiya kompaniyasi 550 MW issiqlik energiyasi hamda 240 MW elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi dunyodagi eng katta biomassa yoquvchi stansiyani ishga tushirdi. Stansiya asosan yog'och qoldiqlari va torf yoqilg'ilaridan foydalanadi (20-rasm).

Stansiya 1 soatda 1000 m<sup>3</sup> bioyoqilg'ini yoqib energiya oladi. Yoqilg'i yoqiladigan qozonning pastki (asosi) diametri 8,5 m va 40 m balandlikdagi yuqori diametri 24 m ni tashkil qiladi. Stansiyani bioyoqilg'i bilan ta'minlash uchun 1 kunda 120 dona yuk tashish mashinalaridan foydalaniladi. Stansiya yoqilg'i sifatida toshko'mirdan ham foydalanishi mumkin [14].

Hozirgi kunda insoniyat tomonidan noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchi xilmalik qurilmalar va usullar ishlab chiqilmoqda. Oddiy suv va shamol g'ildiraklaridan foydalanib energiya olishdan boshlangan ushbu yo'naliishda kvantli tezlatgichlar bilan jihozlangan turbinalardan foydalanilmoqda [65, 66].



*20-rasm. Dunyodagi eng katta biomassa yoquvchi stansiyaning ko'rinishi.*


## **3-bob. GIDROENERGETIKANING RIVOJLANISH TARIXI**

### **3.1. Gidroenergetikaning rivojlanishi. O'zbekistonda gidroenergetikaning rivojlanish tarixi**

Balanddan tushib suv g'ildiragini aylantirayotgan suv energiyasidan qadim zamonlardan tegirmon toshlarini aylantirishda va boshqa maqsadlarda foydalanilgan. Birinchi marta 1882-yilda GESlarda suv energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalanilgan. Gidroenergetik qurilmaning ishlash tarzi juda sodda. Yuqorida tushayotgan suvning kinetik energiyasi elektrogeneratorga ulangan turbina valini aylantirishda foydalaniladi (21-rasm).

GES «tekin yog'ilg'i»da ishlaydi: quyosh energiyasi suvni bug'lantiradi (okean, dengiz, daryo, suv omborlari, kanallar va boshqalar-dagi suv yuzasidan); havo oqimlari suv bug'-larini bir mintaqadan ikkinchisiga surib keladi; suv bug'lari yomg'ir va qor shaklida yana yerga qaytib tushadi. Yer yuzasiga tushgan suvning bir qismi yana bug'lanib ketadi, qolganlari yig'ilib, foydalanilgandan so'ng yana daryolar va dengizlar orqali yana dunyo okeaniga qaytib ketadi.

Birinchi gidrokuch qurilmalaridan IX asrdan boshlab foydalanilgанинги тоғрисида ма'lumotlar mavjud. XVIII asrning boshlarida gidrokuch qurilmalaridan ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida foydalanish avj olib ketdi. Masalan, XVIII asrning oxirlarida Rossiyada gidrokuch qurilmalari bilan ishlaydigan zavodlarning soni 3000 dan oshib ketgan. Gidrokuch qurilmalari suv g'ildiraklari shaklida bajarilib, undan hosil bo'ladigan mexanik kuch harakatga keltiriladigan mashinalarga tasmalar, keyinchalik tishli uzatmalar orqali uzatilgan. Ularda kamchiliklar juda ko'p bo'lgan: quvvati kichik, konstruksiyasi juda katta, foydali ish



**21-rasm. Gidroagregat:**

1 – gidroturbina;

2 – gidrogenerator.

koefitsiyenti juda kichik bo'lgan. Eng asosiysi, ulardan foydalanadigan korxonalar suv manbalari qirg'oqlariga qurilgan va manbadagi suvning satishi hamda sartiga bog'liq bo'lgan.

XIX asr boshlarida esa suv manbalari qirg'og'iga o'rnatilgan gidrokuch qurilmalari o'rniqa bug' mashinalari qo'llanila boshladi. Bug' mashinalarini harakatga keltirish uchun ham yoqilg'i manbasi zarur edi. Yoqilg'i manbasi bo'lмаган joylarda ularni qo'llashning imkoniy yo'q edi, chunki u vaqtida transport vositalari juda kuchsiz edi. Bundan tashqari, bug' mashinalarini ekspluatatsiya qilish gidrokuch qurilmalari ekspluatatsiya qilishga nisbatan qimmatroq edi. Ammo bug' mashinalarini xohlagan joyda o'rnatish imkonii borligi tufayli, ular gidrokuch qurilmalari – suv g'ildiraklarini siqib chiqardi.

Taniqli olimlardan D. Bernulli, Y. Segner va L. Eylerlar yangi turdag'i suv g'ildiraklarining nazariyasini ishlab chiqdilar. Shundan so'ng olimlar tomonidan yangi turdag'i gidrokuch qurilmalarimng juda ko'p konstruksiyalari ishlab chiqildi va ular gidravlik turbinalar deb atala boshladi. Gidravlik turbinalar gidrokuch qurilmalari – suv g'ildiraklariga nisbatan ixchamligi va quvvatliroqligi bilan ajralib turardi.

Birinchi reaktiv gidravlik turbina 1837-yili rus gidrotexnigi I.E. Safonov tomonidan tayyorlandi. Uning FIK 53% ga, keyinchalik qurilgan ushbu turdag'i turbinaning FIK 70% ga yetkazildi. 1881-yili Pelton aktiv (cho'michli) turbinaning konstruksiyasini ishlab chiqdi. Ammo bu turbinalar ham o'zlarini hosil qilgan mexanik energiyani iste'molchilarga uzatar edi. Hali gidravlik energiyani mexanik energiyaga, so'ngra elektr energiyasiga aylantirib iste'molchiga uzatish ishlab chiqilgan emas edi.

1887-yili F.A. Pirotskiy birinchi marta gidroelektrostansiyalar to'g'-risidagi g'oyasini e'lon qildi. Ammo hali o'zgaruvchan elektr toki ishlab chiqish va uni uzoq masofalarga uzatish yo'lga qo'yilmagan edi.

1888-yili rus muhandisi M.O. Dolivo-Dobrovolskiy uch fazali tok tizimini yaratdi. 1891-yili esa u Germaniyadagi Nekkar daryosiga gidrokuch qurilmasini o'rnatib, 300 ot kuchiga teng quvvatni 175 km ga uzatishga muvaffaq bo'ldi. 1891-yilda Peterburgda, Neva daryosining irmog'i Oxta daryosidagi GEsga 120 va 175 kW quvvatli generatorlar o'rnatildi. Shunday qilib, butun dunyoda suv oqimining gidravlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirib beruvchi gidroturbinalarga ulangan gidrogeneratorlar orqali uzoq masofalarga uzatish mumkin bo'lgan uch fazali elektr toki ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz hududida bundan 3000 yillar avval ham, suv enerjiyasidan tegirmon toshlarini aylantiruvchi suv g'ildiraklarini harakatga keltirishda, charxpalak shaklidagi suv g'ildiraklari bilan yuqoriga suv ko'tarishda foydalanib kelingan. Suv manbalariga elektr stansiyalari GESlar qurib elektr energiyasi ishlab chiqarish 1926-yildan boshlangan. Yurtimizda gidroenergetikaning rivojlanishini 7 bosqichga bo'lish mumkin.

**Birinchi bosqich (1923–1941-yillar).** O'zbek Osiyoda birinchi bo'lib Toshkent shahridan o'tadigan Bo'zsuv kanaliga 4 000 kW·soat quvvatga ega bo'lgan Bo'zsuv GESi qurilishi boshlandi. Bo'zsuv GESi 1926-yili l-mayda ishga tushirildi. 1930-yilda Bo'zsuv kanalida 13 000 kW·soat quvvatli Qodiriya GESining qurilishi boshlandi va 1933-yili ishga tushirildi.

Bu bosqichda O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonidagi suv yo'llariga GESlar qurish mumkinligi asoslandi hamda Farg'ona va Marg'ilon shaharlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun Isfayram soyga quriladigan Isfayram GESi, Samarqand shahrini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun Darg'om kanaliga quriladigan Xishrau GESining loyihalari ishlab chiqildi [16].

Chirchiq daryosida quriladigan Tovoqsoy va Komsomol GESlari uchun loyiha-qidiruv ishlari amalga oshirildi. 1932-yildan Chirchiq daryosiga quriladigan GESlar kaskadi qurilishi boshlandi.

O'rta Osiyo suv yo'llariga quriladigan GESlarni loyiha-qidiruv va loyiha ishlarini amalga oshirish uchun 1930-yilda «Sredazgidroprouekt» instituti tashkil qilindi. Ushbu institut Bo'zsuv kanalida 1933-yilda qurilishi boshlangan va 1936-yilda ishga tushirilgan 8 000 kW·soat quvvatli Bo'rjar GESi hamda 15 000 kW·soat quvvatli Oqtepa GESi uchun ishchi chizmalarini tayyorladi. O'nlab kichik qishloq GESlari loyihalandi va qurildi.

Birinchi bosqichda O'rta Osiyo bo'yicha 120 000 kW·soat quvvatga ega bo'lgan 9 dona GESlar qurilishi boshlanib, 76 500 kW·soat quvvatga teng bo'lgan 7 dona GES ishga tushirildi.

**Ikkinci bosqich (1941–1950-yillar).** Ushbu bosqich O'rta Osiyo energetikasi, xususan, O'zbekiston energetikasi uchun ham eng mas'uliyatli davrlardan biri bo'ldi. Chunki ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan juda ko'p mudofaa korxonalar O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. Ularni juda qisqa vaqt ichida ishga tushirib, front uchun quroq-aslaho ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur edi. Mudofaa korxonalarini ishga

tushirish uchun esa katta miqdorda energiya talab qilinardi. Shuning uchun O'zbekistonda juda qisqa vaqt ichida Chirchiq-Bo'zsuv suv yo'lida va boshqa suv yo'llarida ko'plab GESlar loyiha qilindi va qurildi.

Bir yil (1943–1944-yil, 15 oy) da Solor GESi va (1942–1943 yillarda 3-Oqqovoq GESi qurilib ishga tushirildi. Urush ketayotgan bir vaqtda shu davr uchun eng katta hisoblangan 126 000 kW · soat quvvatli Farhod GESi qurilishi boshlandi. 1943-yili xalq hashari yo'li bilan boshlangan qurilish 1949-yili tugatildi.

Bu davrda loyihachilar va quruvchilar texnik hamda ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda juda katta bilimdonlik va jonbozlik ko'rsatdilar. Natijada iqtisodiy arzon va noyob yechimli gidrotexnik inshootlar, qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi. Masalan, yangi, minorali suv tashlagichlarni, arzon turdag'i suv energiyasini so'ndiruvchilarni, armatura-g'ishtli va yig'ma temir-beton konstruksiyalarni, tuproq to'g'onlar qurishdagi «ho'l usulni», opalubkasiz betonlashni, energetik jihozlarni bir-biriga montaj qilish(ulash)ni va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

1948-yili O'zbekiston energetiklari eng ulkan yutuqni qo'lga kiritdilar. Farhod GESining birinchi agregati ishga tushirildi, natijada Mirzacho'l va Dalvarzin cho'llaridagi 500 000 hektar yerni Sirdaryo suvi bilan sug'orish imkonii tug'ildi. Hammasi bo'lib bu bosqichda 296 000 kW · soat quvvatga teng bo'lgan 26 dona GESlarning qurilishi boshlanib, ulardan 285 000 kW · soat quvvatga teng bo'lgan 21 dona GES qurilib ishga tushirildi.

**Uchinchi bosqich (1951–1960-yillar).** Bu bosqichning oxiriga kelib, tekislikda joylashgan daryolarning deyarli hammasiga qurilishi mumkin bo'lgan GESlar qurib bo'lindi.

O'zbekistonda Shayxontoxur, 3–4–6 – Quyi Bo'zsuv, 7 – Shahrixon, 1–3-Namangan, Xishrau, Yerteshar GESlari qurib ishga tushirildi. Bu bosqichda avvalgi bosqichlardagidek kichik va o'rtacha GESlar emas, balki daryo o'zanlariga katta va ulkan GESlar qurilishi boshlab yuborildi.

Sirdaryo suvidan foydalanishni tartibga solish uchun uning o'zanida Qayroqqum suv ombori va GESi (1951-yili qurilish boshlanib, 1957-yili tugagan) hamda Chordara suv ombori va GESi (1959-yili qurilish boshlanib, 1966-yili tugagan) qurilib ishga tushirildi. O'rta Osiyoda eng katta GESlardan biri hisoblangan 180 000 kW · soat quvvatga teng bo'lgan 1-Uchqo'rg'on GESi (1956-yili qurilish boshlanib, 1964-yili tugagan) ishga tushirilgan.

Ushbu bosqichda hammasi bo'lib 842 000 kW·soat quvvatga teng bo'lgan 20 dona GESning qurilishi boshlanib, 888 000 kW·soat quvvatga teng bo'lgan 23 dona GES qurilib ishga tushirilgan.

**To'rtinchi bosqich (1961–1970-yillar).** To'rtinchi bosqichda O'rta Osiyodagi gidroenergetik qurilishlar dunyo amaliyotida misli ko'rilmagan natijalarga yerishdi. Baland to'g'onli GESlar qurilishi boshlandi. Amudaryoning Vaxsh irmog'iga dunyoda eng baland – 300 m li, tuproq to'g'onli, quvvati 2 700 000 kW·soatga teng Nurek GESi, Sirdaryoning asosiy irmog'i – Norin daryosiga to'g'onining balandligi 215 m bo'lgan, 1 200 000 kW·soat quvvatga teng Toxtag'ul GESi hamda Chirchiq daryosiga to'g'onining balandligi 168 m bo'lgan 600 000 kW·soat quvvatga teng Chorvoq GESi qurilishi boshlab yuborildi.

Baland to'g'onli GESlarning qurilishi ulkan gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurishni, tonnellar qurilishi ishlarini sifatli baja-rishga olib keldi. Murakkab geologik sharoitdan o'tgan tonnellarni hamda ulkan gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurish, eng baland to'g'onlarning qurilishi bu bosqichni sifat jihatidan ajralib turganini ko'rsatib turibdi.

Hammasi bo'lib bu bosqichda umumiyligi quvvati 4 558 000 kW·soat quvvatga ega bo'lgan 8 dona GES qurilishi boshlanib, ularning barchasi qurib bo'lindi va ular ishlab chiqaradigan elektr energiyasi miqdori 5 560 000 kW·soatga yetkazildi.

**Beshinchi bosqich (1971–1980-yillar).** Bu bosqich O'rta Osiyoning ulkan gidrouzellarida hali to'liq qurib bitkazilmagan to'g'onlardagi birinchi agregatlarni past bosimlarda ishga tushirishni nishonlashdan boshlandi. 1971-yilning boshida Chorvoq GESi, 1972-yilning oxirida Nurek GESi va 1975-yilning boshida Toxtag'ul GESlarining birinchi agregatlari ishga tushirildi. 1972-yilning iyul oyida Chorvoq GESining 600 000 kW·soat quvvatga teng to'rtala agregati ham ishga tushirildi.

1973-yilning may oyida Nurek GESining 300 000 kW·soat quvvatli uch dona aggregatiga vaqtinchalik ish g'ildiraklari o'rnatilib, past bosimlarda ishga tushirildi. 1976-yilning oxirida 300 000 kW·soat quvvatli bir dona aggregati hisob sxemasi bo'yicha ishga tushirildi, 1979-yilda esa Nurek GESi to'liq quvvat bilan ishlay boshladи.

1979-yili Toxtag'ul GESining umumiyligi quvvati 1 200 000 kW·soat bo'lgan to'rtala aggregati ham ishga tushirildi. 1976-yilda Norin daryosida 800 000 kW·soat quvvat olinishi rejalashtirilgan Kurupsov GESining qurilishi boshlab yuborildi.

1976-yilning oktabr oyida O'rta Osiyoda eng katta quvvatli Rog'un GESini qurishga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Vaxsh daryosiga quriladigan, umumiy quvvati 3 600 000 kW·soatga mo'ljallangan GES to'g'onining balandligi 335 m bo'lib, mahalliy qurilish materiallaridan barpo qilish rejalashtirilgan edi.

Hozirgi kunda Rog'un GESi suv ombori quriladigan stvorda tuzli qatlamlar borligi va suv ombori kuchli zilzilalar ro'y beradigan hududda joylashganligi sababli, mamlakatimiz mutaxassislari ushbu GESni qurish maqsadga muvofiq emasligini isbotlashdi. Yuqorida keltirilgan yoki boshqa sabablarga ko'ra falokat ro'y bergen taqdirda ushbu gidrografik zonada joylashgan Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston mamlakatlariga juda katta zarar yetkaziladi [17].

1976-yilda Chirchiq daryosiga qurilgan Xo'jakent GESining quvvati 55 000 kW·soatdan bo'lgan uch dona agregati ishga tushirildi va 120 000 kW·soat quvvatli G'azalkent GESining qurilishi boshlab yuborildi. Shu yili Oqbo'ra daryosida balandligi 120 m, hajmi uncha katta bo'lмаган Papan suv ombori qurilishi ham boshlab yuborildi. Amudaryodagi Tuyamo'yin gidrouzelidagi 150 000 kW·soat quvvatli GESning qurilishi davom ettirildi.

Bu bosqichda hammasi bo'lib umumiy quvvati 4 835 000 kW·soat quvvatli 5 dona yangi GESning qurilishi boshlanib, ulardan 3 175 000 kW·soat quvvatli 4 dona GES qurilib ishga tushirildi.

**Oltinchi bosqich (1980–1991-yillar).** Ushbu bosqichda qurilayotgan GESlardagi ishlari tugatilib, ular ishga tushirildi. Asosan, ekspluatatsiya qilinayotgan GESlarning uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari bajarilib turdi.

**Yettinchi bosqich (1991-yildan hozirgi kungacha).** Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan so'ng, xalq xo'jaligini energiyaga bo'lgan talabini qondirish hamda ekologik toza energiya ishlab chiqarish uchun, irrigatsiya tarmoqlaridagi suv obyektlariga kichik va o'rta GESlar qurish rejalashtirildi. Ushbu bosqich bo'yicha hozirgi kunda irrigatsiya tarmoqlari – magistral, xo'jaliklararo va ichki xo'jalik tarmoqlaridagi kanallar, kollektor-zovur tizimlari, suv omborlari, sel-suv omborlari, soylar, buloqlar va boshqalarga kichik va o'rta GESlarni qurish uchun loyiha-qidiruv, loyiha, qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish ishlari davom ettirilmoqda [57].

### **3.2. O'zbekiston Respublikasida gidroenergetikaning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqboli**


Ma'lumki, o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab dunyoda kichik elektrostansiyalar qurib ulardan foydalanish avj olib ketdi. Keyinchalik (1960-yillardan boshlab) katta daryolarda yirik suv omborli GESlar qurila boshladi. Atom va yirik issiqlik hamda GESlarning qurilishi natijasida esa kichik GESlarni qurish va ulardan foydalanish to'xtatib qo'yildi.

**Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta'minlanganligi belgilaydi.** Ammo energiya iste'molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg'ilardan foydalanish atrof-muhitning global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda. Shuning uchun hozirgi kun energetikasining dolzarb masalalaridan biri ekologik toza, qayta tiklanadigan noana'naviy energiya manbalaridan foydalanishdir.

Mamlakatimiz hududi asosan tog' oldi va tekislik rayonlarida joylashgan. Shuning uchun bu hududlarda katta GESlar qurishning imkonи yo'q. Chunki katta GESlarning doimiy ishlashi uchun daryolarga to'g'onlar qurish hamda hosil bo'lган suv omborlarida juda katta suv hajmini yig'ish zarur. Natijada juda katta hududlar suv ostida qolib ketadi. 22-rasmida daryo hududlarining bo'linishi va ularga (GESlar uchun) qurilgan suv omborlari hisob sathlarining yoyilish uzunliklari ko'rsatilgan. Shuning uchun mamlakatimizda asosan meliorativ tarmoqlar (magistral, xo'jaliklararo va ichki xo'jalik tarmoqlaridagi kanallar, kollektor-zovur tizimlari, suv omborlari, sel-suv omborlari, soylar, buloqlar va boshqalar)ga irrigatsiya rejimida ishlaydigan kichik va o'rta GESlar qurib ekspluatatsiya qilinmoqda.

Respublikamiz rivojlangan agrar mamlakat bo'lганligi va u arid zonasida joylashganligi sababli, qishloq xo'jalik ekinlaridan sun'iy sug'orish orqali hosil olinadi. Sug'orish suvlarini yetkazib berish uchun mamlakatimiz irrigatsiya tizimlarida uzunligi 28,6 ming km bo'lган 75 dona yirik magistral va xo'jaliklararo kanallar va ulardagi 207 dona ulkan gidrotexnik inshootlar, 172,2 ming km uzunlikdagi ichki sug'orish tarmoqlari, hajmi 20,0 mlrd. m<sup>3</sup> ga yaqin bo'lган 56 dona suv ombori va 25 dona sel-suv ombori ekspluatatsiya qilinadi. Bundan tashqari, tog' va tog' oldi hududlarida, baland sharsharali yuzlab soy va buloqlar mavjud.

1990–1992-yillarda sobiq Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligining topshirig'iga asosan «Suvloyiha» instituti «2010-yilgacha O'zbekiston Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tizimida kichik GESlarni rivojlantirish sxemasi»ni ishlab chiqdi [18]. Ishlab chiqilgan sxemaga asosan yuqorida keltirilgan irrigatsiya tizimlarida 143 dona kichik GES qurib, yiliga 3,96–4,5 mlrd. kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi. Ushbu har bir irrigatsiya tizimidagi energetik nuqtalar aniqlanib, shu nuqtalarning rejada gidravlik va energetik xarakteristikalarini ko'rsatib berildi. Bu reja O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-dekabrdagi 476-sonli «O'zbekiston Respublikasida kichik gidroenergetikani rivojlantirish to'g'ridagi qarori» bilan mustahkamlandi. Yuqoridagi qarorni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshida «O'zsuvenergo» ixtisoslashtirilgan birlashmasi tashkil qilindi.



22-rasm. Daryo hududlari va ularga qurilgan suv ombori natijasida suv sathining yoyilish chegaralari.

### 3.3. Irrigatsiya tarmoqlaridagi kichik va o'rta GESlar

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta'minlanganligi belgilaydi. Ammo energiya iste'molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg'ilardan soydalanish atrof-muhitning global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda. Shuning uchun hozirgi

kun energetikasining dolzarb masalalaridan biri ekologik toza, qayta tiklanadigan noana'naviy energiya manbalaridan foydalanishdir.

Bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 85% i organik yoqilg'ilardan foydalanadigan issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Atigi 14,5% elektr energiyasi gidro-elektrostansiya (GES)lar yordamida ishlab chiqariladi.

Katta miqdordagi qayta tiklanuvchi, ya'ni bir necha bor foydalanish imkonini bo'lgan energiya manbalariga ega bo'lgan mamlakatimizda kichik gidroenergetika muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasining gidroenergetik resurslari quyidagicha baholanadi [18].

1. Yillik umumiy (yoki nazariy) giroenergetik potensial – 88,5 mlrd. kW·soat, shundan:

- katta daryolar – 81,1 mlrd. kW·soatni;
- o'rtacha daryolar – 3,0 mlrd. kW·soatni;
- kichik daryolar – 4,4 mlrd. kW·soatni tashkil qiladi.

2. Energiya hosil qiluvchi suv oqimi o'z yo'lida juda ko'p qarshiliklarga duch keladi va isrof bo'ladi. Isrof bo'lgan energiyadan qolgan energiya – texnik gidroenergetik potensial, 27,4 mlrd. kW·soatga teng bo'lib, shundan:

- katta daryolar – 24,6 mlrd. kW·soatni;
- o'rtacha daryolar – 1,5 mlrd. kW·soatni;
- kichik daryolar – 2,3 mlrd. kW·soatni tashkil qiladi.


3. GES jihozlaridan o'tayotgan suv oqimi juda ko'p qarshiliklarni yengib o'tadi. Barcha qarshiliklardan so'ng qolgan sof iqtisodiy samarador gidroenergetik potensiali 16,6 mlrd. kW·soatni tashkil qiladi.

Ishlab chiqilgan, «2010 yilgacha O'zbekiston Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tizimida kichik GESlarni rivojlantirish sxemasi»da har bir irrigatsiya tizimidagi energetik nuqtalar aniqlanib, shu nuqtalarning gidravlik va energetik xarakteristikalari ko'rsatib berildi.

23-rasmda Yangi Darg'om kanalining bo'ylama kesimi va undagi energetik nuqtalar ko'rsatilgan, 5-jadvalda esa shu nuqtalarning gidravlik va energetik xarakteristikalari keltirilgan [18].

Hozirgi kunda quyidagi kichik GESlar ishga tushirilgan:

- Surxondaryo viloyati To'palang suv omboridagi GESning I-navbati;
- Toshkent viloyati Ohangaron suv omboridagi GES;
- Qashqadaryo viloyati Hisorak suv omboridagi GES;
- Samarqand viloyati Darg'om kanalidagi kichik Gulba GESi;



23-rasm. Yangi-Darg'om kanalining energetik nuqtalar ko'rsatilgan bo'yylama kesimi.

- Andijon viloyati Andijon suv omboridagi 2-GES;
- Xorazm viloyatidagi Tuyamo'yin GESi;
- Farg'on'a viloyati Ko'ksuv kichik daryosidagi kichik Shohimardon GESi;
- Toshkent viloyatidagi Yertoshsoy GESi.

5-jadval

#### Yangi Darg'om kanalining asosiy energetik va gidravlik xarakteristikalari

T.r.	GESlarning nomi	Hisob bosimi, m	Hisob suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	Quvvat, MW		O'rtacha ko'p yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish, MW	Aggregatlar soni, dona
				kafo-latlangan	o'rnatilgan		
1	35+00-piket-dagi 1- GES	11,0	56	0	5,1	23,4	2
2	58+50-piket-dagi 2- GES	11,5	56	0	5,3	23,4	2
3	88+00-piket-dagi 3- GES	11,0	56	0	5,1	23,4	2

Bundan tashqari, qurish uchun quyidagi kichik gidroenergetik obyektlarning loyiha hujjalari ishlab chiqilgan:

- Andijon viloyatidagi Shahrixon 0-GESi;
- Andijon viloyatidagi Shahrixon 1-GESi;
- Toshkent viloyati Chirchiq-Bo'zsuv energetik kaskadidagi Pioner GESi;
- Samarqand viloyati Darg'om kanalidagi ShaudarGESi;
- Samarqand viloyatidagi Bog'ishamol 2-GESi;
- Farg'onasi viloyatidagi Karkidon GESi.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi kichik, o'rtacha va katta daryolarda hamda irrigatsiya tizimlarida konservatsiya qilingan, ekspluatatsiya qilinayotgan, qurilayotgan, loyihalanilayotgan, loyiha-qidiruv ishlari olib borilayotgan GESlar soni 204 donani tashkil qiladi. Shundan: ekspluatatsiya qilinayotgan GESlar 34 («Uzbekenergo» DAK ga qarashli 30, O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshidagi «Suvenergo» birlashmasiga qarashli 4) donani; konservatsiya qilingan GESlar 11 donani; qurilishi mo'ljallanib, loyiha-qidiruv va loyiha ishlari bajarilayotgan GESlar soni 45 donani; qurilishi mumkin bo'lgan GESlar daryolarda 12 donani, suv omborlarida 23 donani va magistral kanallarda 79 donani tashkil qiladi.

Hukumatimiz tomonidan irrigatsiya tizimlaridagi kichik energetikani rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar – kelajakda ekologik toza energiya ishlab chiqarishning ko'payishiga, atrof-muhitning sof saqlanishiga, asosiy energetik tizimdan uzoqda joylashgan qishloqlarni elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlanishiga, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini arzon elektr energiyasi bilan ta'minlanishiga va xalqimizning yanada farovon turmush kechirishini ta'minlashga imkon yaratib beradi.

### 3.4. Mikrogidroenergetika

Balanddan tushayotgan tog'li hududlardagi kichik soylar, buloqlar energiyasidan foydalanib, asosiy energetik tarmoqlardan uzoqda joylashgan tog'li hududlardagi aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash mumkin. Kichik suv manbalariga odatda kichik quvvatli mikroturbinalar o'rnatiladi (24-rasm).

**Ishlash prinsipi bo'yicha** mikro-GES turbinalarini ikki turga, oqimning kinetik va potensial energiyasidan foydalanuvchilarga bo'lish mumkin: [59].



24-rasm. Mikro-GESlarning turlari va ulardan foydalanish.

**Quvvati bo'yicha.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining klassifikatsiyasi bo'yicha 10–15 MW gacha quvvatga ega bo'lgan GESlar kichik GESlar tarkibiga kiradi:

- mikro GESlarga – 100 kW gacha;
- mini GESlarga – 100–1 000 kW gacha;
- kichik GESlarga – 1 000–10 000 kW gacha.

Mamlakatimizda qabul qilingan klassifikatsiya bo'yicha 100 kW dan 30 000 kW gacha bo'lgan hamda ish g'ildiragi diametri 3,0 m gacha va bir gidroagregatning quvvati 10 000 kW gacha bo'lganlar kichik GESlar tarkibiga kiritilgan.


### 3.5. Energetik va irrigatsiya rejimida ishlovchi GESlar

Irrigatsiya tizimiga qurilib ekspluatatsiya qilinayotgan kichik GESlar **irrigatsiya rejimida**, ya'ni faqatgina ekinlarning vegetatsiya-sug'orish davrida (3 oy, 6 oy, 9 oy va hokazo) ishlaydi (masalan, Chirchiq-Bo'zsuv irrigatsiya tizimidagi 22 dona GESlar kaskadi). Chirchiq-Bo'zsuv energetik kaskadi 25-rasmida ko'rsatilgan. Irrigatsiya rejimida ishlaydigan GESlar to'xtovsiz energetik rejimda ishlaydigan GESlardan keskin farq qiladi. **Energetik rejimda** to'xtovsiz ishlaydigan GESlar yillik va ko'yillik suv bilan ta'minlovchi, tog' va tog'oldi daryolariga quriladigan suv omborli to'g'onlarga o'rnatiladi (Masalan, Qirg'izstondagi To'xtag'ul, Tojikistondagi Rog'un GESlari va boshqalar).



25-rasm. Chirchiq-Bo'zsuv GESlar kaskadi.

To'xtovsiz energetik rejimda ishlaydigan GESlar irrigatsiya rejimida – ekinlarning vegetatsiya davriga bog'liq holda ishlaydigan GESlardan keskin farq qiladi. 26-rasmida har xil rejimda ishlayotgan suv ombori ko'rsatilgan.



26-rasm. Har xil rejimda ishlayotgan suv omborining suv sarflari:


1 – irrigatsion; 2 – energetik; 3 – birqalikda (irrigatsion-energetik); 4 – suv omboriga o'rtacha ko'p yillik suvning oqib kelishi.

### 3.6. GES va GAESlar, ularning turlari va ishlash prinsipi


Suv oqimining gidravlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi gidrotexnik inshootlar va gidroenergetik jihozlar yig'indisi **gidroelektrostansiya (GES)** deyiladi [19, 29].

Ma'lum balandlikda joylashgan tabiiy va sun'iy yig'ilgan suvdan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi, ham turbina, ham nasos joylashtrilgan energetik obyekt, **suvni yig'uvchi (gidroakkumulatsiyalovchi) gidroelektrostansiya (GAES)** deyiladi [19, 29].

Bosimni bir joyga to'plashning ikki xil usuli mavjud: **to'g'onli** (27-rasm) va **derivatsiyali** (28-rasm). Bosim ostidagi suv energiyasini elektr energiyasiga aylantirish gidravlik turbinalar yordamida amalga oshiriladi. Turbinanig asosiy qismlaridan biri – ish g'ildiragidir. Yuqori bef (Y.B.)dan bosim quvurlari orqali tushayotgan suv ish g'ildiragi parraklariga urilib uni aylantiradi. Ish g'ildiragi o'qiga ulangan generatorning aylanishi natijasida elektr energiyasi ishlab chiqariladi.



27-rasm. Bosimni bir joyga toplashning to'g'onli usuli.



28-rasm. Bosimni bir joyga toplashning derivatsion usuli.

To'g'onli sxemada daryo o'zani to'g'on bilan bekitiladi va suv sathi yuqoriga ko'tariladi hamda yuqori (Y.B.) va pastki bef (P.B.) suv sathlari farqi miqdorida bosim hosil qilinadi.

Katta nishabli tog' daryolarida bosim derivatsiya kanali yordamida hosil qilinadi. Daryo o'zani uncha baland bo'limgan to'g'on bilan bekitiladi va suv derivatsiya kanali hamda uning oxiridagi bosimli basseynga joylashgan bosim quvurlari yordamida turbinalarga uzatiladi.


GAESlarda pastki basseyn (yoki bef) vazifasini suv ombori yoki daryo, yuqori basseyn (yoki bef) vazifasini tabiiy ko'llar yoki maxsus qurilgan suv omborlari bajaradi (29-rasm).

Birinchi ishlab chiqilgan sxemalarda GAESlarga ikkita alohida mashinalar: gidroturbina va gidrogenerator hamda nasos va elektrodvigatellar o'rnatilgan. Shuning uchun ular to'rt mashinali GAESlar deb atalgan.

Ma'lumki, sinxron elektr mashinasidan ham elektrodvigatel, ham generator sifatida foydalanish mumkinligi sababli, GAESlarda uch mashinali sxemalar qo'llanila boshladi.


Ham nasos, ham turbina rejimida ishlaydigan qaytariluvchan mashinalarning paydo bo'lishi GAESlarda ikki mashinali sxemalardan foydalanishga sharoit yaratib berdi.

GAES quyidagi rejimda ishlaydi. Energiya yuklanishi juda pasayib ketgan kechki vaqtarda GES binosidan yuqorida joylashgan manba (suv ombori yoki tabiiy chuqurlik)ni suvgaga to'ldirish uchun GAESning nasos qurilmalari ishga tushiriladi. Energiya iste'mol qilish ko'payib ketgan vaqtлari yuqoriga ko'tarilgan suv, bosim quvurlari orqali turbinalarga uzatiladi va qo'shimcha elektr energiyasi ishlab chiqariladi. GAESlarning xilma-xil sxemalari mavjud. 30-rasmda suv bo'lувчи tepalikka o'rnatilgan hovuzga nasoslar yordamida ko'tarib berilgan suvda ishlaydigan GAES sxemasi keltirilgan.



**29-rasm. GAESning sxemasi:**

- 1 – bosimli quvur; 2 – GES binosi;
- 3 – tenglashtiruvchi idish;
- 4 – suv qabul qiluvchi.



**30-rasm. Suv bo'lувчи tepalikka o'rnatilgan hovuz suvi bilan ishlaydigan GAES sxemasi:**

- 1 – nasos qurilmasi; 2 – suv bo'lувчи tepalikdagи hovuz;
- 3 – hovuzga va turbinaga suv uzatuvchi bosimli quvurlar;
- 4 – GES binosi.

## **4-bob. GIDROENERGETIKA ASOSLARI**

**Gidroenergetika** – umumiy energetikaning tarmoqlaridan biri bo'lib, suv energiyasi va undan energiya olish usullarini o'rganuvchi texnik fandir. Gidroenergetika ham xuddi issiqlik, atom energetikasi kabi energetikaning bir tarmog'i hisoblanadi. Gidroenergetika faqatgina yer usti suv manbalariga qurilgan gidrotexnik inshootlar yordamida energiya ishlab chiqarishni o'rganmasdan, balki suv bilan bog'liq barcha energiya ishlab chiqarish turlarini o'rganadi. Masalan, suv sathini ko'tarilib-tushish energiyasi, dengiz va okeanlarda hosil bo'ladigan va qirg'oqqa kelib uriladigan to'lqinlar energiyasi, geotermal suvlar energiyasi va hokazolar.

Gidroenergetika fan sifatida energiya olish va undan foydalanish usullarini o'z tarkibiga oladi. Gidroenergiya olish usullari ma'lum suv manbayidan foydalanish sxemasiga, ya'ni gidrologik, gidrotexnik va energoqtisodiy asoslanishiga bog'liqdir.

### **4.1. Suv va suv resurslari**

Insoniyat hayotini suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. «Suvni hayot uchun zarur narsa deyish gunoh, suv hayotning o'zidir» deyilgan muqaddas hadislarda. Suv tabiatda eng ko'p tarqalgan va eng harakatchan tabiiy resursdir. Suvning juda ko'p anomal fizik va kimyoviy xususiyatlari mavjud. Masalan, suvning «tirik suv», og'ir va juda og'ir turlari mavjud. Ba'zibir olimlarning fikriga ko'ra, tabiatda suvning 42 turi hosil bo'lishi mumkin va ulardan 9 turi o'zgarmas xususiyatlarga ega ekan.

Suv resurslari tarkibiga daryo oqimlari, ko'llar va suv omborlari suvlari, grunt suvlari, chuchuk va kam mineralizatsiyali bosimli yer osti suvlari kiradi. Muzliklar va qor zahiralari, bosimli chuqur yer osti suvlari, ichki dengizlarning suvlari, qirg'oq oldi va hududiy suvlar, kam sho'rangan va sho'rangan grunt suvlari kelajakda foydalaniishi ko'zda tutilgan suv resurslari hisoblanadi. Ilgari tekin hisoblangan, tabiat in'omi deb qaralgan suv resurslari bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy resursga aylanmoqda.

Suv resurslarini baholaganda ikki xil: **statik zahiralar** va **qayta-lanuvchi resurslar** tushunchalaridan foydalaniadi. Statik yoki asriy chuchuk suv zahiralariga ko'llar, daryolar, muzliklar va yer osti suvlari kiradi. Qaytalanuvchi suv resurslari – quruqlik va okeanlar orasidagi suv almashishi natijasida, tabiatda suvni aylanish jarayoni tufayli, har yili qayta tiklanadigan suvlardir [19].

Tabiatda aylanish jarayonida  $577\ 000\ km^3$  suv miqdori qatnashadi. Xuddi shu miqdordagi suv okeanlar ( $505\ 000\ km^3$ ) va quruqlik ( $72\ 000\ km^3$ ) sathidan bug'lanadi hamda yog'ingarchilik shaklida okeanlarga ( $458\ 000\ km^3$ ) va quruqlikka ( $119\ 000\ km^3$ ) qaytib tushadi. Hisoblarga qaraganda yer yuzidagi suv resurslari yer shari bo'ylab taqsimlansa,  $3790\ m$  ga teng suv ustuni hosil bo'lib, ularning og'irligi  $1,5 \times 10^9\ mln.\ tonnaga$  teng ekan.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi ularning ko'p jihatdan yetarli suv resurslari bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir. 6-jadvalda 1 tonna mahsulot uchun sarf bo'ladigan suv miqdori keltirilgan.

6-jadval

#### 1 tonna mahsulot uchun sarf bo'ladigan suv miqdori

Mahsulotning nomi	Suv hajmi, $m^3$	Mahsulotning nomi	Suv hajmi, $m^3$	Mahsulotning nomi	Suv hajmi, $m^3$
G'isht	1,5	Ko'mir	3,0	Po'lat	300
Qog'oz	250	Azot o'g'iti	600	Sintetik tola	4000
Ip-gazlama	10	Sintetik gazlama	3000	Bug'doy	1500
Kapron tolasi	5600	Sholi	4000	Paxta	10000

Mamlakatimiz xalq xo'jaligi tarmoqlari, ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki tabiiy sharoitining o'ziga xosligi, ya'ni atmosfera yog'inlarining miqdori, suv sathlari va dalalardagi bug'lanishga nisbatan 15–20 marta kamligi tufayli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi bo'lgan paxta, g'alla, poliz ekinlari, bog' mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni yetishtirish sun'iy sug'orish orqali amalga oshiriladi.

O'rta Osiyo mamlakatlari hududida hosil bo'ladigan suv zahiralarining o'rtacha 10% i, mamlakatimiz ehtiyoji uchun talab qilinadigan suv miqdorining esa atigi 20% i hosil bo'ladi. Yetishmagan suv resurslari qo'shni mamlakatlar Qиргизистон va Тоҷикистон hududidan kelayotgan suv zahiralari bilan to'ldiriladi (7-jadval).

**Orol dengizi havzasidagi davlatlar hududida shakllanadigan va iste'mol qilinadigan suv resurslari (mlrd. m<sup>3</sup>)**

Davlatlar	Amudaryo havzasi		Sirdaryo havzasi		Orol dengizi havzasi	
	Shakllanadi-gan	Iste'mol qilina-digan	Shakllanadi-gan	Iste'mol qilina-digan	Shakllanadi-gan	Iste'mol qilina-digan
O'zbekiston	5,14	38,91	6,39	17,28	11,53	56,19
Qirg'iziston	4,04	0,38	26,79	4,03	30,83	4,41
Tojikiston	44,18	9,88	0,38	2,46	44,56	12,34
Qozog'iston	—	—	2,50	12,29	2,50	12,79
Turkmaniston	2,79	21,73	—	—	2,79	21,73
Afg'oniston	22,19	7,44	—	—	22,19	7,44
Jami	78,34	78,34	36,06	36,06	114,40	114,40

## 4.2. Gidrologiyaning asosiy tushunchalari

Yer yuzidagi suv manbalari va ulardagi jarayonlarni, bu jarayonlarning qonuniyatlarini **quruqlik gidrologiyasi** fani o'rGANADI. Gidroenergetikaning gidrologik asosi bo'lib, barcha suv xo'jaligi hisoblaridagidek, oqim rejimi xizmat qiladi. Oqim rejimi quyidagi xarakteristikalar bilan aniqlanadi [19].


**1. Suv sarfi ( $Q$ )** – 1 s vaqt ichida suv manbasining ma'lum kesim yuzasidan o'tayotgan suv hajmiga aytildi va  $l/s$  hamda  $m^3/s$  larda o'chanadi:

$$Q = W/t,$$

bu yerda:  $W$  – 1 s da o'tayotgan suv hajmi ( $l$ ,  $m^3$ );  
 $t$  – vaqt birligi (s, minut, soat).

Daryoning yoki har qanday suv manbasining vaqtga nisbatan suv sarfining xronologik o'zgarishini tasvirlovchi grafiklar **gidrograflar** deyiladi (31-rasm). Gidrograflar suv manbasida o'tkazilgan gidrometrik o'lchashlarning natijalari asosida quriladi.

Gidrograflar ma'lum – soatlilik, kunlik, o'n kunlik, oylik, yillik va hakozo vaqt uchun quriladi. Gidrograflarda suv sarfining maksimal, o'rtacha va minimal miqdorlari ham ko'rsatladi.



31-rasm. Daryoning yillik gidrografi.

**Oqim ( $\Sigma W$ )** – suv manbasining ma'lum kesim yuzasidan ma'lum vaqtida o'tgan suv hajmiga aytildi va  $m^3$  hamda  $km^3$  larda o'lchanadi.

**Oqim me'yori ( $W_0$ )** – suv manbasi yillik oqimlarining ko'p yillik o'rtacha miqdoriga aytildi va  $m^3$  hamda  $km^3$  larda o'lchanadi.

**Suv sarfi me'yori ( $Q_0$ )** – suv sarfining o'rtacha ko'p yillik miqdoriga aytildi va  $l/s$  hamda  $m^3/s$  larda o'lchanadi.


Oqimning boshqa xarakteristikalari ham mavjud, ammo ular ushbu fanda ko'p ishlatilmagani uchun ko'rib chiqilmagan.

### 4.3. Suv manbasining ishi

Tabiiy sharoitda suv manbasi oqimi to'xtovsiz ish bajaradi. Suv sarfi –  $Q$ , tezligi –  $V$ , uzunligi –  $L$ , harakat kesim yuzasi –  $\omega$  ko'rsatkichlarga ega bo'lgan suv oqimini ko'rib chiqamiz [20]. Suv oqimida birinchi va ikkinchi qirqimlar orasidagi hajmni ajratamiz. Bu hajmning diagonallar kesimidagi og'irligi  $G = \rho \times g \times \omega \times L$  ta'sir qiladi, uning tashkil qiluvchilaridan biri kuch  $F$  bo'lib, u oqimning harakat tezligi kabi yo'nalgan (32-rasm):

$$F = G \times \sin\alpha = \rho g \times L \times \omega \times \sin\alpha.$$

Ajratilgan suv oqimi  $L$  uzunlikdagi masofani bosib o'tganda bajaradigan ishni topamiz:



32-rasm. Suv manbasining quvvatini aniqlash.

$$A = F \times L.$$

$L$  – uzunlikdagi oqimning tushish balandligini  $N$ , tezligini  $V$  orqali belgilaymiz, unda

$$L = N / \sin \alpha;$$

$$L = V \times t.$$

Uzluksizlik qonuniyatidan kelib chiqib  $V = \omega = Q$  ekanligini hisobga olsak, unda

$$A = \rho \times g \times \omega \times L \times \sin \alpha \times L = \rho \times g \times \omega \times V \times t \times H = \rho \times g \times Q \times t \times H, \text{ dj.}$$

### Oqim quvvati:

$$N = A / t = \rho \times g \times Q \times H, \text{ gj/c;}$$

$$(W) = 1000 \times 9,81 \times Q \times H / 1000;$$

$$\text{kW} = 9,81 \times Q \times H, \text{ kW ga teng.}$$

Suv oqimining ko'rsatkichlari, bosim  $H$ , quvvat  $N$  va energiya  $E$  hisoblanadi.

Oqim energiyasi:

$$E = N \times t = 9,81 \times Q \times H \times t, \text{ kW} \cdot \text{soat.}$$

Daryo oqimi yuqori qismidan quyigacha harakat qilib, o'z energiyasini loyqalarni o'zan tubida harakatlantirishga va suvgaga aralashgan holda olib yurishga, suv massasi va mahsulotlarini tashishga sarflaydi. Tabiiy sharoitda (sharsharalardan tashqari) suv energiyasi suv oqimining barchu o'lchamlari bo'yicha tarqaladi.

Ko'proq quvvat hosil qilish yoki suv energiyasidan foydalanish uchun daryo energiyasini gidrotexnik inshootlar yordamida bir joyga tuplash zarur, ular suv oqimi bosimini hosil qiladi.

#### 4.4. Suv omborlari, GES beflarining xarakteristikalari

Yer yuzida suv omborlarining soni 30 mingdan, suv yuzasi maydoni 400 ming km<sup>2</sup> dan ko'proqni tashkil qiladi. MDH mamlakatlarida hajmi 1010 km<sup>3</sup> li 1000 donaga yaqin suv omborlari mavjud. 1974-yilga kelib AQShda 1600 dona suv ombori qurilgan. 2010-yilda esa AQShdagagi suv omborlarining foydali hajmi 2 barobarga ko'paygan. Har yili dunyo bo'yicha 300–500 donagacha suv ombori qurilib ishga tushiriladi. Bundan 30–40-yil avval birorta ham suv ombori bo'limgan Afrikada hozirgi kunda yer yuzidagi eng yirik suv omborlarining 4 donasi qurilgan. Oxirgi 40 yil oralig'ida dunyodagi suv omborlarining soni 4 barobarga, ularning hajmi esa 10 barobarga ko'paygan.

Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligiga suv yetkazib beradigan, irrigatsiya rejimida ishlayotgan 56 dona suv ombori mavjud. Yuqorida suv resurslaridan energiya olish uchun ularning energiyasini – suv yo'llini to'g'onlar bilan to'sish va derivatsiya kanallari orqali bir joyga yig'ib energiya hosil qilish to'g'risida fikr yuritgan edik.

Suv yo'li to'g'on bilan to'silganda har xil hajmdagi irrigatsiya rejimida ishlaydigan suv omborlari – sun'iy suv havzalari hosil bo'ladi. Suv omborlarining asosiy vazifasi vegetatsiya davrida, suv taqchil bo'lgan davrlarda qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun suv yetkazib berishdir. Ammo suv omboridan sug'orish uchun olinayotgan suv, avvalo, gidroturbinalardan o'tkazilib ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqariladi, so'ngra olib ketish irrigatsion kanallari orqali sug'oriladigan dalalarga uzatiladi.

Suv omborlarining asosiy xarakteristikalarini qarab chiqamiz [19].

**1. Me'yoriy dimlangan sath** – suv omborining yuqori chegaraviy sathi bo'lib, bu sathda GES uzoq vaqt ishonchli ishlashi mumkin. Bu sathga mos suv hajmi **to'liq hajm** deb ataladi va  $W_{\text{to'liq}}$  deb belgilanadi.


**2. O'lik hajm sathi** – suv omborining pastki chegaraviy sathi. GESning eng kichik parametrlarini ham qoniqtirmaydigan sath. Bu sathga mos suv hajmi **o'lik hajm** deb ataladi va  $W_{\text{o'lik hajm}}$  deb belgilanadi.

**3. Dimlangan forsirovka sathi** – qisqa muddatli katta hajmdagi sel suvlari sathi. Dimlangan forsirovka sathi bilan me'yoriy dimlangan sath orasidagi hajm **zahira hajm** deyiladi.

**4. Foydali hajm** – to'liq va o'lik hajmlar orasidagi farqdan iborat bo'lib, undan suv omboridan chiqayotgan oqimni tartibga solishda foydalaniladi.

$$W_{\text{foydali}} = W_{\text{to'liq}} - W_{\text{o'lik hajm}^*}$$

Suv energetik hisoblarda har xil xarakteristikalarini bog'lovchi grafiklar keng qo'llaniladi. Suv omboriga ma'lum miqdorda suv kirib turgan holat uchun odatda topografik xarakteristikalaridan biri bo'lgan statik xarakteristikadan foydalaniladi. Statik xarakteristika ikki xil grafikdan iboratdir. Ulardan biri suv sathi bilan suv omboridagi hajm orasidagi bog'lanishni –  $\nabla YB = f(W)$  ko'rsatadi va **hajmiy grafik** deb ataladi, ikkinchisi suv sathi bilan suv yuzasi orasidagi bog'lanishni  $\nabla YB = f(F)$  ko'rsatadi va **maydoni grafiki** deb ataladi. Ikkala xarakteristika ham joyning topografik rejasi ishlab chiqilgandan va suv hajmlari o'lchangandan so'ng quriladi (33-rasm).



33-rasm. Suv sathi bilan hajm va suv yuzasi maydoni orasidagi bog'lanish grafiklari: 1 –  $\nabla YB = f(W)$ , 2 –  $\nabla YB = f(F)$ .


## 5-bob. GIDRAVLIK TURBINALAR

### 5.1. Gidroturbinalarning asosiy turlari

Harakatlanayotgan suvning gidravlik energiyasini ish g'ildiragini aylantiruvchi mexanik energiyaga o'zgartirib beruvchi dvigatel **gidravlik turbina (yoki gidroturbina)** deyiladi.


Ma'lumki, harakatdagi suyuqlikning umumiyligi energiyasi potensial va kinetik energiyalar yig'indisidan iboratdir. Suyuqlikning gidravlik turbinaga berayotgan energiyasi ( $\Delta E$ ), uning ish g'ildiragiga kirishdagi ( $E_k$ ) va undan chiqishdagi ( $E_{ch}$ ) energiyalar farqiga teng. Shunga asosan gidroturbinalar uchun Bernulli tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin (34-rasm, tenglama-sxema).

Foydalilanayotgan energiya turiga qarab, turbinalar **aktiv va reaktiv turbinalarga** bo'linadi. **Reaktiv turbinalar** oqimning potensial energiyasidan foydalaniadi, **aktiv turbinalar** esa oqimning kinetik energiyasi hisobiga ishlaydi. Tuzilish jihatidan aktiv turbinalar quydagi sistemalarga bo'linadi: **cho'michli** (Pelton turbinasi); **ikki karrali** (Banki turbinasi);



34-rasm. Potensial va kinetik energiyaning tashkil qiluvchilari.

## GIDRAVLIK TURBINALAR



35-rasm. Gidravlik turbinalar klassifikatsiyasi.

**qiya oqimli** (Tyургo турбинаси). Hозирги вақтда, асосан, cho'michli turbinalar ko'п qo'llaniladi (35-rasm).

Reaktiv turbinalar **o'qiy** va **radial o'qiy** tizimlarga bo'linadi. O'qiy turbinalar o'z navbatida **parrakli** va **qayrilma parrakli**, radial o'qiy turbinalar esa **sekin yuruvchi**, **normal yuruvchi**, **tez yuruvchi** va **juda tez yuruvchi** seriyalarga bo'linadi (35-rasm).

Bir tizimga kiruvchi gidroturbinalar seriyalarga bo'linadi. Seriyalar suv oqib o'tadigan qismi bir-biriga geometrik o'xshash, ammo o'lchamlari har xil bo'lgan turbinalarni o'z ichiga oladi, 35-rasmda gidravlik turbinalar klassifikatsiyasi keltirilgan [21, 59, 60].

## 5.2. Reaktiv turbinalar

Reaktiv turbinalar tizimiga kiruvchi o'qiy turbinalar seriyasidagi parrakli gidroturbinalar barcha gidroturbinalar orasida eng yuqori tezyurar gidroturbinalardan hisoblanadi. Tezyurar gidroturbinalar oqimning juda kichik tezligida ham yuqoriroq aylanishlarga ega bo'ladi. Katta tezlikda aylanadigan gidroturbinalarga katta tezyurarlikka ega bo'lgan gidrogeneratorlarni qo'llash imkonи tug'iladi. Tezyurar gidroturbinalar yengil bo'lib, narxi arzon bo'ladi. Shuning uchun parrakli gidroturbinalarni oqimning juda kichik bosimi hamda tezligida qo'llash mumkin.

### Parrakli gidroagregat turlari

Parametrlari	Gidroagregat turlari				
	ГА1	ГА8	ГА14	Пр15	Пр30
Quvvat, kW	100÷330	150÷1800	20÷300	130,0	200,0
Bosim, m	3,5÷9,0	6,0÷22,0	2,0÷7,2	2,0÷12,0	4,0÷18,0
Suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	2,3÷6,2	2,5÷11,0	2,5÷5,75	0,44÷1,5	0,38÷1,10
Turbina rotorining aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	200÷360	300÷600	250÷375	600; 750; 1000	750; 1000
Nominal kuchlanish, V	400	400; 6000; 10000	400	230/400	230/400
Elektr tokining nominal chastotasi, Hz	50	50	50	50	50

Hozirgi kunda Sankt-Peterburg shahridagi **МНТО** (Межотраслевое научно-техническое объединение – Sohalararo ilmiy-texnik birlashma) **ИНСЭТ** (Иновации в Современные Энергетические Технологии – Zamonaviy energetik texnologiyalarga innovatsiya) [22] mini- va mikroGESlar hamda ularning gidroturbinalarini loyihalash, seriyali tayyorlash va montaj ishlarini bajaruvchi birlashmada 2÷22 m bosimda ishlaydigan quyidagi gidroagregatlarni ishlab chiqarilmoqda (8-jadval). Bundan tashqari, 2÷18 m bosimda ishlaydigan bir qancha parrakli gidroturbinalar bilan jihozlangan mikrogidroelektrostansiyalar kompleksi ham ishlab chiqarilmoqda (9-jadval).

9-jadval

### Parrakli gidroturbinalar bilan jihozlangan mikroGESlar

Parametrlari	MikroGES va gidroagregat turlari					
	10 Пр	15 Пр	50 Пр	100 Пр		
Quvvat, kW	0,6÷4,0	2,2÷10,0	3,5÷15,0	10,0÷30,0	10,0÷50,0	40,0÷100,0
Bosim, m	2,0÷4,5	4,0÷10,0	4,5÷12,0	2,5÷6,0	4,0÷10,0	6,0÷18,0
Suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	0,07÷0,14	0,10÷0,21	0,10÷0,30	0,30÷0,80	0,40÷0,9	0,50÷1,20
Turbina rotorining aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	1000	1500	1500	600	750	1000
Nominal kuchlanish, V	230		400	230, 400		230, 400



36-rasm. Parrakli turbina rotorining yig'ilgan holatdagi ko'rinishi.

36-rasmda parrakli turbina rotorining yig'ilgan holatdagi ko'rinishi, 37-rasmda esa to'g'ri o'qli konussimon (*a*) va tirsaksimon (*b*) so'rib ketish quvurli parrakli gidroagregatlarning GES binosida joylashishi ko'rsatilgan.




*a)*



*b)*

37-rasm. To'g'ri o'qli konussimon (*a*) va tirsaksimon (*b*) so'rib ketish quvurli parrakli gidroagregatlar.

Ma'lumki, turbinalar turini tanlash uchun ularning yig'ma grafiklari shakllantiriladi. Yig'ma grafiklar maydonida berilgan bosim, suv sarfi va quvvatga nisbatan gidroturbinalarning turlari joylashtiriladi. 38-rasmda **МИТО ИНСЭТ** birlashmasi tomonidan kichik quvvatli turbinalar hamda mikroGESlarni tanlash uchun tayyorlangan diagramma keltirilgan. Yig'ma grafikning eng kichik bosim va suv sarflarida parrakli gidroturbinalar va parrakli turbinali kichik GESlar joylashgan. Ularning quvvati 1 kW dan 1 000÷1 200 kW oraliq'ida joylashgan (38-rasm). Shunisi diqqatga sazovorki, ushbu gidroturbinalar uchun boshlang'ich bosim 1,8 m dan boshlanib 30 m da tugaydi (38-rasm). Bunday gidroturbinali agregatlar, ayniqsa, irrigatsiya tizimlaridagi bosimi kichik kanallarga o'rnatish uchun juda qulay.



38-rasm. Kichik quvvatli turbinalar hamda mikroGESlarni tanlash diagrammasi.

### 5.3. Diagonal turbinalar

Diagonal turbina parrakli turbina bo'lib, parraklarining o'qi rotor o'qiga perpendikular joylashmasdan, balki  $30^\circ$ ,  $45^\circ$ ,  $60^\circ$  burchak ostida joylashadi. Parraklarning ko'rsatilgan burchaklar ostida joylashishi, spiral kamera bo'ylab harakatlanayotgan suvning traektoriyasi, so'rib ketish

quvuriga ravon oqib o'tishini va gidravlik qarshiliklarning kamayishiga olib keladi. Diagonal turbinalar xuddi parrakli turbinalarga o'xshash, keng diapazonda tartibga solish imkoniyatiga ega bo'lib, barqaror bo'limgan suv sarflarida hamda o'zgaruvchan elektr yuklamasida ham ishlashga moslashgan.

Hozirgi kunda **МНТО ИНСЭТ** birlashmasida quyidagi xarakteristikalar bilan ishlaydigan 20 ПрД diagonal turbinasi ishlab chiqarilmoqda [22] (10-jadval va 39-rasm).

10-jadval


#### 20 ПрД diagonal turbinaning xarakteristikalari

Parametrlari	MikroGES 20 ПрД
Quvvat, kW	10 ÷ 20
Bosim, m	8÷18
Suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	0,08÷0,17
Turbina rotorining aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	1500
Nominal kuchlanish, V	230, 400
Elektr tokining nominal chastotasi, Hz	50

a)



b)



39-rasm. 20 ПрД parrakli diagonal turbinaning ishchi holatidagi ko'rinishi (a) o'rnatilish sxemasi va (b).

38-rasmdagi turbinalar va mikroGESlarni tanlash diagrammasida, 2011 йил парракли диагонал турбиналар билан жиҳозланган микроGESлarning ишлеш диапазони quyidagicha: quvvati – 4,8 kW dan 120 kW гача; сув сарғи – 50 l/s dan 600 l/s гача; босими – 6 м dan 52 м гача о‘згариб турishini ko‘rish mumkin.

## 5.4. Radial-o‘qiy (Frensis) turbinasi

Radial-o‘qiy turbinalar иш г‘ildiragiga ichki va tashqi сув узатувчи бoshqa bir qancha турбиналarga qaraganda ilgariroq ишлаб chiqilgan edi. 1847–1849-yillarda amerikalik gidrotexnik Frensis tashqi сув узатувчи турбинанing konstruksiyasini yaxshiladi. Uni boshqa olimlar tomonidan yanada takomillashtirilishi natijasida сув oqimini иш г‘ildiragi ichida burish imkonini beradigan radial-o‘qiy турбинанing yaratilishiga olib keldi.

**МХТО ИИСЭТ** birlashmasida kichik GESlar uchun bir qancha турдаги radial-o‘qiy турбинанing 11-jadvalda keltirilgan turlari yaratilgan [22].

11-jadval

Radial-o‘qiy turbinali gidroagregatlar

Parametrlari	Gidroagregat turlari			
Quvvat, kW	950 гача	550	3300	5600
Bosim, m	30÷100	25÷55	70÷120	100÷160
Suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	0,4÷1,25	0,4÷1,3	0,6÷3,2	1,5÷4,0
Turbina rotorining aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	1000; 1500	1000	600; 750; 1000	750; 1000
Nominal kuchlanish, V	400; 6000	400; 6000	6000; 10000	6000; 10000
Elektr tokining nominal chastotasi, Hz	50	50	50	50

Radial-o‘qiy турбиналarning босимли quvurida гидравлик зарб hosil bo‘lish ehtimoli bor. Generatorda halokat yuz bergenida yoki yuklama birdan tushib ketganda yo‘naltiruvchi парраклар сув сарфини камайтиради va hosil bo‘lgan гидравлик зарб natijasida quvur yorilib ketishi mumkin. Falokatlarni yo‘qotish uchun radial-o‘qiy турбиналар босим о‘згариб тургanda спирал камерадан suvni tashlab yuboruvchi, saqlovchi salt tashlagichlar bilan ta’minlanadi.



a)



b)


40-rasm. Vertikal (a) va gorizontal (b) o'rnatiladigan radial-o'qiy turbinalar.

Yuqori bosimda ishlaydigan radial-o'qiy turbinalarda ish g'ildiragi parraklariga urilmay oqib o'tadigan suv miqdorini kamaytirish muhim ahamiyatgan ega. Buning uchun bir-biriga ulanadigan qismlar katta aniqlikda tayyorlanadi va bosim isrofini kamaytiruvchi maxsus tijinlar bilan jihozlanadi.


Radial-o'qiy turbinalarni ishlab chiqarishda ularni uzoq vaqt va ishonchli ishlashini ta'minlovchi, yemirilishga chidamli maxsus po'lat materiallardan foydalaniladi.

Radial-o'qiy turbinali gidroagregatlar, turbinalar va mikro GEslarni tanlash diagrammasida (38-rasm)  $24 \div 250$  m li bosimlari,  $75 \div 5000$  kW quvvatlari hamda  $300 \div 4000$  l/s suv sarfi oraliqlarida ishlashi ko'rsatilgan.

Radial-o'qiy turbinalar vertikal va gorizontal holatlarda o'rnatishi mumkin. 40-rasmida **MHTO ИНСЭТ** birlashmasida tayyorlangan hamda vertikal va gorizontal o'rnatiladigan radial-o'q turbinalar ko'rsatilgan. Radial-o'qiy turbinalar asosan konussimon so'rib ketish quvurlari bilan jihozlanadi. 41- va 42-rasmlarda konussimon so'rib ketish quvurlari bilan jihozlangan, gorizontal (41a va 42-rasmlar) va vertikal (41b-rasm) o'rnatilgan radial-o'qiy turbinalar ko'rsatilgan [23].



a)



b)

#### 41-rasm. Gorizontal va vertikal o'rnatilgan radial-o'qiy turbinalar:

a — gorizontal o'rnatilgan; b — vertikal o'rnatilgan;  $L_{\text{el}}$  — zatvorning uzunligi;  $L_r$  — turbinaning uzunligi;  $L_3$  — pastki kamera yon devoridan turbina o'qigacha bo'lgan masofa;  $L_4$  — turbina o'qidan pastki kameradan chiqishgacha bo'lgan masofa;  $D_1 = 1,8 D_2$  — konussimon so'rib ketish quvurining chiqish diametri;  $D_1$  — turbina ish g'ildiragi diametri;  $h_{\text{p.k.}}$  — pastki kamera balandligi;  $h_{\text{el}}$  — turbina o'rnatilgan blokning balandligi;  $H_r$  — so'rib ketish balandligi;  $h_r$  — kamera tubidan so'rib ketish quvuri chiqishgacha bo'lgan masofa.



42-rasm. Gorizontal radial-o'qiy turbinalar o'rnatilgan kichik GES binosining ko'rinishi.

## 5.5. Aktiv-cho'michli turbinalar (Pelton turbinasi)

Aktiv-cho'michli turbinalar sekin yuruvchi turbinalar sinfiga mansub bo'lib, uning ishchi g'ildiragi, pastgi bef sathidagi erkin havo bo'shlig'ida joylashadi. Faqatgina kinetik energiyaga ega bo'lgan suv oqimi erkin holatda, atmosfera bosimi ostida ishchi g'ildirakka kelib uriladi. Shuning uchun ba'zibir vaqtarda aktiv turbinalarni erkin oqimli turbinalar deb ham atashadi. Bir vaqtning o'zida faqatgina bir necha cho'michlargagina suv oqimi kelib urilishi mumkin.

Takomillashtirilgan cho'michli turbinalar – AQShning oltin qazib olish sanoatida qo'llaniladigan juda sodda konstruksiyadagi turbinalar amerikalik muhandis Pelton tomonidan takomillashtirilgandan so'ng 1884-yilda ishlab chiqilgan [20].

Yirik cho'michli turbinalar asosan yuqori –  $40 \div 2000$  m bosimlarda qo'llaniladi. **MHTO ИХСЭТ** birlashmasi mikro va kichik GESlarda foydalanish mumkin bo'lgan quyidagi ko'rsatkichli turbinalar va mikroGESlarni ishlab chiqaradi. Kichik quvvatli turbinalar va mikroGESlarni tanlash diagrammasi 38-rasmida, 12 va 13-jadvallarda cho'mich turbinali gidroagregatlar va mikrogidroagregatlarning asosiy parametrlari keltirilgan [22]. Suv oqimi kelib uriladigan cho'michlar sonini ko'paytirib, quvvatni oshirish uchun ikki karrali Banki turbinalari ishlab chiqilgan.


**Cho'mich turbinali gidroagregatlar**

Parametrlari	Gidroagregat turlari	
	ГА-5	ГА-10
Quvvat, kW	145÷620	290÷3300
Bosim, m	150÷250	200÷450
Suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	0,17÷0,32	0,19÷0,90
Turbina rotorining aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	500; 600	600; 750; 1000
Nominal kuchlanish, V	400; 6000	400; 6000; 10000
Elektr tokining nominal chastotasi, Hz	50	50

**Cho'mich turbinali mikrogidroelektrostansiyalar**

Parametrlari	MikroGES turlari	
	MikroGES 100K	MikroGES 200K
Quvvat, kW	100 gacha	180 gacha
Bosim, m		40÷250
Suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	0,015÷0,060	0,025÷0,100
Turbina rotorining aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>		750; 1000; 1500
Nominal kuchlanish, V		230, 400
Elektr tokining nominal chastotasi, Hz		50

Cho'michli turbina tarkibiga valga o'rnatilgan ish g'ildiragi, turbinaga kelayotgan suv miqdorini tartibga soluvchi soplo turidagi yo'naltiruvchi moslama va kojux (turbina qismlarini o'rab turgan metall qoplama)lar kiradi (43-rasm) [21]. Cho'michli turbinaning ish g'ildiragi doira shaklidagi metall disk va unga doira bo'ylab o'rnatilgan cho'michlardan iborat (44-rasm).



43-rasm. Cho'michli turbinaning yo'naltiruvchi moslamasi (a) hamda cho'michga suvning urilishi va tezlikning bo'linish (b) sxemasi.



a)



b)

44-rasm. Osilgan (a) va yotqizilgan (b) cho'michli ish g'ildiraklari.


Bosimli quvur GES binosiga kiradi va uning oxiri oqimni turbina ish g'ildiragi cho'michlariga yo'naltiruvchi soplo bilan tugaydi. Soplidan katta tezlikda chiqqan suv oqimi cho'michning botiq sirtida dumalab harakatlanadi va o'zining harakat yo'nalishini teskari tomonga o'zgartiradi. Cho'michdan qaytgan oqimning tezligi korpusga nisbatan  $V=0$  m/s bo'lsa, turbinaning foydali ish koefitsiyenti maksimal miqdorga erishadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maksimal foydali ish koefitsiyentiga erishish uchun cho'michli turbinaning aylanma harakati tezligi oqimning yarim tezligi miqdoriga teng bo'lishi kerak (43b-rasm).

Turbinaning soplosi bosim quvuridan kelayotgan suv miqdorini tartibga solish uchun xizmat qiladi. Soplo ichida harakatlanayotgan igna esa suv chiqayotgan kanalning kesimini o'zgartirish orqali turbina ish g'ildiragiga kelayotgan suv sarfini o'zgartiradi. Ishlatib bo'lingan suv pastki befga olib ketiladi. Bosim isrofini kamaytirish uchun turbina va uning soplosi iloji boricha oqim sathiga nisbatan pastda joylashishi kerak.


Ish g'ildiragi cho'michlarga suv oqimi zarbsiz kirishi uchun ular uchli qirra bilan bo'lingan ikkita, juft cho'michlar shaklida tayyorланади. Suv oqimi cho'michlardan oqib o'tib, o'zining yo'nalishini  $180^\circ$  burchak ostida o'zgartiradi. Natijada cho'michlarda kuchlanish hosil bo'lib, ish g'ildiragi aylanma harakat qila boshlaydi. Odatda, 14÷60 dona cho'michli ish g'ildiraklari tayyorланади (45-rasm).

Cho'michli turbinalarning aylanishlar soni va quvvatini oshirish uchun ish g'ildiragining diametri bo'y lab 2, 3, 4 va hattoki 5 va 6 donadan ham soplolar o'rnatilishi mumkin. Soplolar ish g'ildiragi diametri bo'y lab teng taqsimланади. Ammo soplolar soni oshishi bilan turbinaning foydali ish

a)



b)



45-rasm. Ikki soploli cho'michli turbinaning sxematik ko'rinishi (a)  
va o'rnatilgan holatii (b).

koeffitsiyenti pasayib ketishi mumkin. Tajribalar natijasida, soplolar soni 4 donadan oshmasligi tavsiya qilinadi. 45a-rasmda ikki soploli cho'michli turbinaning sxemasi ko'rsatilgan.

Cho'michli turbinalarning foydali ish koeffitsiyenti juda yuqori bo'lib,  $0,88 \div 0,94$  ga teng. Ularni gorizontal va vertikal holatlarda o'rnatilishi mumkin. Odatda, bir necha soploli ish g'ildiraklari gorizontal holatda o'rnatiladi.


46-rasmda vertikal o'rnatilgan cho'michli ish g'ildirakli kichik GES mashina zalining ko'rinishi keltirilgan.

Ma'lumki, soplolar sonini ko'paytirish orqali cho'michli ish g'ildiragining aylanishlar soni va quvvatini oshirish mumkin. Ammo soplordan uzatilayotgan suv faqat bir marta bir necha cho'michga urilishi mumkin. Uzatilayotgan suv energiyasidan bir necha marta foydalanish ustida olib borilgan tajribalar natijasida Banki turbinasi yaratildi.



**46-rasm. Vertikal o'rnatilgan cho'michli ish g'ildirakli kichik GES mashina zalining ko'rinishi.**

Banki turbinasida ma'lum masofaga joylashtirilgan ikki dona aylana shaklidagi gardishlarga SUV energiyasi quvvatini maksimall qabul qiluvchi shaklga ega bo'lgan parraklar o'rnatilgan.



**47-rasm. Ikki karrali Banki turbinasi:**

1 – SUV olib keluvchi quvur; 2 – konfuzor-suv yig'uvchi; 3 – SUV miqdorini tartibga soluvchi zavtor; 4 – zatvorni harakatga keltiruvchi; 5 – olib ketuvchi kanal; 6 – ish g'ildiragi.

Konfuzordan uzatilayotgan suv ish g'ildiragining yuqorida joylashgan parraklariga uzatiladi. Yuqoridagi parraklarga urilib ularni harakatga keltirgan oqim pastga harakatlanib, o'z og'irlilik kuchi bilan pastdagi ish g'ildiragi parraklariga urilib ularni yana – ikkinchi marta harakatga keltiradi. Shunday qilib, bir marta uzatilgan suv oqimi turbina ish g'ildiragiga ikki marta ta'sir qilib uni harakatga keltiradi. 47-rasmida ikki karrali Banki turbinasining ishlash sxemasi ko'rsatilgan.

## **5.6. Kichik GESlar uchun tayyorlanadigan gidroagregatlar hamda mikroGESlarning narxlari**

Har qanday yangi mashina va mexanizmlar, texnologiyalar, usullar juda qimmat narxlanadi. Chunki birinchi marta ishlab chiqariladigan mashina va mexanizmlarning qismlarini tayyorlash uchun yangi murakkab qoliplar va boshqalar zarur bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'rnatiladigan energetik qurilmalarning narxi juda baland. Narxning yuqoriligi, yangi mashina va mexanizmlar, texnologiyalar va usullarning hayotga tadbiq qilinishini sekinlashtirdi. Quyida **MHTO ИНСЭТ** birlashmasida kichik GESlar uchun tayyorlanayotgan gidroagregatlarning hamda mikroGESlarning narxlarini ko'rib chiqamiz (01.03.2012-yil holatiga, Rossiya rublida) [22].

**1. Kichik GESlar uchun gidroagregatlarning narxi** (14-jadval). Jadvalda parrakli, radial-o'qiy va cho'michli gidroagregatlarning suv sarfi, bosimi va quvvatiga nisbatan narxlari keltirilgan.

14-jadval

**Kichik GESlar uchun gidroagregatlarning narxlari, ming rublda**

O'zgarish chegaralari			Agregat turiga nisbatan, 1 kW o'rnatilgan quvvatning narxi, ming rublda			Eslatma
quvvatlar, kW	bosimlar, m	suv sarflari, m <sup>3</sup> /s	parrakli	radial-o'qiy	cho'-michli	
100 gacha	2,5÷150	0,1÷5,5	70,0÷40,0	–	36,0	–
200÷500	7,5÷400	0,17÷7,0	36,0÷19,0	27,0÷14,5	27÷14,5	–
600÷1000	10÷450	0,3÷8,5	18,0÷15,0	14,0÷10,0	14,0÷9,0	–
1000÷3000	12÷450	0,9÷10,0	15,0÷12,0	9,0÷7,0	9,0	1600 kW gacha bo'lgan parrakli agregatlar uchun

14-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish quvvati kichik bo'lgan gidroagregatlar eng qimmat agregatlar hisoblanadi. Masalan, 100 kW gacha bo'lgan parrakli agregatlar  $40 \div 70$  ming rublni, cho'michli agregatlar esa  $36$  ming rublni tashkil qiladi.  $1000 \div 3000$  kW gacha bo'lgan agregatlar  $4 \div 5$  barobar arzon narxda baholangan. Masalan, parrakli agregatlar –  $4,7 \div 3,3$  marta; radial-o'qiy agregatlar –  $3,0 \div 2,0$  marta; cho'michli agregatlar –  $4$  marta.

## 2. MikroGESlarning narxi (15-jadval).

*15-jadval*

### MikroGESning narxi, ming rublda

O'zgarish chegaralari			Agregat turi	MikroGES modeli
quvvatlar, kW	bosimlar, m	suv sarflari, m <sup>3</sup> /s	parrakli	
10 gacha	4–10	0,12–0,21	475	MikroГЭС-10Пр
15 gacha	6–12	0,12–0,303	525	MikroГЭС-15Пр
50 gacha	4–10	0,40–0,80	2500	MikroГЭС-50Пр

## **6-bob. SHAMOL ENERGIYASI**

### **6.1. Shamol energiyasi va undan foydalanish asoslari, nazariyasi va amaliyoti**

**Shamol energiyasi.** Insoniyat suv energiyasi va bug‘ dvigatellaridan ancha oldin shamol energiyasidan foydalanib kelgan. Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya, AQSh va boshqa mamlakatlarda shamol energiyasi juda katta miqyosda, sanoat va qishloq xo‘jaligida qo‘llanib kelingan. Shamol energiyasidan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan hozirgi ishlar alohida katta quvvatli shamol generatorlarini yaratish va ularning energiyasini ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulash va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir.

Havo massasining Yer atmosferasi atrofida aylanishi ekspertlar tomonidan turlicha baholangan. Shamollarning yillik nazariy zahirasi Yer yuzidagi barcha energiya zahiralaridan 100 marta ortiq bo‘lib,  $3300 \times 10^{12}$  kW·soatni tashkil qiladi. Ammo bu energiyaning faqatgina 10–12% dan foydalanish mumkin. Masalan, 1987-yilda Yer yuzidagi barcha shamol qurilmalari tomonidan  $10 \times 10^{12}$  kW·soat energiya ishlab chiqarilgan, ya’ni yillik zahiraning atigi 0,3% i dan foydalanilgan.

Shamol – bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o‘zgarib turishi natijasida havo massasining harakatidir.

Iqtisodiy jihatdan joydagi shamolning tezligi 5 m/s dan kam bo‘lmasa, shamol generatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shamol elektrogeneratorlari an'anaviy generatorlardan 2–4 barobar qimmatdir. Ammo shamol energiyasi doimiy bo‘lgan ba’zi bir regionlarda u muhim energiya manbalaridan hisoblanadi.

Odatda, shamol energiyasi shamolga perpendikular joylashgan ma’lum maydon ta’siri orqali aniqlanadi ya’ni [19,23, 29].

$$N_{\text{sham. oqimi}} = 0,0049 \times q \times V \times F.$$

Bu yerda:  $q$  – havoning zichligi (temperatura va atmosfera bosimiga nisbatan),  $\text{kg/m}^3$ ;  
 $V$  – havo oqimining tezligi,  $\text{m/s}$ ;  
 $F$  – maydon yuzasi,  $\text{m}^2$ .

Shamol energetik qurilmasi uzatayotgan energiya miqdori havo oqimi hosil qiladigan energiya miqdoridan tubdan farq qiladi. Chunki havo oqimi energiyasining bir qismi shamol g'ildiragi parraklarida, reduktor va generatorlarda isrof bo'ladi. Isrof bo'lган energiya miqdori shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti bilan hisobga olinadi. Shamolga perpendikular joylashgan maydon yuzasini shamol g'ildiragi diametri bilan belgilab, shamol energetik qurilmasining quvvatini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$N_{\text{sham.ener.quril.}} = 0,00386 \times q \times V \times D^2 \times \xi_{\text{par.}} \times \eta_{\text{red.}} \times \eta_{\text{gen.}}$$

Bu yerda:  $D$  – ish g'ildiragi diametri,  $\text{m}$ ;

$\eta_{\text{red.}}$  va  $\eta_{\text{gen.}}$  – reduktor va generatorning foydali ish koeffitsiyentlari;

$\xi_{\text{par.}}$  – parraklarda isrof bo'lган havo oqimi energiyasi.


Hisoblarga ko'ra, parrakli shamol dvigatellarining shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti 48% gacha bo'lishi mumkin, shamol qurilmalarining umumiy foydali ish koeffitsiyenti undan ham kichikroq bo'ladi.

Shamolga perpendikular bo'lib, asosan, shamol qurilmalarinig parraklari joylashadi. Shamol qurilmasi quvvatini parraklar soni emas, balki ish g'ildiragi diametri belgilaydi [24]. 48-rasmda shamol qurilmasi ish g'ildiragining diametri bilan uning quvvati orasidagi bog'lanish grafigi ko'rsatilgan.

Shamol aggregatining quvvati shamol tezligiga to'g'ri, ish g'ildiragi parraklari soniga teskari proporsionaldir:


$$N_{\text{sham.ener.quril.}} = f\left(\frac{V}{n}\right).$$

Havo oqimi hosil qiladigan mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirish shamol elektrostansiyalari yordamida amalga oshiriladi. Bir necha shamol qurilmalarining yig'indisi shamol elektrostansiyasini tashkil qiladi. Shamol qurilmalarining asosiy ishchi qismi shamol g'ildiragi hisoblanadi.



48-rasm. Shamol qurilmasi ish g'ildiragining diametri bilan uning quvvati orasidagi bog'lanish grafigi.

Shamol g'ildiraklarining qanotli, karuselli va barabanli turlari mavjud. Shamol elektrostansiyalarida asosan eng samarali bo'lgan qanotli shamol g'ildiraklari qo'llaniladi (49-rasm).



49-rasm. Qanotli shamol g'ildiraklarinig ko'rinishi:  
a – ikki g'ildirakli; b – uch g'ildirakli; d – to'rt g'ildirakli.

Shuni esda tutish lozimki, shamol g'ildiragi tomonidan qabul qilinganayotgan shamol oqimi shamol g'ildiragining diametri bilan aniqlanadi, undagi parraklar soni hech qanday ahamiyatga ega emas. Hozirgi kunda ish g'ildiragi diametri  $1,0 \div 64$  m bo'lgan shamol qurilmalari mavjud.

Ko‘pgina shamol generatorlari 3–4 m/s dan yuqori tezlikdagi shamol yordamida ishlaydi. Shamol generatorlari 8–25 m/s tezlikda esadigan shamol yordamida maksimal quvvatga ega bo‘ladi. Odatda, shamol generatorlarining maksimal ishlash tezligi 25–30 m/s ni tashkil qiladi.

Shamol energetikasi ekologik toza energiya manbayidir. Ammo shamol elektrostansiyalari uchun juda katta hududlar zarur (shamol energetik qurilmalarining bir-biridan uzoqda joylashishi va ular orasidagi masofa ish g‘ildiragi diametrining 6–18 barobariga teng bo‘lishi kerak). Masalan, ish g‘ildiragi  $D=100$  m bo‘lgan shamol energetik qurilmasi uchun  $5-7 \text{ km}^2$  hudud kerak. Butun boshli shamol elektrostansiyasi uchun esa o‘nlab  $\text{km}^2$  hudud zarur. Boshqa bir noqulay tarafi – ish g‘ildiragi shovqin chiqarib va havoni tebratib ishlashi natijasida tele- va radioeshitirishlarga xalaqit beriladi.

Shamol energiyasidan foydalanish bo‘yicha Germaniya birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Bu mamlakatda shamol energiyasini ishlab chiqarish yiliga 500–1500 MW ga ko‘paymoqda, hozirgi vaqtida ishlab chiqariladigan energiya miqdori 2 mln. kW/soatdan oshib ketdi.

## 6.2. Shamol energiyasi kadastro

Ma’lum vaqt oralig‘i (kun, oy, yil) bilan bog‘liq shamol energetikasi hisoblarini amalga oshirish uchun shamol energiyasi kadastro to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish lozim.

Shamol energiyasi kadastro shamolning miqdor xarakteristikalarini bo‘lib, ular asosida shamol agregati ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan energiya va uning ishlash davriyligi to‘g‘risida ma’lumot olish imkonini beradi.

Shamol energiyasi kadastriga shamolning quyidagi xarakteristikalarini kiradi.

1. Uzoq vaqt oralig‘ida shamolning o‘rtacha tezligi.
2. Shamol o‘rtacha tezligining takrorlanishi.
3. Shamol tezligini kunlik va yillik siljish xarakteristikalarini.
4. Shamolli va shamolsiz davrlarning davomiyligi.
5. Bofort shkalasi bo‘yicha shamolning tezlik oraliqlari hamda Yerdagi predmetlarga shamolning ta’siriga mos bo‘lgan o‘rtacha oylik va yillik shamol tezligi.
6. Shamolning kuchayishidagi maksimall tezligi.

- Shamolning yo'naliши («shamol guli»).
- Shamolning turbulentligи (havo oqimining ichki strukturasi).
- Shamolning kuchayishi, susayishi va ko'tarilishi (birlik vaqt oralig'ida shamol tezligining o'zgarishi).
- Shamol oqimining zichligi (atmosfera bosimi, temperatura va namlikka bog'liqligi).

- Shamol oqimi tarkibining fazasi (bir fazali – toza shamol oqimi, ikki fazali – yomg'ir tomchilari aralash shamol oqimi, uch fazali – yomg'ir tomchilari va boshqa predmetlar aralashgan havo oqimi).

**Shamolning o'rtacha tezligi** ma'lum vaqt oralig'idagi teng vaqtlar ichida o'lchanan shamol oniy tezliklarining o'rta arifmetik miqdori sifatida aniqlanadi, ya'ni

$$V_{\text{o'rt.}} = \frac{\sum V_i}{n}$$

Bu yerda:  $V_{\text{o'rt.}}$  – shamolning o'rtacha tezligi, m/s;

$V_{\text{ony}}$  – shamolning oniy tezligi miqdorlari, m/s;

$n$  – o'lchanan oniy tezliklarning soni.

Vaqtning uzoq davri (oy, yil) uchun shamolning tezligi to'g'risidagi ma'lumotlar joylardagi meteostansiyalarining kuzatuvlari asosida olinadi. Bir kunda bir necha bor o'lchanan shamolning tezligiga asosan o'rtacha bir kunlik, o'rtacha oylik va ko'p yillik davr uchun shamolning o'rtacha yillik tezliklari jadvallari tuziladi.

Yer yuzasi va (okean, dengiz va daryolar) suv yuzasidagi shamolning tezligini aniqlash uchun odatda Bofort shkalasidan foydalilanadi [25].

16-jadval

#### Shamol tezligini aniqlash Bofort shkalasi

Bofort shkalasi (ball)	Ballga mos shamolning holati	Shamolning tezligi:		Yerdagi predmetlarga shamolning ta'siri
		m/s	km/soat	
0	Shamolsiz	0,0÷0,5	0,0÷1,8	Tutun vertikal ko'tariladi. Daraxt barglari qimirlamaydi.
1	Sokin shamol	0,6÷1,7	2,2÷6,4	Tutun vertikal ko'tarilmaydi. Daraxt barglari qimirlamaydi.
2	Yengil shamol	1,8÷3,3	6,5÷11,9	Tutun shamol esayotgan tarafga qarab egiladi. Daraxt barglari shitirlaydi.

3	Kuchsiz shamol	$3,4 \div 5,2$	$12,2 \div 18,7$	Daraxt barglari va bayroqlar tinimsiz tebranib turadi.
4	O'rtacha shamol	$5,3 \div 7,4$	$19 \div 26,6$	Daraxt shoxlari tebranadi. Yerdan chang va qog'oz bo'laklari ko'tariladi.
5	Salqin shamol	$7,5 \div 9,8$	$27 \div 35,2$	Katta bayroqlar tortqilanadi. Daraxtlar tebranadi. Quloq g'uvillaydi. Qo'l shamol tezligini sezadi.
6	Kuchli shamol	$9,9 \div 12,4$	$35,6 \div 44,6$	Daraxt shoxlari kuchli tebranadi. Uylar va qimirlamaydigan narsalar yonida guvillash tovushlari eshitiladi. Telefon simlari tovush chiqarib g'uvullaydi.
7	Qattiq shamol	$12,5 \div 15,2$	$45 \div 54,7$	Uncha katta bo'lмаган daraxtlar tanasi tebranadi. Shamolga qarshi yurish qiyinlashadi.
8	Juda kuchli shamol	$15,3 \div 18,2$	$55 \div 65,5$	Katta daraxtlar tebranadi. Daraxt novdalari va shoxlari sinadi. Shamolga qarshi yurish juda qiyinlashadi, egilib yurishga to'g'ri keladi.
9	Dovul	$18,3 \div 21,5$	$65,9 \div 77,3$	Katta daraxtlar qayriladi, katta shoxlari sinadi. Narsalar joyidan siljiy boshlaydi. Uylar tomi shikastlanadi.
10	Kuchli dovul	$21,6 \div 25,1$	$77,7 \div 90,6$	Daraxtlar sina boshlaydi va tomiri bilan yulib olinadi. Tomlar yulib olib ko'chiriladi, vayronagarchilik yuz beradi.
11	Shiddatli dovul	$25,2 \div 29$	$90,7 \div 105$	Binolar kuchli vayron bo'ladi.
12	Bo'ron	> 29	> 105	Daraxtlar sina boshlaydi va tomiri bilan yulib olinadi. Tomlar yulib olib ko'chiriladi, vayronagarchilik yuz beradi. Binolar kuchli vayron bo'ladi.

16-jadvalda Bofort shkalasi keltirilgan. Bofort shkalasi bo'yicha shamolning taxminiy tezligi aniqlanadi.  $1 \div 9$  ballarda, shkala bo'yicha shamolning tezligi ( $m/s$ ), har bir ballni ikki karra ko'paytirish orqali aniqlanadi.

### 6.3. Shamol tezligini o'lchash usullari va asboblari

Shamolning asosiy energetik xarakteristikalaridan biri bo'lgan tezligini o'lchash uchun anemometr (Grekcha «anemometr» so'zi – «anemo» – shamol, «metr» – o'lchayman) asboblari qo'llaniladi. Shamol tezligini o'lchovchi asboblar ikki guruhga bo'linadi [26].


**1. Ko'rsatuvchi anemometrlar** – shamolning oniy tezligini ko'rsatuvchi asboblar.

**2. Anemometr integratorlar** – ma'lum vaqt oralig'ida shamolning o'rtacha tezligini beruvchi asboblar.

Hozirgacha ularning orasida ko'rsatuvchi anemometrlar – doskali (flugerli) anemometr (50 a-rasm), qo'lda ishlataladigan induksion anemometr (50 b-rasm) va anemorumbometr (50 d-rasm) hamda anemometr integratorlar – qo'lda ishlataladigan yarim sharli anemometrlardan ko'p foydalanilgan (50 e-rasm).

Hozirgi kunda ilm-fanning taraqqiyoti natijasida ishlatish qulay, o'lchamlari kichik va chiroyli dizayndagi anemometrlar yaratilib, ulardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Ishlash prinsipi bo'yicha bunday anemometrlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- pallali anemometrlar;
- parrakli anemometrlar;
- issiqlik anemometrlari;
- ultratovushli anemometrlar.



*50-rasm. Shamol tezligini o'lchovchi asboblar:*

*a – doskali (flugerli) anemometr: 1 – o'q; 2 – metall doska; 3 – sakkiz shtift (metall o'zakchali)li sektor; 4 – shtok; 5 – shamol yo'nalishini ko'rsatuvchi; 6 – tutqich.*

*b – qo'lda ishlataladigan induksion anemometr; d – shamolning tezligi va yo'nalishi datchiklari bloki – elektr energiyasida ishlaydigan anemorumbometr; e – qabul qiluvchi o'lchov asboblari; f – shamolning o'rtacha tezligini o'lchovchi yarim sharli qo'lda ishlataladigan anemometr.*

Quyida, mana shunday anemometrlarning bir nechasini qarab chiqamiz. Eng sodda konstruksiyali anemometrlardan biri 1846-yilda Arma observatoriyasi doktori Robinson tomonidan yaratilgan pallali anemometrlardir. Vertikal o‘q atrofida aylanadigan rotorga maxsus simlar orqali mahkamlangan yarim sferik shar shaklidagi pallalar yig‘indisi pallali anemometrlar deyiladi. Ushbu anemometrlar uch va to‘rt pallali bo‘lishi mumkin (51 a va b-rasmlar).


Konstruksiyasiga nisbatan shamol tezligi qo‘lda foydalaniladigan yoki yordamchi elektron induksiyali taxeometr asbobli anemometrlarda aniqlanadi. Berilgan vaqt ichida pallalarning aylanishlar soni va ularga mos masofa hisoblanib, hisoblangan masofani vaqtga bo‘lish yordamida shamolning tezligini aniqlash qo‘lda foydalaniladigan anemometr yordamida amalga oshiriladi (50 b-rasm). Elektron induksiyali taxeometr asbobli anemometrlar esa to‘g‘ridan to‘g‘ri shamol tezligini ko‘rsatadi (50d va e-rasmlar).

Anemometrlarning yana bir turi parrakli anemometrlardir (51 d-rasm). Ma‘lumki, shamolning yo‘nalishi o‘zgarishi bilan parraklarning o‘qi ham shu yo‘nalishga burilishi lozim. Bu vazifani parrakli anemometrlarda flugerlar amalga oshiradi (50 a-rasm). Yo‘nalishi o‘zgarmaydigan (masalan, shaxtalarda, binolarda va boshqalarda) shamollarning tezligini o‘lchashda o‘qi bir yo‘nalishga nisbatan qimirlamaydigan qilib mahkamlangan parrakli anemometrlar qo‘llaniladi [25].

Issiqlik anemometrlari bilan issiqlik yordamida qizzdiriladigan juda kichik diametrali volfram va nixrom materiallaridan tayyorlanadigan simning shamol tezligi natijasida sovushini o‘lhash natijasida shamolning tezligi aniqlanadi (52 a-rasm).



51-rasm. Uch (a) va to‘rt(b)pallali hamda parrakli (d) anemometrlari.



a)



b)




d)

52-rasm. Issiqlik (a), ko'p funksiyali sonli (b) va cho'ntak (d) anemometrlari.

Kichik o'lchamli, ko'p funksiyali sonli anemometrdan (52 b-rasm) yuqori aniqlikda shamolning tezligini, havoning temperaturasini, dengiz sathiga nisbatan balandlikni, joydagি atmosfera bosimini, namlikni hamda sovish ko'rsatgichini aniqlashda foydalilaniladi. Undagi barometr faqat hozirgi atmosfera bosiminining emas, balki o'tgan 3, 6, 12 va 24 saat oralig'ida bosimning o'zgarishini ham ko'rsatadi. Shamolning tezligini har sekundda o'lchab aniqlash mumkin.

52 d-rasmda parrakli cho'ntak shamol anemometri ko'rsatilgan. U parraklarning aylanishlar tezligiga asosan shamolning tezligini sonlarda ko'rsatadi.

To'g'ridan to'g'ri shamolning tezligini ko'rsatuvchi ultratovushli cho'ntak anemometrlar foydalanishga juda qulaydir. «Xplorer-1» (53 a-rasm) anemometri faqatgina shamolning kerakli vaqtidagi tezligini ko'rsatsa, «Xplorer-2» (53 b-rasm) anemometri shamolning zarur vaqtidagi tezligi yoki ma'lum vaqt oralig'idagi o'rtacha tezligini hamda havoning temperaturasini (hattoki, Sizning tanangizni haroratini ham) ko'rsatadi [25]. «Xplorer-3» (53 d-rasm) anemometri shamolning tezligidan tashqari uning yo'nalishini va havoning temperaturasini (hattoki, Sizning tanangizning haroratini ham) ham ko'rsatadi. Bundan tashqari, unga shamolning yo'nalishini aniq ko'rsatadigan elektron kompas ham o'rnatilgan.



**53-rasm. Cho'ntak anemometrlari:**  
a – «Xplorer-1»; b – «Xplorer-2»; d – «Xplorer-3».

#### 6.4. Shamol elektrostansiyalari

Ushbu cho'ntak anemometrlari batareyalar yordamida ishlab, ulardan qorong'u tunda ham foydalanish mumkin. Ularni boshqarish 1 dona knopka orqali amalga oshiriladi.

**Shamol elektrostansiyalari.** Bir necha shamol qurilmalarining yig'indisi shamol elektrostansiyasini tashkil qiladi. Quvvatiga nisbatan shamol elektrostansiyalarini 3 guruhg'a bo'lish mumkin.


**1. Kichik quvvatlari** –  $0,1 \div 1,0 \text{ kW} \cdot \text{soatgacha}$ , ularga asosan doimiy elektr toki ishlab beradigan shamol qurilmalari kiradi. Ular asosan akkumulator batareyalarini zaryadka qilishda qo'llaniladi.

**2. O'rtacha quvvatlari** –  $10 \div 100 \text{ kW} \cdot \text{soatgacha}$ , ular o'zgaruvchan tok ishlab chiqaradi.

**3. Yirik quvvatlari** –  $\geq 1000 \text{ kW} \cdot \text{soatgacha}$ , hozirgi vaqtida bunday shamol energetik qurilmalarining tajriba nusxalari sinab ko'rilmoxda.


Ma'lumki, shamol aggregatining quvvati, shamol tezligiga to'g'ri proporsional va ish g'ildiragi parraklari soniga esa teskari proporsionaldir.

Hozirgi kunda, seriyali ishlab chiqarilishi mumkun bo'lgan shamol aggregatlari ish (shamol) g'ildiragining aylanishlar soni quyidagilarga teng (ayl./min.): 3000; 1500; 1000; 250; 75; 30. Shamol tezligining oshishi bilan shamol qurilmasi ish g'ildiragining aylanishlar soni oshadi va mos holda shamol qurilmasining quvvati oshib boradi [24] (54-rasm).



54-rasm. Shamol qurilmasi ish g'ildiragi (rotori)ning aylanish tezligi bilan uning quvvati orasidagi bog'lanish grafigi.

Shamol qurilmasining yana bir muhim elementlaridan biri shamol minorasining balandligidir. Tajribalar asosida [24] shamol minorasi balandligining oshishi bilan shamol qurilmasi quvvatining ko'tarilib borishi aniqlangan (55-rasm).




55-rasm. Shamol minorasining balandligi bilan shamol qurilmasi quvvati orasidagi bog'lanish grafigi.

55-rasmdan ko'rinib turibdiki, Yer sathidan balandga ko'turilgan sari shamolning tezligi kuchayib, shamol energoqurilmalarining ishlab chiqarayotgan quvvati ham oshib boradi. Ammo shamol energoqurilmalarini ma'lum bir balandlikka o'rnatiladi. Shamol qurilmasi o'rnatilgan balandlikda esa shamolning tezligi bir xil bo'lmasdan, katta diapazonda o'zgarib turadi. Shuning uchun shamol energoqurilmalari to'liq quvvat bilan elektr energiyasi ishlab chiqara olmaydi.

56-rasmda bir xil balandlikka o'rnatilgan shamol qurilma (elektrostansiya)larining vaqt oralig'ida ishlab chiqaradigan energiyasi bir xil bo'lmasligi ko'rsatilgan.

Amerikaning «Altaeros Energies» va Kanadaning «Magenn Power» kompaniyalari tadqiqotlariga ko'ra, Yer sathidan 100 m va undan ortiq balandliklarda katta tezlikda doimiy kuchli shamol oqimlari esib turar ekan [26].

Yer sathidan  $100 \div 500$  m balandda doimiy katta tezlikda esib turadigan shamollar energiyasidan foydalanish uchun havo sharlariga shamol energoqurilmalarini o'rnatishni taklif qilishdi.



**56-rasm. Shamol elektrostansiyasining ishlash grafigi:**

a – shamolning tezligi; b – ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi miqdori.

Amerikaning «Altaeros Energies» kompaniyasi ishlab chiqqan havo shari gaz o'tkazmaydigan mustahkam materialdan tayyorlanib, geliy yoki vodorod gazlari bilan to'ldiriladi (57 *b*-rasm). Havo sharlari yer sathidan 500 m balandlikkacha o'rnatilishi mumkin. Havo shariga o'rnatilgan shamol energoqurilmalari ishlab chiqaradigan elektr energiyasi, metall troslarga bog'langan elektr simlari orqali yerga uzatiladi.

Kanadaning «Magenn Power» kompaniyasi ishlab chiqqan uchib turuvchi havo shari energetik qurilmalari ham geliy gazi bilan to'ldiriladi. Havo shari qurilmasi o'zining gorizontal o'qi atrofida aylanishi orqali elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Havo shari qurilmasining ma'lum balandlikdagi barqaror turishi Magnus effekti hisobiga amalga oshiriladi. Ishlab chiqarilgan energiya metall troslarga bog'langan elektr simlari orqali simlarni o'rab yig'uvchi chig'ir va transformatorlar o'rnatilgan maydonchaga uzatiladi. Kompaniya ishlab chiqaradigan ushbu konstruksiyadagi havo shari qurilmasi 200÷300 m balanlikka o'rnatilib, 90÷100 m/s tezlikda esadigan shamol bilan ishlashga mo'ljallangan (57 *a*-rasm).

Yuqorida keltirilgan havo sharli shamol energoqurilmalari ana'naviy shamol energoqurilmalariga qaraganda ikki marta ko'p va ikki marta arzon elektr energiyasi ishlab chiqaradi. 57-rasmida Amerikaning «Altaeros Energies» va Kanadaning «Magenn Power» kompaniyalari ishlab chiqqan, havo shariga o'rnatilgan shamol energoqurilmalarining ko'rinishi keltirilgan.



*a)*



*b)*

57-rasm. Havo shariga o'rnatilgan shamol energoqurilmalari:  
*a* – «Magenn Power» kompaniyasi; *b* – «Altaeros Energies» kompaniyasi.


**Shamol generatorlari** – shamolning kinetik energiyasini elektr energiyaga aylantirib beruvchi qurilma. Shamol generatorlarining ikki xil turi mavjud: **sanoat** va **uy** uchun (58- va 59-rasmlar). Sanoat uchun shamol generatorlari davlat yoki katta energetik korporatsiyalar tomonidan quriladi. Ushbu qurilmalar energiyasi bir joyga to'planadi va natijada shamol elektrostansiyalari vujudga keladi. Uning asosiy farqi – ishlashi uchun xomashyoning zarur emasligi va hech qanday chiqindi chiqmasligidir.

Uning asosiy talablaridan biri – yillik o'rtacha shamol tezligining yuqori bo'lishidir. Har bir sanoat energetik qurilmalarida o't o'chirish tizimi, shamol generatorining ishlashi haqida ma'lumot berib turuvchi telekommunikatsion tizim va chaqmoqdan himoya qilish tizimi mavjud. Zamonaviy shamol generatorlarining quvvati 6MW(6000 kW)gacha yetadi.

**Shamol generatorining turlari.** Shamol turbinalarining ikkita asosiy turi mavjud: vertikal va gorizontal aylanish o'qli. Vertikal o'qli turbinalar kichik tezlikdagi shamollarda ishlaydi, shuning uchun ular past samarali hisoblanadi. Shu sababli vertikal o'qli turbinalar juda kam qo'llaniladi. Asosan ular uy uchun o'rnatiladi. Uy uchun quriladigan shamol qurilmalarini qo'llash tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Odatda, uncha katta bo'limgan uy uchun 1 kW atrofidagi elektr energiyasini 9 m/s tezlikda esayotgan shamol energiyasidan olish mumkin.

Hozirgi kunda MCHJ «Dialog» tomonidan mamlakatimiz viloyatlarida 1–3 kW-soat quvvatli shamol qurilmalari o'rnatilib ishlatilmoqda.

**Ishlab chiqarilayotgan energiya miqdori va narxi.** AQSh shamol energetikasi uyushmasining ma'lumotiga ko'ra 2006-yilda Amerikada 17 543 kW elektr energiyasi ishlab chiqarilgan, umumiy narxi 56 082 850 dollarga, 1 kW elektr energiyasining narxi 3200 dollarga teng bo'lgan. Shu yili dunyo bo'yicha shamol elektrostansiyalari tomonidan 19 483 kW elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. 2020-yilga kelib AQShda shamol elektrostansiyalari tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi miqdori 50 ming MWga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bu miqdor mamlakatda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 3% ini tashkil qiladi, xolos.



58-rasm. Ana'naviy (a) va zamonaviy sanoat (b) shamol energetik qurilmalarining sxemasi:


1 – shamol dvigateli; 2 – ulash muftasi; 3 – tayanch podshipnigi; 4 – erkin aylanish muftasi; 5 – inersion akkumulator; 6 – sinxron generator.

Hozirgi kunda shamol elektrostansiyasini qurishga ketgan mablag' qoplangandan so'ng, 1 kW elektr energiyasining narxi  $0,10 \div 0,07$  dollarga teng bo'lgandagina shamol energetikasi samarali hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib Chorvoq suv omborining dam olish zonasida (Toshkent viloyatida) eng katta shamol energoqurilmasi o'rnatildi. Quvvati 750 kW·soat bo'lgan shamol energoqurilmasini o'rnatish Janubiy Koreyaning «Doojin Co. LTD» kompaniyasi yordamida olib borildi. Shamol energoqurilmasi maydonchasiga 40 m balandlikdagi minoraga shamol tezligini o'lchovchi anemometrlar va boshqa nazorat-o'lchov asboblari o'rnatilgan. Shamol energoqurilmasi bir yilda 12,3 million kW·soat elektr energiyasi ishlabchiqaradi, natijada 700 000 m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejaladi [27].



a)



b)

**59-rasm. Sanoatda ishlab chiqariladigan shamol energetik qurilmalarining joylashishi (a) va tuzilishi (b):**

a) joylashishi; b): 1 – fundament; 2 – kuch kontaktorlari va boshqaruv zanjirini o‘z ichiga olgan kuch shkafi; 3 – minora; 4 – chiqish narvon; 5 – aylantirish mexanizmi; 6 – gondola; 7 – elektr generatori; 8 – shamol yo’nalishini, shmol yo’nalishi va tezligini kuzatuvchi tizim (anemometr) 9 – to’xtatish tizimi; 10 – transmissiya; 11 – parraklar; 12 – parraklar joylashish burchagini o’zgartirish tizimi; 13 – rotor qalpog‘i.

«O‘zgidromet» institutining xabar berishicha, shamol energourilmasi o‘ratilgan hududda shamolning o‘rtacha tezligi 4,3 m/s ni, qish davrida esa  $6,6 \div 7,1$  m/s ni tashki qilar ekan. Shamolning ko‘rsatilgan tezliklari shamol energoqurilmasining barqaror ishlashini ta’minlaydi.

## **7-bob. QUYOSH ENERGIYASI**

### **7.1. Quyosh energiyasi va undan foydalanish asoslari, amaliyoti va kelajagi**

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon quyoshga sig'inib kelgan, uni xudo o'rnila ko'rganlar. Chunki u haqiqatan ham Yer yuzida hayot manbayidir. Qadimgi Misr fira'vnlaridan biri (Nefertitining yeri) Exnaton ismini qabul qilgan (Atonga – quyoshga sajda qiluvchi), ya'ni Exnaton – tabiiy termayadro reaktoriga sajda qilgan. Quyoshdag'i energiyani hosil bo'lishi – **termayadro reaksiyasi** tufaylidir. Quyosh nurlari – bu **vodorodning 4 dona** va **geliyning bir dona** atomining qo'shilganidir [19, 29].

Termayadro reaksiyasi quyoshning ichida temperatura  $t^{\circ}=20$  mln.  $^{\circ}\text{C}$  ga yetganda boshlanadi. Shuning uchun termayadro energiyasi yer yuzidagi barcha energetik resurslarning: ko'mir, neft, gaz; gidroenergiya; shamol va okeanlar energiyasining birinchi manbayi hisoblanadi.

Quyosh yer yuzida barcha energiya turlarining manbayi hisoblanadi. Quyosh har sekundda o'rtacha  $88 \times 10^{24}$  kaloriya issiqlik yoki  $368 \times 10^{12}$  TWt energiya tarqatadi. Ammo bu energiya miqdorining atigi  $2 \times 10^{-6}\%$  i, ya'ni  $180 \times 10^6$  TWt miqdorigina yer yuzasiga yetib keladi. Shu miqdor ham yer yuzidagi barcha doimiy energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalarning energiyasidan taxminan 5000 barobar ko'pdir.

### **7.2. Quyosh energiyasi kadastri**

Quyosh radiatsiyasi oqimi va tashiyotgan energiya yig'indisi to'g'risidagi ma'lumotlar quyosh kadastri hisoblanadi. Quyosh kadastri to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi ko'rsatkichlarga asosan yig'iladi:

- quyosh radiatsiyasining gorizontal tekislikka tushayotgan oylik va yillik yig'indilari;

- gorizontal tekislikka to‘g‘ri normal-urinma holatida tushayotgan quyosh nurlari;
- quyoshning nur sochish vaqtı.

Umuman quyosh radiatsiyasi oqimi va tushayotgan energiya yig‘indisi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni quyidagi usullar bilan olish mumkin:

- aniq geografik nuqtadagi ma’lumotlarni hisoblash yo‘li – analitik usul bilan;
- qisqa muddatda aniq geografik nuqtada, asbob va jihozlar bilan o‘lhash orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot olish bilan;
- qabul qilingan yagona usul bilan ko‘p yillik o‘lhashlar o‘tkazgan meteorologik stansiyalarining ma’lumotlari yig‘ilgan ma’lu motnomalardan ma’lumot olish bilan.

Quyosh energiyasidan foydalanishni hisoblashda, asosan, quyosh nurining  $1 \text{ m}^2$  maydonga berayotgan energiya miqdori hisobga olinadi. Koinotning atmosfera qatlamidan yuqori qismiga tushayotgan quyosh radiatsiyasining energiyasi  $1,395 \text{ kW/m}^2$  ni tashkil qiladi va bu miqdor **quyosh doimisi** deb ataladi. Ammo bu miqdor yer yuzasiga yetib kelguncha har xil qarshiliklarga uchraydi hamda yilning fasli va hisob qilinayotgan hududning kengligiga nisbatan uning miqdori o‘zgarib turadi. Masalan, Yer yuzasiga tushadigan quyosh nurlarining o‘rtacha intensivligi:


- Yevropa mamlakatlarida –  $2 \text{ kW} \cdot \text{soat}/\text{m}^2$ ;
- Tropik va Osiyo mamlakatlarida –  $6 \text{ kW} \cdot \text{soat}/\text{m}^2$ .

O‘zbekiston Respublikasi serquyosh mamlakatlardan hisoblanadi.


Bir yilda o‘rtacha [13]:

- 300 kun quyoshli kun hisoblanadi;
- $2980 \div 3130$  soat temperaturaning o‘rtacha miqdori  $+42^\circ\text{C}$  ni, kunning uzunligi 14–16 soatni tashkil qiladi (60-rasm);
- cho‘l rayonlarida temperatura  $+70^\circ\text{C}$  gacha ko‘tariladi;
- har bir  $\text{m}^2$  maydonda 1 yilda 1900–2000 kW gacha quyosh radiatsiyasi hosil bo‘lishi mumkin (61-rasm).

60-rasmda O‘zbekiston Respublikasida hududning kengligi va yilning fasliga nisbatan kunning yorug‘ vaqtı, 61-rasmda esa O‘rta Osiyo mamlakatlarida quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi ko‘rsatilgan. 61-rasmda O‘zbekiston Respublikasi hududining 16- va 21- kengliklarida kunning yorug‘lik davri 16–17 soatni tashkil qilishi ko‘rinib turibdi.



**60-rasm. O'zbekiston Respublikasida hududning kengligi va yilning fasliga nisbatan kunning yorug' vaqtisi.**



61-rasm. O'rta Osiyo mamlakatlarida quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi.

### **7.3. Quyosh energiyasini yig‘uvchi qurilmalar**

Quyosh energiyasidan issiqlik ishlab chiqarishda ham, elektr energiyasi ishlab chiqarishda ham foydalanish mumkin. Birinchi holatda yassi konsentratsiyalashgan quyosh kollektorlari qo'llaniladi. Ulardan issiqlik tashuvchi sifatida suv, havo yoki antifrizlar ishlatilishi mumkin. Ikkinci holatda esa yorug'lik oqimi energiyasi fotoelektr o'zgartirgichlarda bevosita elektr energiyasiga aylanadi yoki issiqlik elektrostanziyalarining an'anaviy sxemalari ishlatiladi.


Insonlar qadim zamonlardan quyoshning qudratini sezganlar va o'zlarini bir umr unga bog'liq ekanliklarini his qilganlar. Shuning uchun quyoshdan to'xtovsiz ko'proq foydalanishni o'ylaganlar. Avval quyosh nuridan qo'shimcha energiya olish – suvni va binolarni isitish, dengiz suvlarini tozalash va boshqa maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilganlar.

## 7.4. Quyosh energiyasidan issiqlik va elektr energiyasi olish usullari va qurilmalari

Hozirgi kunda dunyodagi barcha mamlakatlarda ekologik toza energiya hisoblangan quyosh energiyasidan foydalanishga harakat qilinmoqda. Quyosh nurlari energiyasi, issiqlik va elektr energiyasidan ishlab chiqarishda foydalanilmoqda.

Birinchi holatda yassi konsentratsiyalashgan quyosh kollektorlari qo'llanilsa, ikkinchi holatda yorug'lik oqimi energiyasi fotoelektr o'zgartirgichlar yordamida bevosita elektr energiyasiga aylantiriladi (yoki quyosh nuridan olingan issiqlik energiyasidan ana'naviy issiqlik elektr stansiyalaridagidek foydalaniladi).

Past temperaturali ( $100^{\circ}\text{C}$  gacha) issiqliknı quyosh energiyasi yordamida olish, hozircha ishlab chiqilgan texnologiyalar bo'yicha uncha murakkab emas va u yer yuzasining har xil nuqtalarida uzoq vaqt rivojlanish tarixiga ega. 62- va 63-rasmlarda quyosh nurlarini yig'uvchi qurilmalarning turlari ko'rsatilgan.



62-rasm. Quyosh nurlarini issiqlik energiyasiga aylantiruvchi moslamalar:  
a – ana'naviy geliostatlar; b – yassi geliostatlar; c – geliostatlardan kelayotgan quyosh energiyasini yig'ib quyosh pechiga yo'naltiruvchi moslama.

**Issiqlik ishlab chiqarish.** Quyosh energiyasidan issiqlik olish uncha qiyin jarayon emas. Nazariy jihatdan quyosh nurlarini yig'uvchi moslamalar yordamida  $5600^{\circ}\text{C}$  ga yaqin issiqlik olish mumkin. Dunyoda ikkita ulkan quyosh pechlari mavjud: O'zbekiston Respublikasi va Fransiyada. O'zbekistondagi (63-rasm) quyosh pechining temperaturasi  $t^{\circ}=4000-4500^{\circ}\text{C}$  ga teng, Fransiyada ishga tushirilgan quyosh pechining temperaturasi esa  $t^{\circ}=380-0^{\circ}\text{C}$  ga yetadi [4].



a)



b)




d)



e)

63-rasm. O'zbekiston Respublikasidagi quyosh pechi:

a – quyosh pechining yassi geliosatlari maydoni; b – geliosatlarning yaqindan ko'rinishi; d – geliosatlarga tushayotgan quyosh nurlarini yig'ib oluvchi geliosatlar minorasi (1) va quyosh pechi (2); e – quyosh pechining umumiy ko'rinishi.



64-rasm. Quyosh nuridan quvvat oladigan suv isitgich qurilmaning soddalashtirilgan sxemasi.

**Issiq oqim (suyuqlik yoki gaz holatidagi) hosil qilish.** Zamonaviy asboblar konstruksiyasining mukammallashtirilish quyosh nurlarini issiqlikka aylantirish samaradorligining oshirilishiga olib kelmoqda. Bu qurilmalarning asosiy sxemasi – suyuq yoki gaz holatidagi issiqlik qabul qiluvchi yassi quyosh kollektorlari qurilmasidan tashkil topgan (64-rasm). Bu sistema binolarni issiq suv bilan ta'minlash va isitishda qo'llaniladi.

Quyoshdan quvvat oladigan suv isitgich moslamalar quyosh kollektor orqali suv haroratini oshirish uchun quyosh nurlari energiyasidan foydalanadi. Shaffof qoplamali havo o'tkazmaydigan korpusli, qora rangga bo'yalgan, suv o'tkazgich naychalarga ega singdiruvchan metall plastina va korpusining orqa hamda yonbosh devorlarida issiqliknini yo'qotmaslik uchun izolatsiyalangan yassi quyosh kollektorlari keng tarqalgan.

64-rasmda izolatsiyalangan quvur – kollektorlarga uzatilgan suv quyosh nuri ostida  $100^{\circ}\text{C}$  gacha isitiladi va quvurlar orqali iste'molchiga – binolarni issiq suv bilan ta'minlash va isitishga uzatiladi. Binolarni isitishga uzatilgan suv sovigandan so'ng nasoslar yordamida (yoki o'z oqimi bilan) yana isitish kollektorlariga uzatiladi. Jarayon shu tarzda davom etadi. 17-jadvalda quyosh suv isitgichlarning taxminiy narxlarini keltirilgan.

**Elektr energiyasi ishlab chiqarish.** Quyosh energiyasidan ikki xil usulda elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin.


1. Ana'naviy usulda – suyuqlikni isitish va hosil bo'lgan bug'ni issiqlik turbinasiga uzatish orqali.
2. Fotoelektr usulida.

17-jadval

**Quyosh suv isitgichlarning taxminiy narxlari, AQSh dollarari**

Unumdorligi, l	Kollektoring maydoni, m <sup>2</sup>	Narxi, AQSh dollarida
100	1,5	1000
200	3,0	1350
300	4,5	1900
450	6,0	2400

**Ana'naviy usulda** quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish shemasi 65-rasmda berilgan. Quyosh energiyasini yig'ib oluvchi geliostatlar 1 ning energiyasi suvgaga to'ldirilgan bug' qozoni 2 ga yo'naltiriladi. Hosil bo'lgan bug' generator 4 ni harakatga keltiruvchi issiqlik turbinasi 3 ga uzatiladi. Turbinani harakatga keltirib ish bajargan bug' kondensator 5 ga – bug'ni suvgaga aylantiruvchi moslamaga uzatiladi. Kondensatordan chiqqan suyuqlik yana quyosh geliostatlariga uzatiladi va shu tariqa jarayon davom etadi.




65-rasm. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish sxemasi:

1 – geliostatlar; 2 – qozon; 3 – turbina; 4 – generator; 5 – kondensator  
(bug'ni suvgaga aylantiruvchi qurilma).


**Fotoelektr usulda elektr energiyasi ishlab chiqarish.** Ma'lumki, quyosh nurini elektromagnit to'lqinlari deb qarash mumkin. Kvani nazariyasiga asosan, elektromagnit to'lqinlarini nol massali elementar zarrachalar – fotonlar deb qaraladi. Quyosh energiyasini fotoelektrik energiyaga qayta aylantirish asosida 1887-yilda Gers tomonidan yaratilgan, yoruglik fotonlarining ba'zibir metallarning elektronlari bilan kirishuvi natijasida elektronlar ma'lum miqdordagi energiyaga ega bo'ladilar. Mana shu energiyadan foydalangan holda quyosh energiyasidan to'g'ridan to'g'ri elektr energiyasi olish mumkin. Bu jarayon fotoeffekt hodisasi deyladi.

Shunday qilib, fotoelektr yachevkalarida yorug'lik nurlanish energiyasi elektr energiyasiga aylantiriladi. Fotoelektr yachevkalarini tayyorlashda birinchi bo'lib mono-yoki polikristall kremniydan foydalilanilgan (66-rasm). Hozirgi kunda bu elementdan tayyorlanadigan yachevkalar butun dunyoda o'rnatilgan tizimlarning 80% ni tashkil etadi. Ularning foydali ish koefitsiyenti 11÷16% ni tashkil etadi.

Keyingi vaqtarda fotoelektr yachevkalar amorf kremniy, kadmiytellurid yoki mis-indiy-selendan yupqa plyonkalar shaklida tayyorlana boshladi. Ularning foydali ish koefitsiyenti qariyb 8% ni tashkil etadi, biroq mono-yoki polikristall kremniydan tayyorlanadigan fotoelektr yachevkalariga qaraganda tayyorlanishi arzonroqdir.



66-rasm. Kremniy plastinkalarini ishlab chiqarish jarayoni.



67-rasm. Quyosh batareyasidan elektr energiyasi olish sxemasi.

Hozirgi vaqtida fotoelektr yacheykalarining foydali ish koeffitsiyentini  $30\div60\%$  ga oshirish ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Buning uchun pylonkalarni  $4\div8$  marta ustma-ust o'rnatish zarur bo'ladi. Ushbu tadqiqotlar natijasida qurilma quvvati oshiriladi va ishlab chiqarish narxi keskin pasayadi. Fotoelektr tizimi doimiy elektr tokini ishlab chiqaradi va invertor yordamida doimiy elektr toki o'zgaruvchan tokka aylantiriladi (67-rasm).

## 7.5. Quyosh elektrostansiyalari

Bir necha quyosh qurilma (batareya)larini bir-biriga ulab quyosh elektrostansiyalarini tashkil qilish mumkin. Hozirgi kunda dunyoda juda ko'plab quyosh elektrostansiyalari qurilib ishga tushirilgan. 2.5-§ da dunyodagi eng katta quyosh elektrostansiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Mamlakatimizning Samarqand viloyatida Osiyo taraqqiyot bankining yordamida dunyoda eng yirik quyosh fotoelektrik stansiyasi qurilishi rejalashtirildi. Quyosh elektrostansiyasi 400 ga maydonga joylashib, uning quvvati 100 MW ni, yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish esa 200 mln. kW·soatni tashkil qiladi. Elektrostansiyaning

qurilishi 5 yil davom etib, 2019-yilning mart oyida ishga tushirilishi kutilmoqda [5].

«O'zbekenergo» DAK mutaxassislarining hisoblariga qaragan-da O'zbekiston Respublikasi hududi quyosh energiyasi bo'yicha juda katta imkoniyatlarga ega. Mamlakatdagi barcha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining 99% i ni quyosh energiyasi tashkil qilib, 50mlrd. tonna neft ekvivalentiga teng ekanligi aniqlandi. Hukumatning noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha olib borayotgan tadbirlari natijasida 2031-yilda mamlakatda iste'mol qilinayotgan elektr energiyasining 21% i qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi bilan qoplanadi.

Xalqaro hamjamiyatning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha tajribalari bilan tanishish uchun Hukumatimiz tomonidan ko'plab xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil qilinmoqda. «Qayta tiklanuvchi energiya manbalari Markaziy Osiyoda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hamda uzoqda joylashgan aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilovchi muhim omildir» mavzusida 2008-yil noyabr oyida o'tkazilgan halqaro anjuman ham ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy, ilmiy-tadqiqot, konstrukturlik va qaytalanuvchi energiya manbalariga o'rnatilgan energetik qurilmalar bilan tanishish imkonini berdi [58].


Hozirgi kunda quyosh energiyasidan foydalanish uchun juda katta investitsion mablag'lar kiritilmoqda. 2013-yilning noyabr oyida mamalakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan Toshkentda «Quyosh energetikasi texnologiyalarining istiqbollari va yo'nalishlari» mavzusida «Quyosh energiyasi bo'yicha Osiyo forumi»ning 6-yig'ilishi bo'lib o'tdi [28]. Ushbu yig'ilishda Prezidentimiz, oxirgi 5 yilda quyosh energiyasidan foydalanishga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori 520 mlrd. dollarni, shundan 2012-yilda 143 mlrd. dollarni tashkil qilganini, 2012-yilda quyosh energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarish 113 mlrd. kW·soatni, shundan fotoelektrik quyosh stansiyalari bilan 110 mlrd. kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqarilganini ta'kidlab o'tdilar [28, 53-bet].


## 7.6. Kosmik quyosh elektrostansiyalari

Hozirgi kunda quyosh radiatsiyasi zichligining kamligi, uning yilning fasliga va ob-havoga bog'liqligi tufayli quyosh energiyasidan katta miqdorda elektr energiyasi olish imkonи yo'q. Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun yerning sun'iy yo'ldoshi shaklidagi quyosh elektrostansiyalarini qurish lozim. Natijada ob-havoning qanday bo'lismiga qaramasdan, quyosh energiyasidan kunning 24 soatida foydalanish mumkin. Sun'iy yer yo'ldoshlariga o'rnatilgan quyosh elektrostansiyalari ishlab chiqaradigan elektr energiyasi, yerdagi iste'molchilarga ultraqisqa to'lqinlar (uzunligi 10 sm ga teng) kanali orqali uzatiladi. Uzatilgan to'lqinlar yerdagi qabul qilish antennalari yordamida qabul qilinadi va yerda sanoat chastotasi energiyasi (50 Hz)ga aylantirilib iste'molchiga uzatiladi [19, 29, 30].

Sun'iy yer yuldoshlariga o'rnatilgan quyosh elektrostansiyalarining foydali ish koeffitsiyentini kelajakda 77–95% ga yetkazish rejalash-tirilgan.

Quyosh elektrostansiyalarining o'rtacha qamraydigan maydoni 20 km<sup>2</sup> ga teng bo'lib, uzatish antennasining diametri 1 km ga va qabul qilish antennasining diametri 7–10 km ga teng bo'ladi. 68-rasmda yer sun'iy yo'ldoshiga o'rnatilgan quyosh elektrostansiyasining sxemasi keltirilgan.






68-rasm. Yer sun'iy yo'ldoshiga o'rnatilgan quyosh elektrostansiyasining sxemasi:  
 a – sxemasi; 1 – quyosh energiyasi oqimi; 2 – quyosh energiyasining sun'iy yo'ldosh kollektori; 3 – uzatuvchi antenna; 4 – qabul qiluvchi antenna; 5 – qisqa to'lqinli nur; 6 – energetik sun'iy yo'ldoshning doimiy orbitasi; b – sun'iy yo'ldoshga o'rnatilgan quyosh elektrostansiyasining umumiy ko'rinishi.

## **8-bob. SUV SATHINING KO‘TARILIB-TUSHISH ENERGIYASI**

### **8.1. Suv sathining ko‘tarilib-tushish energiyasidan foydalanish asoslari**

Quyosh-Yer-Oy planetalari bir to‘g‘ri chiziqda joylashganda kosmik sistemalarning tortishish kuchlari natijasida dengiz va okean suvlarining sathi ko‘tarilib-tushadi (69-rasm). Suv sathining ko‘tarilib-tushish jarayoni har 6 soat-u 12 minutda ro‘y berib turadi. Yer sharining ba’zi nuqtalarida bu jarayon 12 soat-u 25 minut yoki 24 soat-u 50 minutni tashkil qiladi. Suvning ko‘tarilishi bir kunda 50 minutga suriladi. To‘liq bir sikl (ko‘tarilib-tushish)ning davom etishi 29, 53 kunga to‘g‘ri keladi [19, 29].

Ochiq denigiz va okeanlarda suv sathining ko‘tarilib-tushish farqi 2 m dan oshmaydi. Ammo ko‘rfazlarda, qo‘ltiqlarda, daryolarning boshlanishi hamda dengiz va okeanlarga quyilish joylarida suv sathining ko‘tarilib-tushish farqi 10–15 m va undan ham ortiq bo‘lishi mumkin. Suv sathining ko‘tarilib-tushish davrida ularning maksimal miqdori Atlantika



*69-rasm. Quyosh, Oy va Yerning bir to‘g‘ri chiziqda joylashish sxemasi.*


okeanining Kanada qirg'oqlarida 18 m gacha, Fandi qo'ltig'ida 19,6 m gacha yetadi. Sathlar tebranishining katta miqdori La-Mansh bo'g'ozining ba'zi joylarida 15 m gacha, Oxota dengizida 13 m gacha, Barens va Oq dengizda 10 m gacha kuzatiladi [19, 29].

Sathlarning ko'tarilib-tushishiga asoslangan elektrostansiyani qurish uchun sathlar farqi 10 m ni tashkil qilishi zarur. Bunday joylar yer sharida atigi 30 donani tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun ushbu elektrostansiyalarning umumiy energetikadagi o'rni unchalik sezilarli emas.

Dunyodagi dengiz va okeanlar suv sathining ko'tarilib-tushishi natijasida olinishi mumkin bo'lgan energiya bir yilda 1,0 mlrd kWni tashkil qiladi. Bu miqdor butun dunyodagi GESlar ishlab chiqaradigan elektr energiyasidan 2,5 barobar ko'proqdir.

### 8.1.1. Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasi

Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish uchun suv sathi ko'tarilgan vaqtida dengiz havzasining biror kichraygan joyi (qo'ltiq – suv havzasi) bekitiladi (70-rasm). Suv qaytgan vaqtida dengiz va ajratilgan suv havzasi sathlari orasida ma'lum kattalikda bosim hosil bo'ladi.



70-rasm. Okean va dengizlar sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish sxemasi: a – bo'ylama kesimi; b – plani.

Hosil bo'lgan bosim ostida har xil gidroturbinalarni ishlatib elektr energiyasi olish mumkin bo'ladi. Dengiz sathining ikkinchi ko'tarilishida esa ajratilgan suv havzasidagi suv sathidan dengiz suv sathi baland bo'ladi. Natijada yana ma'lum balandlikda bosim hosil bo'lib, gidroturbinalarning ishlashi uchun sharoit yaratiladi.

Suv sathlarining ko'tarilib – tushishiga asoslangan elektrostansiylarning potensial energiyasi va unga mos bo'lgan o'rtacha yillik quvvat quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$E_p = 2 \cdot 106 \times A_{o\cdot rt}^2 \times K \times F;$$

$$N_p = \frac{E_n}{8760} = 225 \times A_{o\cdot rt}^2 \times K \times F.$$

Bu yerda:  $A_{o\cdot rt}$  – yillik o'rtacha suv sathlarining farqi;

$K < 1$  – suv sathi o'zgarishiga nisbatan suv havzasi maydonining o'zgarishini hisobga oluvchi o'lchamsiz koeffitsiyent;

$F$  – suv havzasining yuzasi,  $\text{km}^2$ .

Bosimning kamayib ketishi natijasida elektrostansiyaning to'xtab qolishi va boshqa sabablarga ko'ra, potensial energiyaning faqatgina 1/3 qismidangina foydalilanadi. Suv sathining ko'tarilib-tushish elektrostansiyalari qurishga qulay bo'lgan joylar juda kam. Bunday elektrostansiylarning samaradorligini oshirish uchun ikki, uch va undan ko'proq havzali, odatdagi turbina o'rniiga ikki mashinali nasos turbinalar qo'llaniladi.

## 8.2. Suv sathining ko'tarilib-tushishiga asoslangan elektrostansiylalar

Suv sathi ko'tarilib-tushish elektrostansiylarini loyihalash va qurishda quyidagi muammolarga duch kelinadi:

- agressiv dengiz suvi istida beton va temir konstruksiyalarning zanglashi;
- gidrotexnik inshootlarni to'lqinlarning dinamik ta'siridan va dengiz oqimlaridan himoya qilish;
- cho'kindi jinslar bilan kurashish;
- tuproqning mustahkamligini oshirish;
- tirik organizmlar, ayniqsa, molluskalarga qarshi kurashish.

Bu muammolarni yechish uchun juda ko'p ilmiy-tekshirish ishlari o'tkazish va natijalarni joylar(natura)da ishlatib ko'rish zarur.

Hozirgi vaqtida dunyoda okean va dengizlar suv sathning ko'tarilib tushishiga asoslangan faqatgina Fransiyadagi Rans va Rossiyadagi Kislogub elekrostansiyalari ishlab turibdi. 2.5-§ da dunyodagi eng katta suv sathning ko'tarilib-tushish elekrostansiysi haqida ma'lumot keltirilgan.

Suv sathning ko'tarilib-tushish asosida ishlaydigan elekrostansiyalarga sarflanadigan kapital xarajatlar boshqa elekrostansiyalarga qaraganda kamroq ekanligi aniqlangan. Masalan, 11,4 mln.kW · soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi Mezen elekrostansiyasiga sarflangan kapital xarajatlar 1072 doll./kW (0,314 doll./kW · soat)ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich GESlarga surf qilinadigan xarajatlarga qaraganda 1,5 barobar arzonga tushar ekan (Masalan, Gilyuy GESi-1587 doll./kW yoki 0,63 doll./kW · soat).



71-rasm. Po'kakli energoqurilmalar.

Amerikaning Nyu-Jersi shtatidagi «Ocean Power Technologies» kompaniyasi 10 dona to'lqin po'kaklari energetik qurilmalaridan tashkil topgan 1500 kW·soat quvvatga ega bo'lgan to'lqinlar elektro-stansiyasini ishga tushirdi. Har bir po'kak to'lqinlarda bekorga qalqib yurmaydi, uning ichidagi porshenlar to'lqinlarga mos qaytma-ilgarilanma harakat qilib elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi suv osti kabel simlari yordamida qirg'oqqa uzatilib, qirg'oqdagi mingga yaqin uylarni yil bo'yli elektr energiyasi bilan ta'minlab turadi. Po'kaklarni nazoratda ushlab turish uchun unga yorug'lik signalni berib turuvchi, o'chib-yonib turadigan lampalar o'rnatilgan [67] (71-rasm).

## **9.-bob. ICHKI OQIMLAR**

### **9.1. Okean va dengizlarda hosil bo‘ladigan ichki oqimlar**

Yer yuzining 2/3 qismi okeanlar, dengizlar va daryolar bilan qoplangan. Ulardagi suv resurslari har xil holatda – to‘lqinlar, qirg‘oqqa kelib urilishlar, suv yuzidagi va har xil chuqurlikdagi oqimlar shaklida juda katta miqdorda qaytalanuvchi energiya olib yuradilar. Ulardan foydalanish orqali juda katta miqdorda ekologik toza energiya olish mumkin.

Dunyo okeani akvatoriysida har xil yo‘nalishlarda oqimlar bir-biri bilan kesishadi. Oqimlar ustki va chuqurlikda bo‘lishi mumkin. Ularning ba’zi birlari juda ulkan aylanalar bo‘ylab harakatlanadi. Ularning yo‘nalishlari va tezliklari har xil hamda juda katta kinetik energiya ( $7,2 \times 10^{12}$  kW·soat / yil ga teng elektr energiyasi) zahiralariga ega [31].

### **9.2. Oqimlarning turlari**

Okean va dengizlardagi oqimlarga quyidagilar kiradi:

- Golfstrim;
- Kuroso;
- El-Nino;
- Ekvatorial oqimlar;
- g‘arbiy shamollar oqimi;
- iqlim;
- passat (quruq) shamollar – tropiklardan ekvatorga tomon esib turadigan quruq shamollar.

Har xil tashqi alomatlariga qarab oqimlar doimiy va davriylarga bo‘linadi. **Doimiy oqimlar** yildan yilga o‘rtacha miqdorda qolishi, ya’ni yo‘nalishi, o‘rtacha tezligi va massasi o‘zgarmay qolishi mumkin. **Davriy oqimlarda** yuqoridagi xarakteristikalar davriy o‘zgarib turadi. Masalan, Musson oqimlari – Musson shamollari hosil qiladigan,

qishda okeandan dengiz tomon, yozda dengizdan okean tomon yo'nalgan oqimlar.

Oqimlar issiq va sovuq bo'lishi mumkin. Okean oqimlari suvni okeanning bir joyidan ikkinchisiga ko'chirib yuradi. Ko'chib yurgan oqimlar o'zidagi issiqlikni sovuq suvlarga berib asta-sekin soviydi. Agar oqimning temperaturasi o'zini o'rabi turgan suv oqimi temperaturasidan yuqori bo'lsa, **issiq oqim**, past bo'lsa, **sovuj oqim** deyiladi.

Oqimlar **suv yuzasida** va **suv osti** yoki **chuqurlikda** hosil bo'lishi mumkin. Agar oqim okean yoki dengiz tubida hosil bo'lsa, bunday oqimlar **tubdagi oqimlar** deyiladi.

Oqimlar har xil belgilariga qarab klassifikatsiyalanadi: ularni hosil qiluvchi kuchlarga nisbatan; barqarorligiga nisbatan; suv qatlamlari churqligida joylashishiga nisbatan; harakatlanishiga nisbatan; fizik va kimyo-viy xossalalariga nisbatan.


Hosil bo'lishiga nisbatan: **gradiyentli** (zichlik, to'ldiruvchi, barogradiyentli, seyshli, oqimli yoki oqava), **shamol ta'sirida (dreyf)** va **suv sathining ko'tarilib-tushishi** oqimlariga bo'linadi.

Okean yoki dengizning bir qismida qandaydir sabablarga ko'ra bo'shab qolgan hajmni to'ldiradigan oqimlar **to'ldiruvchi oqimlar**, yoki har xil zichlikdagi (masalan, Golfstrim) oqimlarga **gradiyentli oqimlar** deyiladi.

Suv yuzasiga shamolning (tangensial) ishqalanishi natijasida **dreyf oqimlari** hosil bo'ladi. **Suv sathining ko'tarilib-tushishi** natijasida hosil bo'ladigan oqimlar. Kosmik sistemalar (Quyosh-Oy-Yer)ning tortishish kuchlari natijasida dengiz va okean suvlaringin sathi ko'tarilib-tushish jarayoni. 72-rasmda okean va dengizlarda hosil bo'ladigan oqim turlari ko'rsatilgan.

### 9.3. Golfstrim oqimi

Dengiz va okenlardagi oqimlar orasida eng kattasi **Golfstrim oqimidir**. Golfstrim (Inglizcha «Golf» – ko'rfaz, qo'litiq; «Strim» – oqim, ya'ni ko'rfazdagi oqim ma'nosini bildiradi.) Atlantika okeanining shimoliy qismida hosil bo'ladigan issiq oqim. Bu oqim 16-asr boshlarida dengizchilar tomonidan aniqlangan va **Florida oqimi** deb atalgan [32].





72-rasm. Okean va dengizlardagi oqim turlari.

1772-yilda amerikalik olim Benjamin Franklin bu oqimni **Golfstrim oqimi** deb atashni taklif qilgan.

Golfstrim oqimi Meksika qo'lting'ining oqava suvlari sifatida Florida bo'g'ozida-yarim orolida hosil bo'ladi. Bu oqim  $2160 \text{ m}^3/\text{kun}$  (yer yuzidagi barcha daryolar sarfidan 20 barobar ko'p) hajmda Yuktan bo'g'ozi orqali okeanga chiqadi va Antil oqimi bilan qo'shiladi hamda  $6\text{--}10 \text{ km/soat}$  tezlikda Shimoliy Amerikaning Atlantika qirg'oqlari bo'ylab Nyufaundlend sayozliklari orqali shimoliy sharqqa qarab harakatlanadi. Bu yerda oqim sovuq Labrador oqimi va shimaldan kelayotgan sovuq oqim bilan uchrashadi. Shundan so'ng Golfstrim oqimi sharqiy yo'nalishda Yevropa qirg'oqlari bo'ylab harakatlanadi (73-rasm). Golfstrim oqimi Atlantika okeanining shimoliy qismi hamda Shimoliy Muz okeanining yaqin qismi tabiatiga va Yevropa mamlakatlarining iqlimiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Oxirgi vaqtarda dunyo bo'ylab, issiq Golfstrim oqimi sekinlashmoqda, sovimoqda va natijada okean qa'riga kirib ketmoqda degan tush-



73-rasm. Golfstrim oqimining yo'nalishlari.

vishli xabarlar tarqalmoqda. Agar rostdan ham bu jarayon davom etayotgan bo'lsa, Yevropa mamlakatlarining yillik temperaturasi o'rtacha  $12^{\circ}\text{C}$  gacha pasayib ketishi kutiladi. Natijada Yevropada kichik muzlik davri boshlanishi mumkin.

Polyak va Italiya olimlarining Golfstrim oqimida olib borgan ilmiytadqiqot ishlari va kosmik yer yo'ldoshlaridan olingan rasmlar shunday xulosalar qilishga imkon beradi. Golfstrim oqimi Florida yarimorolidan Shpitsbergen va Novaya Zemlya orollarigacha bo'lgan 10 ming km uzunlikda harakatlanadi. Golfstrim oqimining kengligi janubdan shimolga qarab 75 km dan 200 km gacha kengayib boradi, chuqurligi 700–800 m ni, tezligi 2 m/s ni tashkil qiladi, suv yuzasidagi temperatura  $10\text{--}20^{\circ}\text{C}$  dan  $24\text{--}28^{\circ}\text{C}$  gacha o'zgarib turadi (74-rasm).



74-rasm. Golfstrim oqimi o'lchamlarining o'zgarishi.

Bunday jarayonning kelib chiqishiga: iqlimning o'zgarishi natijasida erigan muzlar bilan okeanning sho'r suvlari aralashishi natijasida toza suv hosil bo'lishi, 2010-yilda Meksika qo'lting'ida falokat tufayli «British petroleum» kompaniyasining okeanga neft yoyilib ketishi va nihoyat tarixiy sikel ham sabab bo'lishi mumkin. Chunki bundan 10–60 ming yillar oralig'ida 17 marta bunday jarayonlar kuzatilgan, ammo oxirgi 10 ming yil davomida bunday hodisa ro'y bermagan.


Bu oqimning energiyasidan foydalanish uchun to'g'ri suv qabul qiluvchi diametri 168 m li 242 dona (har birining quvvati 83 MW) turbinalarni kema qatnoviga xalaqit bermasliklari uchun 30 m chuqurlikka o'rnatish rejalashtirilgan. Gibraltar bo'g'ozida ham xuddi shunday oqim energiyasidan foydalanish loyihalashtirilgan.

#### **9.4. Okeanning issiqlik energiyasidan foydalanish**

Quyosh nurlari okean suvining faqat ustki qatlamini isitadi, isitilgan suv pastga tushmaydi, chunki uning zichligi sovuq suvning zichligidan kichik bo'ladi. Tropik o'lkalardagi dengizlarning yuqori qatlamdagagi bir necha metr chuqurlikdagi suvleri 25–30°C gacha isiyyidi. Qolgan 1 km ga yaqin chuqurlikdagi suvlarning temperaturasi 5°C dan oshmaydi. Natijada hosil bo'lgan temperatura gradiyenti juda katta miqdorda issiqlik energiyasi ( $95 \times 10^{12}$  kW·soat/ yilga teng elektr energiyasi)ni hosil qiladi.

Okean issiqlik elektrostansiyasi quyidagi tartibda ishlaydi. Issiq okean suvi 25–30°C da bug'lanadigan suyuqliklar(freon, propan, ammiak)ni bug'lantirishda qo'llaniladi. Bu suyuqliklarning bug'i turbogeneratorga uzatilib uni harakatga keltiradi. Nasos – 1 dengiz suvining yuqori qatlamidagi issiq suvni issiqlik almashtirgich – 2 ga uzatadi. Bu yerda ishchi suyuqlik bug'ga aylantiriladi va katta bosim bilan generator – 4 valiga ulangan turbina – 3 ga uzatiladi. Turbinadan o'tgan bug' kondensator – 5 ga kelib tushadi. Bu yerda nasos – 6 bilan uzatilayotgan sovuq suv yordamida bug' yana ishchi suyuqlik holatiga keltiriladi hamda nasos – 7 bilan yana issiqlik almashtirgichga uzatiladi va sikel yana takrorlanaveradi (75-rasm).

Dunyoda birinchi marta 1979-yili AQShdagi Gavayi orollarida suv barjasiga o'rnatilgan 50 kW·soat quvvatli okean issiqlik elektrostansiyasi ishga tushirildi.



**75-rasm. Okean issiqlik elektrostansiyasining sxemasi:**

1, 6 va 7 – nasos; 2 – issiqlik almashtiruvchi; 3 – turbina; 4 – generator; 5 – kondensator.

1980-yili o'sha yerda 1000 kW·soat quvvatlari, 1981-yili Yaponiyaning Tinch okeanidagi «Nauru» orolida 100 kW·soat quvvatlari elektrostansiyalar ishga tushirildi.

## **10-bob. TO'LQINLAR ENERGIYASI**

### **10.1. To'lqinlar energiyasi**

Inson necha ming yillardan buyon daryo, dengiz va okeanlar to'g'risida tanish bo'lgani bilan ularda hosil bo'ladigan to'lqinlar energiyasidan foydalanishga oz harakat qilingan. Dengizlarda hosil bo'ladigan to'lqinlar energiyasi to'g'ridan to'g'ri shamol energiyasiga bog'liq bo'lgani bilan o'z navbatida shamol energiyasi ham quyosh energiyasiga bog'liqdir.

Biroq quyosh energiyasiga nisbatan dunyodagi to'lqinlar energiyasi zahiralari juda kam miqdorni tashkil qiladi. Dunyo okeanining energetik zahiralari (har hil hisoblarga ko'ra) 10 mlrd. kW dan 90 mlrd. kW gacha hisoblanadi. Biroq bu energiyaning faqatgina 2,7 mlrd. kW soati foydali hisoblanadi, ammo mana shu miqdor ham dunyodagi barcha elektrostansiyalar quvvatiga taxminan teng va suvning ko'tarilib-tushishi energiyasidan 1,5 barobar ortiqroqdir [33].

To'lqinlar energiyasi qaytalanuvchi energiya manbasi hisoblanib, uni mexanik energiyaga aylantirish muhandis oldiga qo'yilgan asosiy masalalardan hisoblanadi (76-rasm). Mexanik, gidravlik yoki boshqa energiya turlariga aylantirilgan to'lqinlar energiyasidan foydalanib, uni elektr energiyasiga aylantirish mumkin bo'ladi.



*76-rasm. Okean va dengizdagи hamda qирғоцқа урілувчи то'lqinlar.*

To'lqin energiyasidan foydalanish bo'yicha birinchi ixtirochiga patent 1799-yili (Parij)da berilgan. Hozirgi vaqtida to'lqin energiyasidan foydalanish bo'yicha 1000 dan ortiq har hil ixtiro va takliflar mavjud (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya).


## 10.2. Okean va dengizlardagi to'lqinlar, ularning o'chamlari va energetik xarakteristikalar

Dengiz va okeanlardagi to'lqinlar asosan shamol yordamida hosil bo'ladi. Ammo quyidagi sabablarga ko'ra ham to'lqinlar hosil bo'lishi mumkin [34]:

- suv sathining ko'tarilib-tushishiga (Oy, Yer va Quyoshning suv sathining o'zgartiruvchi kuchlariga) nisbatan;
- barometrik (atmosfera bosimining keskin o'zgarishiga nisbatan);
- seysmik-sunami (kuchli yer qimirlashi yoki vulqonlar otilishiga nisbatan);
- kemalar harakati tufayli hosil bo'ladigan to'lqinlar.

Har bir to'lqin quyidagi elementlari bilan xarakterlanadi (77-rasm):

- to'lqinning o'rakachi-cho'qqisi (to'lqin o'rakachining eng yuqori nuqtasi);
- to'lqinin tagi (to'lqin tagidagi eng past nuqta);
- to'lqin balandligi –  $h$  (to'lqin o'rakchi va tagi oralig'idagi masofa);
- to'lqin uzunligi –  $L$  (ikkala o'rakach orasidagi gorizontal masofa);
- to'lqinning davri –  $T$  (to'lqinning o'z uzunligi masofasini o'tishi uchun zarur bo'lgan vaqt);



77-rasm. To'lqinning elementlari.

- to'lqinining qiyaligi –  $e = h/L$  (to'lqin balandligining uning uzunligiga nisbati);
- to'lqinining eng kaitta qiyaligi –  $\delta = h/0,5 L$  (to'lqin balandligining uning yarim uzunligiga nisbati);
- to'lqin tezligi –  $S$  (to'lqin o'rkachining uning uzunligiga teng masofani o'tish tezligi);
- to'lqin fronti (ma'lum to'lqin o'rkachining plandagi uzunligi).

Okean va dengizlarning ochiq hududlarida to'lqin elementlari quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

$$\text{to'lqin balandligi} - h = aW\sqrt[3]{D};$$

$$\text{to'lqin uzunligi} - L = zW\sqrt[3]{D};$$

$$\text{to'lqinning tezligi} - C = 1,25\sqrt{L}.$$

Bu formulalardagi  $a$  va  $z$  o'zgarib turuvchi koefitsiyentlar bo'lib, shu joydagi suvning chuqurligi ( $N$ ) ga bog'liq va quyidagicha aniqlanadi:

$$a = 0,0151 N^{0,342};$$

$$z = 0,104 N^{0,573}.$$

$W$  – shamolning tezligi;  $D$  – shamolning tezlik olishi (tezlanishi).

To'lqinlarning balandligi asosan shamolning tezligi va tezlanishiga bog'liqdir. Dengiz va okeanlardagi to'lqinlarning balandligi 2 m dan, anomal (normadan chetga chiqish) holatlarda esa 18 m, hattoki 30 m gacha bo'lishi mumkin.

To'lqinlar quvvatining o'lchov birligi kW/m bo'lib, 1 m uzunlikdagi to'lqinlarning quvvati hisobga olinadi. To'lqinlar energiyasi shamol va quyosh energiyasiga qaraganda birmuncha ko'pdir. Dengiz va okeanlardagi to'lqinlarning o'rtacha quvvati 15 kW/m dan oshiqroqdir. Masalan, to'lqin balandligi 2 m bo'lganda ularning quvvati 80 kW/m gacha yetadi. To'lqinlar energiyasini foydali ish koefitsiyenti juda yuqori bo'lib, bu miqdor mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirishda 85% gacha bo'lishi mumkin.

### 10.3. Qirg'oqqa uriluvchi to'lqinlar va ularning energetik xarakteristikalarini

Qirg'oqqa kelib uriluvchi to'lqinlarning energiyasi juda katta bo'lib, u asosan to'lqinning kinetik energiyasi hisoblanadi. Masalan, 1 m

balandlikda va har 10 sekundda 1 mil (1 dengiz mili = 1853 m) uzunligida hosil bo‘ladigan to‘lqinlarning quvvati 35 000 ot kuchi (25 800 kW)ga teng ekan.

Qirg‘oqqa uriluvchi to‘lqinlarning vayron qiluvchi energiyasi to‘g‘risida quyidagi misollarni keltirish mumkin. Shotlandiya qirg‘oqlaridagi pirs (kemalar bog‘lab qo‘yiladigan joy)ga mustahkam o‘rnatilgan 1350 tonnalik temir-beton blokni sindirib qirg‘oqdan surib tashlagan. Uning o‘rniga o‘rnatilgan boshqa 2600 tonnalik beton blokni ham 5 yildan so‘ng sindirib surib tashlagan. Muhandislar shu joyga uriladigan to‘lqinlarning kuchini o‘lchab ko‘rganlar va natijada to‘lqinlarning urilishi natijasida hosil bo‘ladigan bosim  $29 \text{ t/m}^2$  ni tashkil qilishini aniqlaganlar. Bundan tashqari, to‘lqinlar 60 kg og‘irlilikdagi tosh bo‘lagini Oregon qirg‘og‘ida 28 m balandlikda joylashgan mayak tomiga uloqtirgan.

#### 10.4. To‘lqin elektrostansiyalari

Hozirgi kunlarda kino, videofilm va televedeniyeda okean va dengizlardagi to‘lqinlar to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar berilmoqda. Ularda asosan to‘lqinlar o‘rkachida sport taxtasida suzayotgan sportchilar ko‘rsatiladi. Ammo dengiz va okean chuqurliklari o‘zida juda katta energiya zahiralarini saqlab turadi.

To‘lqinlar energiyasidan mexanik, gidravlik va elektr energiyalarini olish mumkin. To‘lqinlar energiyasi olinadigan mexanik va gidravlik energiyadan har xil maqsadlarda, elektr energiyasi olishda, suvni balandlikka ko‘tarishda va boshqalarda foydalanish mumkin. Bunday energiyalar va ulardan foydalanish shu soha bo‘yicha ishlayotgan firmalarga ko‘p vaqtdan buyon ayon. Ular dengiz to‘lqinlaridan energiya olishning har xil turlari va qurilmalarini ishlab chiqmoqdalar. Bunday qurilmalar hozirgi kunda Kaliforniya, Oregon, Shvetsiya, Shotlandiya va Orkni orolida ishlaymoqda [35, 67].

«Ustritsa» mana shunday qurilmalardan biridir. Ammo uning ishlash prinsipi ilgarigi qurilmalardan tubdan farq qiladi. Bu qurilma to‘lqin energiyasini to‘g‘ridan to‘g‘ri elektr energiyasiga aylantirib bermaydi. Qurilmadagi porshenlar to‘lqin harakatiga mos ravishda ishlab okean va dengiz suvini ma’lum bosim ostida elastik quvurlar orqali qirg‘oqqa haydaydi. Qirg‘oqdagi turbinaga kelib urilayotgan SUV generatori harakatga keltiradi va elektr energiyasi ishlab chiqaradi (78-rasm).

To'lqin energiyasini boshqa energiya turiga aylantiruvchi qurilma

Suv energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi qurilma



Dengiz suvini haydovchi porshen

Yuqori bosimli oqimni uzatuvchi elastik quvur

**78-rasm. To'lqindan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi «Ustritsa» qurilmasi.**

Har bir «Ustritsa» qurilmasi  $300 \div 600$  kW · soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi mumkin. Bu qurilmalarni qirg'oqdan uncha uzoq bo'limgan suvlarga o'rnatish, ularni boshqaradigan barcha jihozlarni esa qirg'oqqa o'rnatish imkonini beradi. Bundan tashqari, uni suvning harakati barqaror bo'lgan  $12 \div 16$  m chuqurlikka o'rnatish mumkin. U deyarli tovushsiz ishlaydi, dengiz hamda okean flora va faunasiga zarar keltirmaydi [36].

To'lqin qurilmalaridan yana biri «Searaser», ya'ni «Dengiz to'ldiruvchisi»dir. U dengiz va okean suvlarini juda katta (200 m gacha) balandlikka ko'tarib beradi. Birinchi qarashda bu qurilma xuddi to'lqin generatoriga o'xshaydi. Ammo bu qurilma oddiy porshenli nasos sifatida ishlaydi.

Bu qurilma ikki dona bir-biriga nisbatan harakatlanuvchi po'kaklardan iboratdir. Ularning biri to'lqinlarda erkin harakatlanasa, ikkinchisi zanjir va og'ir langar bilan dengiz tubiga mahkamlangan. Po'kaklar o'rtasida ikki harakatli porshenli nasos qurilmasi – silindr bilan porshen hamda klapanlar va chiqish quvuri joylashgan (79- va 80-rasmlar).



a)




b)



d)

**79-rasm. Porshenli po'kaklarni o'rnatish jarayoni (a va b) va undan chiqayotgan suv (d).**



80-rasm. Po'kaklarning joylashishi va ishlash jarayoni.

To'lqinda turgan qurilma quyidagicha ishlaydi: to'lqinning tubida turgan erkin po'kak to'lqin bilan birga yuqoriga ko'tariladi va u bilan birga porshen ham yuqoriga ko'tariladi hamda silindr suvga to'ladi; po'kak to'lqin bilan pastga harakatlanganda porshen silindrini suvni siqib, elastik shlang orqali suvni yig'uvchi kollektorga haydaydi; bir necha shunday qurilmalardan kelgan suv kollektorga ulangan asosiy shlang orqali yuqorida joylashgan idishlarga ko'tarib beriladi; idishdagi suv pastda joylashgan generatorli turbinaga uzatiladi va natijada elektr energiyasi ishlab chiqariladi (81-rasm).



81-rasm. Dengizdan yuqorida joylashgan hajmning suvga to'ldirilishi va suvni qayta tashlab elektr energiyasi olinishi.

Ushbu usul xuddi GAESlar orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishi o'xshaydi. Agar GAESlarda suvni yuqoriga elektr energiyasi hisobiga ishlaydigan nasoslar ko'tarib bersa, bu qurilma to'lqintar energiyasi yordamida suvni yuqoriga ko'tarib beradi [19, 29, 37].

Bunday qurilmalarning 1 donasi 250 kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi mumkin. 1999-yili Yaponiyada dengiz qirg'og'ida 150 m balandlikka suv ko'tarib beradigan shunday qurilmalar qurilib ishga tushirildi. Bu qurilmalarning umumiyligini 30 000 kW·soatni tashkil qiladi.

2.5-§ da dunyodagi eng katta to'lqinlar elektrostansiyasi haqida ma'lumot keltirilgan. Kelajakda dengiz to'lqinlari insoniyatga ekologik toza, arzon, xavfsiz va yetarli energiya yetkazib beradigan manbalardan biri bo'lib qoladi.

## **11-bob. GEOTERMAL ENERGIYA**

### **11.1. Geotermal energiyadan foydalanish asoslari**

Geotermal so‘zi grekchadan **geo** – yer va **thermy** – issiqlik so‘zlarini bo‘lib, **geotermal energiya** – yer issiqligi energiyasi deb ataladi. Yer qa’rida juda katta issiqlik miqdori mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas-tuganmas energiya olish mumkin [19, 29, 38]. Hisoblarga ko‘ra, yer bag‘rida to‘plangan issiqlikdan olinadigan energiya yer yuzidagi hamma organik yoqilg‘i zahirasidan olnadigan energiyadan bir necha barobar ko‘p ekan. Ammo bu issiqlik energiyasi faqatgina yer ostidagi qaynoq suvlardan olinadi, xolos. Bu suvlar ikki turga bo‘linadi (82-rasm).

1. Termal (issiq) suvlar – ularning temperaturasi  $100^{\circ}\text{C}$  gacha bo‘ladi.
2. Paragidrotermal suvlar – ularning temperaturasi  $100^{\circ}\text{C}$  dan ortiq bo‘ladi.

O‘rta Osiyoda temperaturasi  $40\text{--}200^{\circ}\text{C}$  atrofida o‘zgaradigan umumiyligi oqim sarfi  $0,55 \text{ mln.m}^3/\text{kun}$  bo‘lgan geotermal suvlар zahirasi mavjuddir.

Hozirgi vaqtida geotermal suvlardan faqatgina xalq xo‘jaligining kommunal xo‘jaligida (uylarni isitish va issiq suv bilan ta’minlash), parniklarda va davolash maqsadlarida ishlataladi.

Energetika va issiqlik bilan ta’minlashda asosan temperaturasi yuqori va kam mineralizatsiyali suvlar qimmatli hisoblanadi. Chunki mineralizatsiyasi oz bo‘lsa, jihozlarning zanglashi va ularning devorlariga tuzlarning o‘tirib qolishi kam bo‘ladi.

Yer bag‘rida gidrotermal suvlar juda chuqurda ( $1000 \text{ m}$  pastda, iste’mol qilish mumkin bo‘lgan suvlardan pastda) joylashadi. Hisoblarga qaraganda har  $30\text{--}40 \text{ m}$  chuqurlikda yer qa’ridagi suvlarning temperaturasi  $1^{\circ}\text{C}$  ga oshar ekan. Ba’zi bir joylarda ular  $200\text{--}300 \text{ m}$  chuqurlikda ham (Kamchatka, Kuril orollarida) joylashishi mumkin. Kam holatlarda ular issiq bug‘li buloqlar shaklida ham uchraydi.

Kamchatkada 100 dan ortiq yer yuziga chiqib turgan yuqori temperaturali termal suvlar mavjuddir. 1941-yilda geyzerlar vodiysi topildi. Shu vodiyydagи Ulkan geyzeri 100°C temperaturadan ortiq bug'li suv aralashmasini 300 m balandlikka otib turadi. Kamchatkadagi manbalari faqat yuqori temperaturasi (170–200°C) bilan emas, balki kichik mineralizatsiyasi (0,6–5,0 g/l) bilan ham ajralib turadi.

Dunyodagi geotermal suvlardan olinadigan energiya miqdori 60 000 MW ni tashkil qiladi. 1984-yilda geotermal suvlardan faqatgina 1800 MW energiya olingan, shulardan: Amerika – 500; Italiya – 420; Meksika – 75; Yaponiya – 70.

Geotermal suvlardan elektr energiyasi olish, asosan, yer yuzida energetik inqiroz boshlanishi va ekologik toza energiya olish uchun kurash avjiga chiqqandan so'ng boshlandi.

Termik suvlardan foydalanimi elektr energiyasi olish qurilmalari xuddi issiqlik elektrostansiyalariga o'xshash, faqatgina termik elektrostansiyalarida bug' qozoni bo'lmaydi xolos, geotermal elektrostansiyalarga yoqilg'i kerak bo'lmagani sababli uning ishlashi uchun transportning ham keragi bo'lmaydi. Quyida geotermal elektrostansiyaning sxemasi keltirilgan (83-rasm). Bugungi kunda dunyodagi geotermal elektrostansiyalarinig umumiy quvvati 10751 MW tashkil qiladi [39].




a)



b)

82-rasm. Paragidrotermal (a) va termal (b) suv manbalari.



**83-rasm. Vulqonli rayonlarga o'rnatish mumkin bo'lgan geotermal elektrostansiyatingsxemasi:**

1 – geotermal quduq; 2 – bug'ga aylantiruvchi moslama; 3 – turbina; 4 – kondensator;  
5 – nasos; 6 – suvli issiqlik almashtirgich.

## 11.2. Geotermal energiya manbalari va ularning kadastri

Geotermal energiyaning sifati, uning temperaturasi, mineralizatsiyasi (quruq qoldiq), umumiy qattiqligi, kislotaligi (pH), gaz tarkibi, gaz bilan to'yinganligi bo'yicha baholanadi va quyidagicha klassifikatsiyalanadi.

**1. Temperaturasi bo'yicha geotermal suvlar:** kuchsiz termal –  $40^{\circ}\text{C}$  gacha; termal –  $40^{\circ}\text{C} \div 60^{\circ}\text{C}$  gacha; yuqori termal –  $60^{\circ}\text{C} \div 100^{\circ}\text{C}$  gacha; qizib ketgan –  $100^{\circ}\text{C}$  dan yuqori.

**2. Mineralizatsiyasi (quruq qoldig'i) bo'yicha:** ultrachuchuk suvlar –  $0,1 \text{ g/l}$  gacha; chuchuk suvlar –  $0,1 \div 1,0 \text{ g/l}$ ; kuchsiz sho'rlangan suvlar –  $1,0 \div 3,0 \text{ g/l}$ ; kuchli sho'rlangan suvlar –  $3,0 \div 10,0 \text{ g/l}$ ; sho'r suvlar –  $10,0 \div 35,0 \text{ g/l}$ ; o'ta sho'r suvlar –  $35,0 \text{ g/l}$  dan oshiq.

**3. Umumiy qattiqligi bo'yicha:** juda yumshoq –  $1,2 \text{ mg.ekv/l}$ ; yumshoq –  $1,2 \div 2,8 \text{ mg.ekv/l}$ ; o'rtacha yumshoq –  $2,8 \div 5,7 \text{ mg.ekv/l}$ ; qattiq –  $5,7 \div 11,7 \text{ mg.ekv/l}$ ; juda qattiq –  $11,7 \text{ mg.ekv/l}$  dan katta.

**4. Kislotaligi (pH) bo'yicha:** juda achchiq –  $3,5 \text{ gacha}$ ; achchiq –  $3,5 \div 5,5$ ; kam achchiq –  $5,5 \div 6,8$ ; neytral –  $6,8 \div 7,2$ ; kam ishqorli –  $7,2 \div 8,5$ ; ishqorli –  $8,5$  dan katta.

**5. Gaz tarkibi bo'yicha:** oltingugurt vodorodli; oltingugurt vodorodli – karbonat-angidridli; karbonat angidridli; azotli-karbonat angidridli; metanli; azotli – metanli; azotli.


**6. Gaz bilan to'yinganligiga nisbatan:** kuchsiz – 100 mg/l gunchi o'rtacha – 100÷1000 mg/l; yuqori – 1000 mg/l dan ortiq.

Yer qa'rining tabiiy issiqligi – geotermal energiya yer qobig'inining 10 km chuqurligicha masofada yig'ilgan. Olimlarning taxminiga ko'tra, geotermal energiyaning energiya sig'imi 137 trln. tonna toshko'mir yoqilg'isiga teng bo'lib, yer qobig'ida joylashgan barcha energetik resurslarning quvvatiga qaraganda 10 barobardan oshiqroqdir.

Hozirgi kunda dunyodagi barcha geotermal elektrostansiyalarning umumiy quvvati boshqa turdag'i qaytalanuvchi energiya manbalari elektrostansiyalari quvvatiga qaraganda kichikroqdir. Ammo ba'zibir mamlakatlarda energiyaning bu turi asosiy energetik manbalardan hisoblanadi (Masalan, Islandiya mamlakati). Bundan tashqari, geotermal energiyadan foydalanish yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, 1990-yilda geotermal energiyadan olinadigan o'rnatilgan quvvat miqdori 5000 MW ni tashkil qilgan bo'lsa, bu miqdor 2000-yilda 6000 MW ni, 2008-yilda esa 10 500 MW ni tashkil qildi.

### 11.3. Geotermal elektrostansiyalari va ularning ishlash prinsipi

Geotermal energiyani topib ishlatish – axtarib topish, unga ishlov berib ma'lum energiya holatiga olib kelish va iste'molchiga sifatli energiya yetkazib berish jarayonidan iboratdir. Issiqlik energiyasi tashuvchi geotermal energiyani axtarib topishning quyidagi klassifikatsiyasini keltirish mumkin (84-rasm).



84-rasm. Geotermal energiyani joylashishi va harakati bo'yicha klassifikatsiyasi.

Yer sathidan 50–100 m va undan ortiq chuqurlikda joylashadigan geotermal suvlar favvorali yoki aylanuvchi bo'lishi mumkin. Favvorali texnologiya hozirgi kunda ko'p ishlatiladigan turlardan bo'lib, undagi bosim atmosfera bosimidan bir necha barobar katta bo'lishi mumkin. O'z bosimi ostida yoki nasoslar bilan ko'tarib berilgan favvorali suvlar ishlatib bo'lingandan so'ng tashlab yuborilishi kerak. Tarkibida har xil tuzlar va boshqa atrof-muhitga zarar keltiruvchi moddalar borligi tufayli ulardan foydalanish uncha ham maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun bu usul uncha qo'llanilmaydi. 2.5-§ da dunyodagi eng katta geotermal elekrostansiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

## **12-bob. BIOMASSA ENERGIYASIDAN FOYDALANISH**

### **12.1. Biomassa va uning tarkibi**

Biomassa – o'simlik va hayvonot dunyosidagi barcha organik moddalarning kelib chiqishini birlashtiruvchi termindir. Biomassa **birlamchi** – o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar va boshqalar hamda ularning uzoq yillik jarayonlardan so'ng boshqa turdag'i yoqilg'iga aylanishi va **ikkilamchilarga** (biomassani qayta ishslashda hosil bo'ladigan chiqindilar hamda inson va hayvonlarning hayoti davomida foydalaniladigan mahsulotlar) bo'linadi. O'z navbatida, chiqindilar ham **birlamchilarga** – birlamchi biomassani qayta ishlaganda hosil bo'ladigan chiqindilar (xashak, poya va barglar, qirindilar, spirt quyqasi, shox-shabbalar) va **ikkalamchilarga** – inson va hayvonot dunyosining fiziologik almashishi mahsulotlari kiradi.

Bundan tashqari, ba'zibir Yevropa mamlakatalarida elektr energiyasi olishda, xomashyo sifatida o'rmonlarni haddan ko'p kesilishining oldini



a)



b)

**85-rasm. Bioyoqilg'i xomashyolari:**

*a* – qoratollardan barpo qilingan bioyoqilg'i maydonlari; *b* – o'simlik dunyosining uzoq yillik biologik jarayonlardan so'ng torf holatidagi ko'rinishi.

olish uchun maxsus tez o'sadigan o'simliklardan foydalanishadi. Masalan, Shvetsiyada biomassa uchun maxsus tezo'sar qoratollar ekiladi (85a-rasm). Qoratollar ekiladigan maydonlar miqdori biomassa bilan ishlaydigan elektr stansiyalarining biomassa yoqig'isi bilan ta'minlanishiga nisbatan belgilanadi. Bunday stansiyalar biologik yoqilg'i sifatida biomassadan tashqari, biomassaning uzoq yillik biologik jarayonlardan keyingi ko'rinishidagi torf va boshqa yoqilg'ilardan ham foydalanishi mumkin [19, 40] (85b-rasm).

Biomassa keng ko'lamli qayta tiklanadigan energiya resurslari, demakdir va yog'och, sanoat, qishloq xo'jaligi va maishiy chiqindilarni o'z ichiga oladi. Biomassadan energetika manbayi sifatida yoqish, gazlashtirish, piroliz, spirt yoki biogaz olish uchun biokimyoviy qayta ishslash orqali foydalanish mumkin. Bu jarayonlarning har biri belgilangan maqsadda qo'llanish sohasiga ega.

Ba'zibir ma'lumotlarga ko'ra, biomassadan olinadigan energiyaning dunyo energetikasiga qo'shadigan hissasi 12% ni tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida biomassadan olinadigan energiya miqdori umumiyligi energiyaning atigi 3% ni, ammo ba'zi mamlakatlarda, masalan, Avstriyada – 12%, Shvetsiyada – 18% va Finlyandiyada – 23% ni tashkil qiladi.

Birlamchi biomassani tabiiy holda quruqlikda va suvda o'sadigan o'simliklar tashkil qiladi. Biomassa fotosintez natijasida hosil bo'ladi, ya'ni fotosintez natijasida quyosh energiyasi o'sayotgan o'simlik massasida to'planadi. Fotosintezning energetik foydali ish koefitsiyenti o'rtacha 5% ni tashkil qiladi.

Energiya olish maqsadida birlamchi biomassadan ana'naviy yoqilg'ilar o'rnini qoplaydigan yoqilg'i sifatida foydalaniladi. Birlamchi biomassaga o'rmon va yog'ochni qayta ishslash sanoati hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqindilarini kiritish mumkin.

O'zbekistonda sug'oriladigan qishloq xo'jalik maydonlarini asosan g'o'za, g'all, tamaki, kungaboqar va poliz ekinlari egallaydi. Hozirgi kungacha g'o'zaning poyasidan qisman spirt, qog'oz va bir qancha qurilish materiallarini ishlab chiqarishda xomashyo sifatida foydalanib kelinadi. Qolgan o'simliklarning poyalari tashlab yoki yoqib yuboriladi. Mana shu qishloq xo'jalik chiqindilaridan ham biomassa, ya'ni bioyoqilg'i sifatida foydalanish mumkin.

2.5-§ da dunyodagi eng katta biomassa yoquvchi elektrostansiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

## 11.2. Biogaz, uning tarkibi, hosil bo‘lish jarayoni va miqdori

Biologik chiqindilarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoqish yo‘li bilan energiya olishdan tashqari biogaz ham olish mumkin. Biogaz nima? Biogaz har xil biologik mahsulotlarni havosiz muhitda fermentatsiya – achishi natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotdir.

Biogaz – gazlarning aralashmasi. Uning asosiy tashkil qiluvchilari: metan ( $\text{CH}_4$ ) – 55–70% , uglerod dioksidi ( $\text{CO}_2$ ) – 28–43% va oz miqdordagi masalan, 500 promill vodorod sulfid ( $\text{H}_2\text{C}$ ) va boshqa gazlardir. O‘rtacha 1 kg organik modda 70% biologik parchalanganda 0,18 kg metan, 0,32 kg karbonat angidrid, 0,2 kg suv va 0,3 kg ajralmaydigan qoldiqqa bo‘linadi. Fermentatsiya natijasida hosil bo‘lgan gazlardan uylarni va suvni isitishda, ovqat tayyorlashda va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Ayniqsa, asosiy energetik tarmoqlardan uzoqda joylashgan qishloqlarda biogazdan foydalanish qishloq aholisi uchun juda ko‘p qulayliklarni yaratishga xizmat qiladi.

Biogaz va organik o‘g‘itlar hosil bo‘lish jarayoni maxsus bioreaktorlar – metantenklarda amalga oshiriladi.

Unutilgan yoqilg‘i manbasi hisoblangan biogaz qadim Xitoyda birinchi bo‘lib foydalanilgan. Shuning uchun hozirgi kunda biogaz ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni Xitoy egallaydi. O‘tgan asrning 70-yillari o‘rtalarida bu mamlkatda bir millionga yaqin metantenklar qurilib ishga tushirilgan. Hozirgi vaqtda ularning soni 20 mln. dan oshib ketgan. Xitoy Xalq Respublikasida milliy energoiste’molining 30% i biogaz hisobidan qoplanadi [41].

Biogaz ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni Hindiston egallaydi. O‘tgan asrning 30-yillarida dunyoda birinchi bo‘lib Hindistonda biogaz olish texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur qabul qilingan. 2000-yilning oxirlarida Hindistonning qishloqlarida qurilgan metantenklarning soni 1 mln. dan oshib ketdi. Natijada bir qancha qishloqlarning energiya bilan ta’minlanishi va ularning sanitar-gigiyenik holati yaxshilandi, o‘rmonlardagi daraxtlarni kesish keskin kamaydi va tuproqning tarkibi yaxshilandi. Bugungi kunda Hindistonda kunlik biogaz ishlab chiqarish miqdori  $2,5 \pm 3,0$  mln.  $\text{m}^3$  dan oshib ketdi.

Nepalda milliy biogaz kompaniyasi tashkil qilindi va u faollik bilan ish olib bormoqda. Yaponianing 8 dona chorvachilik xo‘jaliklarida qurilgan biogaz qurilmalari muvaffaqiyatlidir ekspluatatsiya qilinmoqda.

Dastlabki hisoblar shuni ko'rsatadiki, chiqindilar bilan aralashtirilgan 1 tonna o'simlik biomassasidan  $350 \text{ m}^3$  (metan, vodorod) gaz olish mumkin.

Bir sigirning go'ngidan bir kunda  $4,2 \text{ m}^3$  gacha biogaz olish mumkin.  $1 \text{ m}^3$  biogazning energiyasi  $0,6 \text{ m}^3$  tabiiy yoqilg'i gaz,  $0,74 \text{ l}$  neft,  $0,65 \text{ l}$  dizel yoqilg'isi,  $0,48 \text{ l}$  benzin va boshqalarning energiyasiga to'g'ri keladi. Biogaz qo'llash bilan yoqilg'i mazuti, ko'mir, elektr energiyasi va boshqa elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi manbalar tejaladi. Biogaz qurilmalarini tadbiq etish chorvachilik va parrandachilik fermalarining hamda ular joylashgan atrof-muhit ekologiyasini yaxshilaydi.

Bir kilogramm go'ngidan qancha gaz olish mumkin? Bir litr suvni qaynatish uchun  $26 \text{ litr}$  gaz sarflanishini hisobga olib quyidagi chiqindilardan qancha suvni qaynatishga yetarli gaz olish mumkinligi aniqlangan:

- qoramolning  $1 \text{ kg}$  go'ngidan  $7,5 \div 15 \text{ litr}$  suvni qaynatishga;
- cho'chqaning  $1 \text{ kg}$  go'ngidan  $19 \text{ litr}$  suvni qaynatishga;
- qushlarning  $1 \text{ kg}$  tezagidan  $11,5 \div 23 \text{ litr}$  suvni qaynatishga;
- dukkakli ekinlarning  $1 \text{ kg}$  poxolidan  $11,5 \text{ litr}$  suvni qaynatishga;
- kartoshkaning  $1 \text{ kg}$  poyasidan  $17 \text{ litr}$  suvni qaynatishga;
- pomidorning  $1 \text{ kg}$  poyasidan  $27 \text{ litr}$  suvni qaynatishga.


Biogazning afzalliklaridan biri, xohlagan joyda issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkinlidir.

Chiqindilarni biokonversiya jarayoni energetik muammoni hal qilishdan tashqari yana ikkita masalani hal qiladi. **Birinchidan**, achigan go'ng odatdagagi go'ngga qaraganda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini  $10 \div 20\%$  oshiradi.

**Ikkinchidan**, chiqindilar achigan vaqtida go'ng tarkibida ko'p miqdorda bo'lgan begona o'tlarning urug'lari, har xil mikroblarning birikmalari, gelmintin urug'lari va yoqimsiz hidlar yo'qotiladi.

### **11.3. Biogaz olish qurilmalari va ulardan foydalanish jarayoni**


Biogaz olish qurilmalarining sxemasi va konstruktiv-texnologik parametrlari, qayta ishlanadigan xomashyoning hajmiga, achitiladigan xomashyo materialining xossalariiga, issiqlik-namlik rejimiga, xomashyoniyuklash va achitish usuligi va boshqa bir qancha faktorlarga bog'liqdir [42].



86-rasm. Bioenergiya olish jarayoni.

Biogaz qurilmasining asosiy jihози – issiqlik almashtiruvchi germetik yopilgan idish (issiqlik uzatuvchi 50–60°C gacha qizlirligан suv), go'ngni kiritish va chiqarish hamda hosil bo'lган gazni chiqarib ketish moslamalaridir. 86-rasmda bioenergiya olishning to'liq jarayoni ko'rsatilgan.

Biogaz qurilmalari xilma-xil bo'lib, ularning konstruksiyasi mahalliy sharoitga va biogaz olish uchun xomashyo miqdoriga bog'liqdir. Quyida ba'zibir biogaz qurilmalaring konstruksiyalarini ko'rib chiqamiz.



87-rasm. Biogaz reaktorining soddalashtirilgan sxemasi.

87-rasmida biogaz reaktorining soddalashtirilgan sxemasi keltirilgan [12]. Sxemaga asosan, xomashyo – suv va go'ng aralashmasi bioreaktorga joylashtiriladi. Xomashyo – substrat miqdori bioreaktor hajmining 90% i ni to'ldirishga yetishi lozim. Substrat bioreaktorda 7÷12 kun ushlab turiladi. Olingen gazni yoqib har xil maqsadlarda foydalaniladi yoxud uni issiqlik yoki elektr energiyasiga aylantirish mumkin. Foydalanib bo'lingan xomashyo bioreaktordan chiqarib tashlanadi va bioreaktor yangi xom ashyo bilan to'ldiriladi.

#### **11.4. Biogazdan foydalanishning afzalliklari**

Biogaz moslamalaridan foydalanish quydagi afzalliklarga ega [7, 12].

- biogaz SO<sub>2</sub> ga qaraganda neytral yoqilg'i hisoblanadi, undan foydalanish esa atmosferada organik chiqindilarni achitishda yuzaga keladigan metan gazi miqdori ko'payishining oldini oladi;
- achitilgan bimassadan olinadigan o'g'itlar qiymati boshlang'ich xomashyonikidan ancha yuqori;
- fermerlarga qarashli yerlarda oziqa moddalarini ekologik xavfsiz va iqtisodiy foydali uslubda ikkilamchi qayta ishlash qattiq biomassani biogaz olish uchun achitishning afzalligi hioblanadi;
- atrof-muhitning ifloslanishi kamayishi hisobiga insonlarning sog'lig'i yaxshilanadi;
- uzoq qishloqlarda ham maishiy qulayliklar yaratadi;
- yerlarning hosildorligini oshiradi;
- chiqindilardan foya olish imkonini beradi;
- energetik qaramlikdan ozod qiladi.

Shuning uchun hozirgi kunda mamlakatimizda biogazdan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Ba'zi noana'naviy energetik manbalardan foydalanishning sekin rivojlanishi ularni ishlab chiqarish ana'naviy energiya ishlab chiqarishga qaraganda qimmatligidadir.

Masalan, bir kunda 300 tonna quvvatga ega biogaz moslamasini yaratish uchun talab etiladigan umumiylar mablag' taxminan 6,4 million AQSh dollarini tashkil etadi. Bu narx kelgusi 15 yilda 5,8 dan 5 million AQSh dollarigacha tushushi kutilmoqda [7, 12]. Shuning uchun hozirgi vaqtida bir kunda taxminan 6–8 m<sup>3</sup> biogaz va 100–120 litr o'g'it ishlab chiqaradigan kichik bioreaktorlar o'rnatilmoqda. Udarning eng kam narxi 250 AQSh dollarini tashkil etadi. Maishiy iste'molchilarga mo'jallangan biogaz moslamalaridan foydalangan holda, kichik xo'jaliklar va fermerlar uchun o'g'it ishlab chiqarish ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

## **13-bob. KIMYOVIY ELEMENTLAR ENERGIYASI**

### **13.1. Kimyoviy (galvanik) elementlar energiyasidan foydalanish asoslari**

Har xil metallarni bir-biri bilan ulash natijasida elektr energiyasi hosil bo‘lish hodisasi 1876-yilda italyan fiziologi Luidji Galvani tomonidan ixtiro qilingan.

Galvanik elementlarga elektrodlar kiradi. Elektrodlar quyidagi turlarga bo‘linadi [19, 43].

#### **1. Tiklanuvchi elektrodlar, ularga quyidagilar kiradi:**

- 1-tur elektrodlar – o‘z tuzidan tashkil topgan yeritmaga cho‘ktirilgan metallardir;
- 2-tur elektrodlar – o‘zining erimaydigan tuzidan tashkil topgan va umumiyligi anionga ega bo‘lgan eritmaga cho‘ktirilgan metallardir (kumush xlorli elektrod, kalomel elektrodi va metall-oksidli elektrodlar);
- 3-tur elektrodlar – ikkita erimaydigan elektrolit cho‘kindisidan iborat bo‘lib, elektrod metallidan tashkil topgan kam eriydiganida kationlar mavjud, ko‘proq eriydiganida esa birinchi cho‘kma bilan umumiyligi anioni bor;
- gazli elektrodlar – eritma va gaz hamda noaktiv metalldan tashkil topgan elektrodlardir (kislородли va vodorodli elektrodlar);
- amalgamli elektrodlar – simobdagagi metall eritmasidan tashkil topgan elektrodlar;
- oksidlanuvchi – tiklanuvchi elektrodlar – noaktiv metallardan tashkil topgan (ferri-ferro va xingidron) elektrodlar.

#### **2. Ionoselektivli membranalni elektrodlarga quyidagilar kiradi:**

- zaryadlarni to‘plovchi ionalmashuvchi membranalni elektrodlar – shisha elektrodlar;
- birlashgan suyuq ionitlardan tashkil topgan elektrodlar;
- membranoaktiv kompleksyonlar asosidagi membranalni elektrodlar;

— mono- va yarim kristall membranalı elektrodlar.

Galvanik elementlar – elektr yurituvchi kuch (EYK), sig‘imi, tashqi zanjirga beradigan energiyasi va saqlanishi bilan xarakterlanadi.

1. Galvanik elementning EUKi elektrodlarning materialiga va elektrolitning tarkibiga bog‘liq bo‘ladi.

2. Elementning sig‘imi deb, tok manbayining elektrsizlanishi tusayli bergen elektr energiyasi miqdoriga aytildi. Sig‘im reagentning manbadagi miqdori va massasiga hamda elektr energiyasiga aylanishiga bog‘liq bo‘lib, temperaturaning pasayishi yoki elektrsizlanishning ko‘payishi bilan kamayadi.

3. Galvanik elementning energiyasi son jihatidan uning sig‘imini kuchlanishiga ko‘paytirilganiga tengdir.

Elementning saqlanish muddati, bu muddatda elementning xarakteristikalari o‘rtacha o‘zgarmasdan qoladi. Saqlanish muddati saqlash temperatuasi ko‘tarilishi bilan kamayib boradi (masalan, batareykaning energiyasi issiq temperaturada tez kamayib ketadi).

Galvanik elementlar quyidagicha klassifikatsiyasiyalanadi.

**1. Birlamchi galvanik elementlar** – reagentlar (oksidlanuvchi va tiklovchi) kimyoviy energiyasini to‘g‘ridan to‘g‘ri elektr energiyasiga aylantirib beruvchi qurilma. Manba tarkibiga kiruvchi reagentlar uning ishlash jarayonida sarflanadi va reagentlar sarflab bo‘lingandan so‘ng uning harakati to‘xtaydi. Hozirgi kunda elektrolit eritmasiz marganes-ruxli (quruq elementlar batareykalar) elementlardan ko‘p foydalaniladi.

**2. Tokning ikkilamchi manbasi (akkumulatorlar)** – tokning tashqi manbasi elektr energiyasini kimyoviy energiyaga aylantirib beradigan va uni to‘playdigan qurilmalardir. To‘plangan kimyoviy energiya zarur vaqtida yana qaytadan elektr energiyasiga aylantiriladi. Hozirgi kunda keng tarqalgan akkumulatorlardan biri – qo‘rg‘oshinli (yoki kislotali) akkumulatorlardir.

Bu akkumulatorlarda elektrolit sifatida 25–30% li oltingugurt kislotasi eritmasi, elektrodlar sifatida qo‘rg‘oshin oksidi bilan to‘ldirilgan qurg‘oshin panjaralari qo‘llaniladi. Bundan tashqari, har xil elektron qurilmalar (mobil telefonlar, planshetlar, noutbuklar va boshqalar)da asosan katta sig‘imli litiy-ionli va litiy-polimerli akkumulatorlardan foydalaniladi (88-rasm).



88-rasm. Vodorod yoqilg'isida ishlaydigan batareyaga ulangan noutbuk.


**3. Elektrokimyoviy generatorlar (yoqilg'i elementlari)** – bu elementlarda kimyoviy energiyani elektr energiyasiga aylantirish jarayoni yuz beradi. Oksidlovchi va tiklovchi moddalar elementdan tashqarida saqlanadi. Ish jarayonida to'xtovsiz va alohida-alohida elektrodlarga uzatilib turiladi. Yoqilg'i elementining ish jarayonida elektrodlar sarflanmaydi. Tiklovchi moddalar sifatida suyuq va gaz holatidagi vodorod – H, metanol – CN<sub>2</sub>OH, metan – CN<sub>4</sub> lardan foydalilanadi. Oksidlovchi modda sifatida odatda toza yoki havodagi kislorod – O dan foydalilanadi. Ishqorli elektrolitli kislorodli-vodorodli elementda kimyoviy energiya elektr energiyasiga aylantiriladi. Shunday energoqurilmalar kosmik kemalarda kosmonavtlar va kemaning o'zini energiya bilan ta'minlashda qo'llaniladi.

### **13.2. Galvanik elementlar energiyasini elektr energiyasiga aylantirish qurilmalari. Yoqilg'i elementlari. Elektrokimyoviy generator**

Birinchi bo'lib yoqilg'i to'g'risida XIX asrning o'rtalarida gapirila boshlandi. Bu vaqtga kelib galvanik elementlar nazariyasi yaratib bo'lingan edi. Rossiyada birinchi bo'lib yoqilg'i elementi 1878-yili P.N. Yablochkov tomonidan taklif qilingan edi.

Yoqilg'i elementi tokning kimyoviy manbasiga kirib va galvanik elementlaridan tashkil topgan bo'lib, yoqilg'ining va oksidlanuvchining kimyoviy energiyasi elektrokimyoviy yo'l bilan elektr energiyasiga aylantriladi. Boshqa so'z bilan aytganda, yoqilg'i elementlaridan elektr energiyasi oksidlanish reaksiysi hisobiga olinadi. Oksidlanish reaksiysi – yoqilg'ini (masalan, vodorodni) va oksidlanuvchini (masalan, kislородни) qayta tiklashdir. Bu uzoq ishlovchi element hisoblanib, uning uzlusiz ishlashi mos elektrodlarga qayta ishlovchi va oksidlanuvchini uzatib turishdani boratdir. Qayta ishlovchi va oksidlanuvchilar orasida elektrolit joylashgan bo'ladi. Faqatgina o'z vaqtida reaksiya mahsulotlarini chiqarib tashlash, kerakli darajada temperatura va kuchlanishni ushlab turish zarur (89-rasm).

Yoqilg'i elementlarida bo'ladigan reaksiyaning yonishda kuzatiladigan oksidlanish reaksiyasidan farqi shundaki, yoqilg'i elementlarida boshlang'ich modda elektronlar energiyasining farqi bo'lib reaksiya mahsulotlari to'g'ridan to'g'ri elektr energiyasiga aylanadi.



89-rasm. Suyuq – ishqorli – elektromagnitli (vodorod – kislородли) yoqilg'i elementining sxemasi:

1 – anod; 2 – katod; 3 – elektrolit; 4 – reaksiya mahsulotlari;  
 5 – yuklanish; 6 – qayta tiklovchi; 7 – oksidlovchi.

Elektrolit – biror moddani elektroliz yo‘li bilan tarkibiy qismlarga ajralishi uchun tayyorlangan eritma.

Bunday elementlarda *A* va *B* gaz bo‘limlari bor va bu bo‘limlarga to‘xtovsiz vodorod (qayta tiklovchi) va kislород (oksidlovchi) uzatib turiladi. Bu bo‘limlar oralariga elektrolit to‘ldirilgan g‘ovak elektrodlar bilan ajratib turiladi. Elektrolit vodorodning ionlarini –  $H^+$  o‘tkazadi, ammo kislородning –  $O_2$  molekulalarini o‘tkazmaydi.


Yoqilg‘i elementining anodida – 1 vodorodning elektrokimyoviy oksidlanishi ro‘y beradi va vodorodning musbat ionlari elektrolitga, undan so‘ng esa zanjir bo‘ylab yuklanishga o‘tadi. Qolgan elektronlar manfiy potensial hosil qiladi va katodga qarab harakatlanadi:



Katodda kislородning tiklanishi ro‘y beradi. Natijada kislород atomlari o‘ziga elektronlarni biriktirib oladi va **manfiy** ionlarni hosil qiladi. Manfiy ionlar suvdagi vodorod atomi bilan birikib, gidroksil – ionlar shaklida elektrolitga o‘tadi:




Elektrolitdagi gidroksid – ionlari katoddan anodga qarab harakatlanadi. Shunday qilib, elektrolit elektrodlar o‘rtasida ionli tok o‘tkazuvchi hisoblanadi va yoqilg‘ini oksidlovchidan ajratib, ularga bir-biri bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zaro ta’sir qilishi imkoniyatini bermaydi. Yuqorida gilarga asosan elementdagи reaksiyalar yig‘indisi quyidagicha yuz beradi:



Yoqilg‘i (vodorod) va oksidlovchi (kislород)ni to‘xtovsiz uzatib turish natijasida, yoqilg‘ini to‘xtovsiz ionlar bilan elektrokimyoviy oksidlanish reaksiyasi davom etadi va bir vaqtning o‘zida elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Shubhasiz, elektrolitning tarkibi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmasligi lozim.

Bir qurilmaga yoqilg‘i elementlari batareyasi, yoqilg‘ini va oksidlovchini qayta ishlash va uzatish sistemasi, reaksiya mahsulotlarini chiqarib yuborish sistemasi, issiqlikni tartibga solish sistemasi, avtomatika va boshqa bir qancha qurilmalar birlashtirilsa, u elektrokimyoviy generator (EKG) deyiladi [44] (90-rasm).



**90-rasm. Yoqilg'i elementlarida ishlaydigan elektrokimyoviy generatorning soddalashtirilgan sxemasi.**

Yoqilg'i elementlari juda ko'p belgilarga qarab klassifikatsiyalanadi. Ulardan asosiysi – yoqilg'i va elektrolitning qanday holatda bo'lishidir. Shunga asosan yoqilg'i qattiq, suyuq va gaz holatlaridagi yoqilg'i elementlari bo'lishi mumkin.

Xullas, to'xtovsiz yoqilg'i (vodorod)ni va oksidlovchi (vodorod)ni uzatib turish natijasida yoqilg'i ionlarining to'xtovsiz elektrokimyoviy oksidlanishi va elektr energiyasining to'xtovsiz ajralishi ro'y beradi.

## **14-bob. ENERGIYANING BOSHQA TURLARI**

### **14.1. Energiyaning boshqa turlari: vodorod yoqilg'isi; shahar chiqindilari.**

Biz ko'rib chiqqan tabiatdagi qaytalanuvchi energiya manbalaridan tashqari energiyaning boshqa turlari ham mavjud. Quyida hozirgi kunda insoniyat tomonidan foydalanish yo'lga qo'yilayotgan vodorod yoqilg'isi va shahar chiqindilaridan energiya olishni ko'rib chiqamiz.

#### **14.1.1. Vodorod yoqilg'isi**

Ana'naviy-organik yoqilg'i bozorida ozgina inqiroz boshlanishi bilan neft va gaz mahsulotlarining o'rnnini bosadigan boshqa energiya manbalaridan foydalanishga harakat qilinadi. Juda ko'p olimlarning fikricha, zamonaviy energetikaning rivojlanishida uglevodorod yoqilg'ilarining o'rniغا tabiatda juda ko'p tarqalgan kimyoziy element – vodoroddan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Vodorod zahiralari planetamizda bitmas-tuganmasdir. Bundan tashqari, bir xil og'irlikda vodorod benzинга qaraganda 3 marta ko'proq issiqlik ajratadi va undan yoqilg'i sifatida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida foydalanish mumkin (transportda, sanoatda, maishiy xizmatda va boshqalarda).

Vodorod yoqilg'isini qo'llash atrof-muhitni toza saqlashga sharoit yaratadi, chunki vodorod yoqilishi natijasida undan chiqindi sifatida distillangan suvning bug'lari ajralib chiqadi, xolos.

Vodorodni tashish va saqlash juda qulaydir. Uzoq masofalarga uni quvurlar orqali uzatish mumkin. Vodorodni quvurlar orqali uzatish elektr energiyasini ulkan elektr uzatish tarmoqlarida uzatishga nisbatan bir necha barobar arzonroqdir [29, 45].

Olimlar vodorod yoqilg'isini sanoat asosida ishlab chiqarishning ko'pgina usullarini topishdi, asosan odatdagi suvdan. Uning juda katta

miqdorini yer kurrasida zahiralari juda katta bo'lgan toshko'mirdan olish mumkin. Vodrod yoqilg'isini suvda, havoda, hattoki havosi siyraklashgan kosmik kengliklardan olish mumkinligi bu yoqilg'inining biznes olamidagi dovrug'ini nihoyatda oshirib yubordi, chunki uni ishlab chiqarish uchun deyarli xarajatlar qilinmaydi, foyda to'g'ridan to'g'ri havodan olinadi.

XXI asr boshlarida dunyodagi katta biznes namoyondalari vodorod energetikasiga qiziqish juda katta ekanligi to'g'risida ochiq-oydin gapira boshlashdi. AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari vodorod yoqilg'isi ishlab chiqarish uchun milliardlab dolllar mablag'larni investitsiya qilishdi. Faqat birgina «FutureGen» vodorod elektrostansiyaning loyihasi uchun AQSh hukumati 1,2 mlrd. dollar mablag' sarfladi, Xitoy davlati xuddi shunday elektrostansiya uchun bundan ham ko'p mablag' sarfladi. Hozirgi kunda vodorod energetikasini rivojlanadirish uchun Sharp, Sanyo, Hitachi, Toyota, Panasonic kompaniyalari juda katta mablag'larni investitsiya qilmoqdalar.

Vodorod energiyasidan foydalanish mumkin bo'lgan usullardan biri, bu kimyoviy elementni vodorod yoqilg'isiga aylanishidir, ya'ni vodorod va kislorod aralashmasining siqilgan yoki gaz holatidagi ko'rinishidir. Bu ko'rinishdagi aralashmaning yonish issiqligi benzin (tabiiy gaz) va havo aralashmasi issiqligidan yuqoriroqdir. Vodorod yoqilg'isini ishlab chiqarish va undan ommaviy tarzda foydalanish, hozircha, uning tannarxi qimmatligi hamda uni tarqatish infrastrukturasini yo'qligi sababli kechikmoqda. Vodorod yoqilg'isini ishlab chiqarish uni olish usuliga bog'liqidir. Masalan, quyidagi moddalardan ishlab chiqarilgan 1 kg vodorod yoqilg'isi narxi:

- metan gazidan ishlab chiqarish – 2,5 doll./kilo;
- suvdan elektroliz yo'li bilan – 2÷10 doll./kilo;
- toshko'mirga havosiz joyda yuqori temperaturada ishlov berish yo'li bilan 1,5÷2,0 doll./kilo.

Ma'lumki, vodorod yoqilg'isini ishlab chiqarish texnologiyasining bu xilda rivojlanishi uni ana'naviy organik yoqilg'ilar bilan raqobat qila olmasligini bildiradi. Ammo hozirgi texnologiyalarni zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilishi natijasida vodorod yoqilg'isini ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga olib kelmoqda, ana'naviy yoqig'i turlari esa kundan-kunga qimmatlashib bormoqda.

Hozirgi kunda dunyodagi juda ko‘p yengil avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar vodorod yoqilg‘isi va gibrild (benzin + vodorod) yoqilg‘isida harakatga keladigan avtomobilarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqda. Nemis olimlarinig hisobiga ko‘ra, XXI asrning o‘rtalarida vodorod yoqilg‘isi bilan ishlaydigan avtomobillar yer yuzida 75% ni tashkil qiladi, qolgan 25% iginan organik yoqilg‘ilardan foydalanadi [46].

Bu sohada AQShning Daimler va Honda, Xitoyning Shanghai hamda nemislarning VW kompaniyalari etakchi o‘rinlarni egallab kelishmoqda. Masalan, volorod yoqilg‘isi bilan ishlaydigan Honda FCX avtomobilini ko‘rib chiqaylik. To‘liq vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan Honda FCX avtomobili 160 km/soatgacha tezlikni oshira oladi va to‘ldirilgan yoqilg‘i baki bilan 500 km masofani o‘ta oladi. Uning yoqilg‘i bakiga 5 kg siqilgan vodorod yoqilg‘isi joylashadi. Hozirgi kunda 200 dona shunday avtomobilarga ega shaxslar bo‘lib, yana 50 mingdan ortiq avtomobilchilar shu kabi mashinalarga ega bo‘lish istagini bildirishgan. Havo temperaturasi  $30^{\circ}$  ga sovib ketganda ham uni birdan o‘t oldirish mumkin.

Honda FCX avtomobilini 3 dona elektrodvigatel harakatga keltiradi. Ulardan biri oldingi g‘ildiraklarni aylantirsa, qolgan 2 dona elektrodvigatel keyingi g‘ildiraklarga ulangan. Oldingi elektrodvigatelning quvvati 80 kW·soat quvvatga ega bo‘lsa, keyingi g‘ildiraklarni harakatga keltiruvchi elektrodvigatellarning quvvati 25 kW·soatga teng (91 a-rasm).



a)



b)

91-rasm. Vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan Honda FCX yengil avtomobili va yoqilg‘i quyish stansiyasi (a) hamda Citaro avtobusi (b).

Mercedes-Benz konsernining Mercedes Citaro loyihasi katta shaharlar uchun vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan jamoat transportini ishlab chiqarishdan iboratdir. Hozirgi kunda dunyoda bu kabi avtobuslardan 40 donasi ishlab turibdi. Avtobus elektrodvigatellarinig quvvati 250 kW·soatga teng bo‘lib, 40 kishidan iborat yo‘lovchilar va ularning yuklari bilan 80 km/soat tezlikda harakat qiladi. Har 100 km masofaga 25 kg vodorod yoqilg‘isi sarflaydi. Avtobusning yoqilg‘i bakiga 42 kg vodorod yoqilg‘isi joylashadi va bu yoqilg‘i bilan avtobus 167 km masofani bosib o‘tadi (91 b-rasm).

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha  $55 \div 60$  mln tonna vodorod ishlab chiqariladi. Vodorod asosan azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarishda, past chastotali xom neftni motor yog‘iga aylantirishda qo‘llaniladi. Siqilgan vodoroddan juda past (minus) temperatura olishda va kriogen raketa dvigatellari uchun yoqilg‘i sifatida foydalaniladi. Vodorod yoqilg‘isidan ko‘proq foydalanish va undan benzin o‘rnida foydalanish to‘g‘risida doimiy ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

#### 14.1.2. Shahar chiqindilar

Shahar chiqindilaridan organik yoqilg‘i sifatida foydalanib, ana’naviy usulda issiqlik energiyasi yoki elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Ammo shahar chiqindilarining hammasidan organik yoqilg‘i sifatida foydalanish maqsadga muvofiq emas. Uning yoqilg‘i sifatida yoqish mumkin bo‘lgan qismidangina organik yoqilg‘i sifatida foydalanish mumkin. Shuning uchun shahar chiqindilarining asosi bilan qisqacha tanishib o‘tamiz.

Ma’lumki, katta-kichik shaharlarining barchasida maishiy chiqindilar mavjud. Har yili butun dunyoda  $25 \cdot 10^9$  (25 000 000 000) tonna chiqindi hosil bo‘ladi. Atrof-muhitning tozaligi, shahardagi insonlarning sog‘lig‘i chiqindilarni o‘z vaqtida yig‘ib, utilizatsiya qilishga bog‘liqdir [19, 47].

Katta shaharlarda chiqindilarni qayta ishslash muhim ahamiyatga ega. Chiqindilarni qayta ishslash natijasida yer yuzida kam qolgan juda ko‘p resurs va materiallar tejaladi. Masalan, Yevropadagi firmalardan biri chiqindilar tarkibidan oltin ajratib olishni yo‘lga qo‘ygan.



a)



b)



d)



e)

#### 92-rasm. Chiqindilarni yig'ish:

a – mashinalarda; b – idishlarda; d – qayta ishlash uchun chiqindilar maydoniga yig'ilgan kompyuterlar; e – qayta ishlash uchun yig'ilgan yangi yil archalari.

Chiqindilarni qayta ishlash uchun ularni yig'ish zarur. Yig'ish ishlari ham har xil amalga oshiriladi. Ba'zi joylarda chiqindilar aralashgan holda yig'iladi, ba'zi joylarda esa chiqindi turiga qarab alohida-alohida qilib yig'iladi. Chiqindilarni chiqindi yig'ish mashinalarida yoki doimiy qo'yilgan idishlarga yig'iladi [48] (92- va 94-rasmlar).

Chiqindi turlarini quyidagilarga bo'lish mumkin (93-rasm).

- 1. Qog'oz chiqindilari:** qog'oz; karton; gazetalar; gazlama.
- 2. Shisha chiqindilari:** shisha idishlar; shisha sinqlari.
- 3. Metall chiqindilari:** qora; rangli; qimmatbaho.
- 4. Kimyoviyatlar:** kislotalar; ishqorlar; organik moddalar.
- 5. Neft mahsulotlari:** yog'; bitum; asfalt.



**93-rasm. Ajratilgan uy chiqindilari:**

1 – shisha idishlar; 2 – yupqa plastik, 3 – qalin plastik, 4 – karton; 5 – aralash chiqindi; 6 – temir bankalar; 7 – qog'oz; 8 – polistirol; 9 – shisha; 10 – batareykalar; 11 – metall, 12 – organik chiqindilar; 13 – «Tetrapak» o'rama materiallari; 14 – gazlama; 15 – tualet chiqindilari.

**6. Elektronika:** har xil buyumlar; platalar; akkumulatorlar; simobli lampalar; simlar.

**7. Plastmassalar: PET (PETF) – Polietilentereftalat;**

PVX – Polivinilxlorid; PP – Polipropilen; PEND – past bosimli polietilen; PEVD – yuqori bosimli polietilen; PV – Polietilen mumi; PA – Poliamid; AVS – Akrilonitrilbutadienstirol; PS – Polistirol; PK – Polikarbonat; PBT – Polibutilentereftalat.

**8. Rezina:** g'ildirak shinalari; rezinalar.

**9. Biologik chiqindilar:** oziq-ovqat chiqindilari; yog'lar; najaslar.

**10. Yog'ochlar:** shox-shabbalar; qirindi; barglar.

**11. Qurilish chiqindilari:** g'isht; beton; boshqalar.

**12. Oqova suvlar.**

**Chiqindilarni boshqarish tizimi** – bu chiqindilarni yig'ish, tashish, qayta ishlash, ikkilamchi foydalanish yoki utilizatsiya qilish va butun jarayonni nazorat qilishdan iboratdir. Chiqindilar inson faoliyatining mahsulidir.

Tabiatiga nisbatan organik chiqindilar (o'simlik va oziq-ovqat, qog'oz chiqindilari) ni biologik tarzda kompost qilish va chiritish mumkin. Biologik qayta tayyorlash natijasida olingen organik moddalar qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikda organik o'g'it sifatida ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, chirish jarayonida hosil bo'lgan gaz (mas., biogaz – metan)dan isitishda va elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Qayta ishlanma chiqindilardan dvigatellarga yoqilg'i sifatida foydalanish mumkin yoki ularni boshqa energiya turiga aylantirish mumkin.

Chiqindilarga yuqori temperaturada ishlov berish natijasida ulardan yoqig'i manbasi sifatida foydalanib, ovqat pishirish, binolarni isitish, bug' qozonlarini ishlatib, bug' va elektr energiyasi olish mumkin.

Chiqindilarni boshqarishning asosiy usullaridan biri – chiqindilarning to'planib qolishining oldini olishdir. Buning uchun, birinchi galda, ikkinchi marta foydalanish usulini qo'llash lozim. Masalan, ishdan chiqqan jihoz va asboblarni yana foydalanish uchun ta'mirlash, ko'p marta foydalaniladigan buyumlar (oziq-ovqat mahsulotlarini olib yurish va saqlash uchun polietilen paketlar emas, balki latta paketlar) tayyorlash, ko'p marta foydalaniladigan buyumlar (bir marta foydalaniladigan oshxona jihozlari – qoshiq, sanchqi, stakan va boshqalar)ni ishlatishni targ'ib qilish, banka va paketlarni oziq-ovqat qoldiqlaridan tozalash va boshqalar.



94-rasm. Chiqindilarni to'plash.

## **14.2. Energiyaning boshqa turlari: fotosintez; fotoelektrik o'zgartiruvchilar**

Biz ko'rib chiqqan tabiatdagi qaytalanuvchi energiya manbalaridan tashqari energiyaning boshqa turlari ham mavjud. Quyida hozirgi kunda insoniyat tomonidan foydalanish yo'lga qo'yilayotgan fotosintez orqali va fotoelektrik o'zgartiruvchilardan energiya olishni qarab chiqamiz.

### **14.2.1. Fotosintez**

«Fotosintez» so'zi grekcha bo'lib, «fotos» – yorug'lik, «sintez» – birikma so'zlaridan tashkilgan va karbonat angidrid –  $\text{CO}_2$  dan organik moddalarini hosil bo'lish jarayonidir.

O'simliklarda yuz beradigan fotosintez jarayoni Yer yuzidagi barcha hayotning asosi hisoblanadi. Fotosintez jaryoni tufayli: o'simliklar quyosh energiyasidan foydalanib, noorganik birikmalardan boshqa barcha tirik organizmlarga oziqa bo'lib xizmat qiladigan organik birikmalarni ishlab chiqaradi; yer planetasini o'rabi turgan, biz nafas oladigan havoning o'zi ham, xuddi shuningdek, dunyo energetikasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan barcha energiya – bu qazilma yoqilg'ilarning energiyasi, ya'ni qachonlardir yer yuzasida yashagan o'simliklarning fotosintez jarayoni mahsuloti tufayli hosil bo'lgandir.

Dunyo o'rmonlarining fotosintez natijasida beradigan umumiy issiqlik energiyasi  $40-50 \times 10^{12}$  W ekvivalent energiyani tashkil qiladi. Bu energiya hozirgi vaqtida qazib olinayotgan neft va gaz energiyasidan 10 barobar ortiqdir [19, 49].

Fotosintez – quyosh yorug'ligi energiyasidan foydalanib, noorganik birikmalardan organik birikmalarning hosil bo'lish jarayonidir. Uning biologik ahamiyati yer yuzidagi tirik organizmlarni organik moddalar bilan ta'minlash va yer atmosferasini kislorod bilan boyitishdan iboratdir. Fotosintez – murakkab ko'p bosqichli jarayondir.

Fotosintez turlariga quyidagilar kiradi:

- 1) xlorofillsiz fotosintez;
- 2) xloroffilli fotosintez:

- anoksigenli;
- oksigenli.

Fotosintez bosqichlari:

- fotofizik;
- kimyoviy;
- kimyoviy.


Birinchi bosqichda yorug'lik kvantlarini pigmentlar bilan yutish jarayoni sodir bo'ladi, natijada ular qo'zg'aluvchi holatga o'tib, energiyasini fototizimning boshqa molekulalariga uzatadi.

Ikkinci bosqichda reaksiya markazida elektronlarning bo'linishi yuz beradi. Elektronlar elektronlarni harakatga keltiruvchi zanjir bo'ylab harakatlanadi. Ikkala bosqichdagi jarayonni fotosintezning yorug'likka bog'liq bo'lgan davri deyiladi.

Uchinchi bosqich yorug'lik qatnashmagan holda yuz beradi va yorug'likka bog'liq bo'lgan vaqtida yig'gan energiyasidan foydalangan holda organik moddalarning biokimyoiy sintezi reaksiyasini qamrab oladi

Insoniyat va hayvonot dunyosi kislorod iste'mol qilib (96-rasm) o'zidan karbonat angidrid ajratib chiqarsa, atmosferaga ajralib chiqqan karbonat angidrid – o'simliklarning asosiy uglerod manbayi hisoblanadi. Ammo o'simliklar karbonat angidridni faqatgina yorug'likda yutadi, yorug'liksiz ular ham o'zidan karbonat angidrid ajratadi. Masalan, xonada o'sayotgan juda ko'p uy gullari va o'simliklari kechasi – qorong'ulikda kislorod iste'mol qilishi sababli shu xonada uxlagan kishining kislorod etishmasligi sababli boshi og'riydi. O'simliklarda fotosintez jarayoni xloroplastlarda amalgalga oshadi.


Xloroguruuhlar o'simliklarning poya va mevalari hujayralarida bo'lishi mumkin, ammo fotosintezning asosiy organi ushbu jarayonga anatomik moslashgan o'simliklarning barglaridir (95-rasm). Chunki hajmiga nisbatan yuzasi katta bo'lgan barglar fotosintez uchun yorug'likning katta qismini qabul qiladi [50].



95-rasm. Barg hujayralaridagi xloroguruuhlar.



a)



b)

96-rasm. O'simlik bargi (a) hamda yer kurrasи bo'ylab (suv osti va yer yuzidagi o'simliklarning) murakkab rangli fotosintezning taqsimlanishi (b).

Xlorofill ikki xil vazifani bajaradi: quyosh nurlarini yutib energiyaga aylantirish va uni uzatish. Xloroguruhlardagi 90% xlorofilllar yorug'lik yig'uvchilar kompleksi guruhiga kiradi. Ular antenna vazifasini bajarib, yig'ilgan energiyani fototizimning reaksiya jarayoni o'tuvchi markazga uzatadi.

Hozirgi kunda **biomassa** muhim energetik manba hisoblanadi, chunki dunyoda foydalilanayotgan energiyaning 10% i **biomassadan** olinadi. Bundan keyin ham bu mamlakatlarda biomassa asosiy energiya manbasi bo'lib qoladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rmonlarni kesib va yoqib, undan energiya olishning ko'paytirishi tufayli juda ko'p mamlakatlarda o'rmonlarning kamayib ketishi yoki butunlay yo'qolib ketish xavfi tug'ilmoqda.

#### 14.2.2. Fotoelektrik o'zgartiruvchilar

Fotoelektrik o'zgartiruvchilar quyoshning yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi yarim o'tkazgich asbobdir. Fotoelektrik o'zgartiruvchilarning ishlash prinsipi elektromagnit nurlanishni (yorug'lik energiyasini) elektr energiyasiga aylantirib beruvchi fotoeffekt hodisasiga asoslangan [19, 51].

Fotoeffektning quyidagi uch asosiy turi mavjud.

1. Tashqi fotoeffekt – nurlanish ta'siri ostida katod metali yuzasidan uni o'rab turgan vakuumga elektronlar ajralib chiqadi.

2. Ichki fotoeffekt – yorug'lik ta'siri ostida yarim o'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligining o'zgarishi.

3. Har xil turdag'i o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ikkita yarim o'tkazgichning bekitilgan qatlami fotoeffekti.

Elektromagnit nurlanishi energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda, amaliy jihatdan, asosan uchinchi fotoeffekt usulidan foydalaniladi va bu **r-p** ga o'tish fotoeffekti deb ataladi.

**r-p** o'tish fotoeffektida quyidagi jarayon yuz beradi. **p** yarim o'tkazgichda ortiqcha erkin elektronlar, **r** yarim o'tkazgichda esa musbat tirkishlar mavjud. Ularning o'zaro aloqasi natijasida elektronlarning diffuziyasi kuzatiladi. Diffuziyalanish aloqa qilish tekisligida (bekitilgan qatlam) nisbiy va musbat zaryadlar konsentratsiyasi zaryadlar diffuziyasini tenglashtiruvchi potensiallar farqi hosil bo'limguncha davom etadi. Biroq o'zaro aloqada hosil bo'lgan potensiallar farqidan foydalanib bo'lmaydi, chunki yopiq zanjirda u xuddi shunday teskari belgili potensiallar farqi bilan tenglashadi. Agar aloqa qilish tekisligiga yorug'lik berib turilsa, unda ikkala yarim o'tkazgichda qo'shimcha juft elektron-tirkishlar hosil bo'ladi. Ularning aloqa qilish farqi ta'sirida potensiallar farqi aralashib ketadi: elektronlar **p** yarim o'tkazgichga o'tib uni manfiy zaryadlaydi; tirkishlar esa **r** yarim o'tkazgichga o'tib, uni musbat zaryadlaydi. Aloqa qilish tekisligi doimiy ravishda yoritilib tursa, potensiallarning qo'shimcha farqi tashqi zanjirda doimiy elektr tokini hosil qiladi.

Aloqa qilish yuzasini yoritib turish imkoniyatini hosil qilish uchun, **r** yarim o'tkazgich, juda yupqa, amaliy jihatdan shaffof **p** yarim o'tkazgich bilan qoplanadi. Quyosh batareyalarini hosil qiluvchi quyosh elementlari yig'indisi xuddi shunday tayyorlanadi.

Hozirgi vaqtida butun dunyoda yuqori samarali quyosh elementlarini (arzon va yuqori FIKli) yaratish maqsadida har xil yarim o'tkazgichlarni izlash va tekshirib ko'rish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda uch (va undan ortiq) komponentli yarim o'tkazgichli birikmalar asosidagi yupqa plyonkali fotoelementlarning namunalari bor. Xuddi shuningdek, qimmatroq, ammo yupqa plyonkali elementlarga qaraganda yanada samaraliroq monokristall kremniyeli elementlardan foydalanish borasida ham muvaffaqiyatlar bor (olmosga o'xshash strukturali sintetik material). Kelajakda FIK 30% dan ko'proq bo'lgan quyosh elementlarini yaratish imkoniyati tug'ilmoqda (zamonaviy kremniyli fotoelementlarning FIK i 15% dan oshmaydi).

Hozirgi vaqtida, fotoo'zgartiruvchining narxini pasaytirish va uning umumiy samaradorligini oshirish maqsadida quyosh nurlanishini yig'uvchi har xil sistemalardan foydalanilmoqda. Bu holatda, polimer linzasi kichik maydon yuzasidagi quyosh nurlanishini yig'uvchi, uncha qimmat bo'limgan qurilma sifatida xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, fotoelementning o'lchamlarini kamaytrishga va shu hisobdan qimmatroq, yuqori samarali quyosh elementlaridan foydalanishga imkon beradi. Bu maqsadlarda nuqtali fokuslovchi Frenel linzasidan foydalanish tabiiy nurlanishdan bir necha yuz marta ko'proq quyosh nurlanishini yig'ish, shu bilan bir qatorda fotoelementning asosiy chiqish ko'rsathichlari samaradorligini mos holda oshirish imkonini beradi.

Biroq quyosh nurlanishini yig'ishdan foydalanish yig'uvchilarsiz fotoelektrik sistemalarga xos bo'limgan bir qator xususiyatlarga ega. Shuningdek, yig'ilgan nurlanishni yutish davrida, quyosh elementlaridan samarali ravishda chetga olib chiqish zarur bo'lgan katta miqdordagi issiqlik ajralib chiqadi. Bundan tashqari, fokuslashtirilgan nur dog'i element chegarasidan chiqib ketmasligi va elementni quyoshga nisbatan aniq joylashishini ta'minlashi lozim. Buni ta'minlash uchun quyoshning harakat holatini kuzatib turadigan maxsus tizim qo'llash zarur.

Nur yig'uvchilarni qo'llash quyosh batareyasining chiqishdagi energetik xarakteristikalarining oshishiga olib keladi, jumladan, kechki soatlarda quvvat va elektr energiyasi ishlab chiqarilishi (shuning o'zi ham quyosh elektrostansiyasining energosistemada ishlashida juda muhimdir), xuddi shuningdek, qurilmaning energoijtisodiy ko'rsatkichlarini ko'taruvchi uning FIKidir.

**Quyosh energiyasini fotoelektrik energiyaga aylantirish.** Quyosh radiatsiyasining energiyasini doimiy elektrga aylantirish mumkin. Buning uchun yupqa kremniy plyonkalari va boshqa biror yarim o'tkazgich materialdan foydalaniladi. Fotoelektrik energiyaga aylantirishning potensial qulayliklari: harakat qiluvchi qismlarning yo'qligi; ishlash muddati 100 yildan ortiqligi; ekspluatatsiya qilishning soddaligi, quyosh radiatsiyasidan samarali foydalanish mumkinligi. Ammo bu usulda energiya ishlab chiqarish an'anaviy energiya ishlab chiqarishdan 75 marta qimmatroqdir. Shuning uchun hozirgi vaqtida arzonroq elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar ustida ish olib borilmoqda. Masalan, kremniy o'rniiga arseniygeliy qo'llanilmoqda.

**Fotoelektr generator**, quyosh batareyasi – yorug'lik energiyasini elektr energiyaga aylantiruvchi qurilma. Fotoelementga yorug'lik nurlari tushganda fotoelektr generatorda elektr toki hosil bo'ladi. Eng samarali fotoelektr generatorning ishi o'tkazgich bilan yorug'lik sezgir yarim o'tkazgich (masalan, kremniy) yoki turli jinsli o'tkazgichlar orasidagi chegarada uyg'otiladigan elektryurituvchi kuch (EYK)ga asoslanadi. Fotoelektr generator qalinligi 0,2–0,3 mm dan kichik bo'lgan yarim o'tkazgichli alohida fotoelementlardan tekis – panel ko'rinishida yig'iladi. 1 m<sup>2</sup> sirtli fotoelektr generatordan olinadigan quvvat 200–300 W bo'lib, FIK esa 10–20% gachadir. Fotoelektr generatorda o'ta yuqori zichlikdagi nurlanish energiyasidan bir necha kW·sm<sup>2</sup> gacha quvvat hosil qilish mumkin. Ixchamligi, uzoq muddat ishlatishi, ishlatish qulayligi, o'zidan zararli gazlar chiqarmasligi fotoelektr generatorning afzalligi, qimmat turishi esa kamchiligidir. Fotoelektr generator kosmik uchish apparatlarida, avtomatik meteostansiyalar va boshqalarda ishlatiladi [52].

**Fotoelement** – yorug'lik nurlanishining EYK yoki elektr ishlatishi foto-elektrik emissiya yoki ichki fotoeffekt hodisasiga asoslangan. Fotoelektrik emissiya asosida ishlaydigan fotoelektrik vakuum hosil qilingan yoki gaz to'ldirilgan shisha yoxud kolba shishaga joylashgan 2 ta elektrod – katod va anodli elektrovakuum asbobidan iborat. Fotokatodga tushadigan yorug'lik oqimi uning sirtida fotoelektron emissiya hosil qiladi. Fotoelektron emissiya zanjiri tutashtirilganda unda yorug'lik oqimiga proporsional fototok oqimi vujudga keladi. Fotokatodli surma – seziyli va kislород – seziyli fotoelektron keng tarqalgan [53].

**Fotoelektronlar**, odatda, nurlanish yoki yorug'lik qabul qiluvchilar bo'lib xizmat qiladi. Yarim o'tkazgichli fotoelektronlardan quyosh batareyalari, fotoelektr generatorlar quyosh energiyasini to'g'ridan to'g'ri elektr energiyasiga aylantirishda foydalaniadi [54].

## **15-bob. TOZA ENERGIYANI AXTARISH VA ENERGIYANI TEJASH YO'LLARI**

### **15.1. Toza energiyani axtarish**

